

CHOLG‘U IJROCHILIGIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR



- ❖ O'zDSMI huzuridagi Tarmoq markazi
- ❖ “Cholg‘u ijrochiligi (turlari bo'yicha)” yo'nalishi
- ❖ Professor Matyakubov Matrasul

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Yunus Rajabiy nomidagi Miliy musiqa san’ati instituti “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasи, professori Matyakubov Matrasul

Taqrizchilar: Parij milliy oliy musiqa va raqs koncervatoriyasи professori Dylan Corlay

O‘zDSMI “Folklor ijrochiligi” kafedrasи mudiri, dotsent Axmedova Oygul

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “29” yanvardagi 1-sonli bayonнома)

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	12
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	17
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	59
V.	KEYSLAR BANKI.....	85
VI.	GLOSSARIY.....	94
VII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	113
VIII.	TAQRIZLAR.....	116

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Cholg‘u ijrochiligida innovatsion yondashuvlar” modulining maqsadi:

Musiqa san’atining turli yo‘nalishlari va janrlarida rivojlanish bosqichlarini o‘zlashtirgan holda ushbu san’atning dastlabki va zamonaviy holatini solishtirish orqali uning hozirgi kundagi o‘rnini belgilash orqali faoliyat ko‘rsatayotgan kompozitorlar, dirijyorlar, xonanda va sozandalarning tajribalari misolida yangi zamonaviy shakl va uslublarni amaliyatga tatbiq etish va boshqalarni qo‘llash uchun pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat.

“Cholg‘u ijrochiligida innovatsion yondashuvlar” modulining vazifalari:

- cholg‘u ijrochiligi san’at tuining o‘rnini ko‘rsatish;
- musiqa ijodkorlari va ijrochilarining zamon talabidan kelib chiqib mahoratini oshirish;
- cholg‘u ijrochiligi kasbida muloqot jarayonlarining takomillashuvi, va ularni qo‘llash uchun pedagog kadrlarni tayyorlashni ta’minalashga qaratilgan faoliyatni tashkil etishdir.

Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Cholg‘u ijrochiligidagi innovatsion yondashuvlar” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

- musiqa san’atida mualliflik huquqini ta’minlashning meyoriy-huquqiy asoslarini;
- musiqa san’atidagi zamonaviy yo‘nalish va uslublar hamda tendensiyalarni **bilishi** lozim.
- musiqa san’atidagi modernizatsiya va o‘zgarishlarni o‘zlashtirgan holda uning mazmun-mohiyatini talabalarga yetkazish;
- musiqa san’atida taniqli mahalliy va xorijiy ijodkorlarning asarlari bilan tanishish, tahlil eta olish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.
- zamonaviy tendensiyalarga asoslanib yaratilgan musiqiy asarlarni o‘zlashtirish, konsert-pedagogik repertuarlarni shakllantirishda qo‘llash;
- O‘zbekiston va jahon kompozitorlari, an’anaviy bastakorlik, folklor namunalaridan va xalq ijodi merosidan samarali foydalanish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.
- musiqa sohasida mashg‘ulotlarni yuqori saviyada tashkil etish;
- mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik hamda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish va boshqarish;
- guruhli va yakka tartibdagi mashg‘ulotlar uchun tegishli fanlar bo‘yicha modullarni ishlab chiqish va modul tizimi asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- musiqa san’ati sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish **kompetensiyasiga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Cholg‘u ijrochiligidagi innovatsion yondashuvlar” moduli cholg‘u ijrochilik san’ati va uning turlari, shuningdek, xalq musiqa ijodiyotini cholg‘u ijrochiligi vositasida targ‘ib etish masalalari va undan samarali foydalanishga yordam beruvchi ma’lumotlar bayon etilgan. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Cholg‘u ijrochiligidagi innovatsion yondashuvlar” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi”, “Ijrochilik san’atida barqaror taraqqiyot va nomoddiy madaniy meros”, “Ijro san’ati marketingi strategiyalari” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Mutaxassislik (turlari bo‘yicha)” va uzviy o‘zaro bog‘liq boshqa fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni olib borish, ularning mazmunini yangi, zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo‘llash va talabalar bilimini baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

Nº	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat			
		Jam i	naza riy	ama liy	ko‘c hma
1 .	Cholg‘u ijrochiligi sohasida innovatsion ta’lim.	2	2		
2 .	Musiqiy ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari.	2	2		
3 .	Musiqqa cholg‘ulari rivojida innovatsiyalarning o‘rni.	2	2		
4 .	Xalqaro tanlovlarning innovatsion jarayonlardagi o‘rni («Art open world» tanlovi misolida).	2		2	
5 .	Sozandaning musiqiy ifodadan foydalanishdagi muammolari.	2		2	
6 .	Musiqiy ta’limda zamonaviy raqamlı texnologiyalardan foydalanish.	2		2	
7 .	Professional musiqqa ijrochilarni tayyorlash jarayonida media texnologiyalarning o‘rni.	2		2	
8 .	Musiqiy ta’limda foydalaniladigan multimedia loyihalarining turlari va shakllari. Musiqiy ta’limni zamonaviylashtirishda davlat siyosati.	2		2	
Jami:		1 6	6	1 0	

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Cholg‘u ijrochiligi sohasida innovatsion ta’lim. (2 soat)

Cholg‘u ijrochiligi sohasida innovatsion ta’lim. Cholg‘u ijrochiligi rivojlanishining asosiy bosqichlari. Cholg‘u ijrochiligining rivojlanish bosqichlari. Dunyo xalqlarining ma’naviy - madaniy hayotida zamonaviy tendensiyalar asosida yaratilgan musiqaning tutgan o‘rni. Cholg‘u ijrochiligining o‘ziga xos tomonlari. Uslublar, yangi milliy musiqa maktablarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Cholg‘u ijrochilari – katta bilim va tajribaga ega ijodkor, tashkilotchi va boshqaruvchi sifatida. Zamonaviy dirijyorlik san’ati maktablari. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta’lim jarayoniga tadbiq etish masalalari. Mazkur mavzu yuzasidan tinglovchilar bastakorlik san’atining paydo bo‘lishi, kasb sifatida shakllanishi, bastakor kasbiga nisbatan qo‘yiladigan talablar, zamonaviy musiqa san’atida bastakor va dirijyorlarning o‘rni va unga qo‘yiladigan talablar haqida ma’lumot oladilar.

2-mavzu: Musiqiy ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari. (2 soat)

Musiqiy ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari. Cholg‘u ijrochiligida stilistik yo‘nalishlar. Milliy va zamonaviy kuylash uslublari. Cholg‘u ijrochiligida badihaviylik (improvizatsiya) texnikasi. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta’lim jarayoniga tadbiq etish masalalari. Mazkur mavzu yuzasidan tinglovchilar xonandalik san’atining paydo bo‘lishi, kasb sifatida shakllanishi, xonanda kasbiga nisbatan qo‘yiladigan talablar, zamonaviy musiqa san’atida xonandaning o‘rni va unga qo‘yiladigan talablar haqida ma’lumot oladilar.

3-mavzu: Sozandaning musiqiy ifodadan foydalanishdagi muammolari. (2 soat)

Sozandaning musiqiy ifodadan foydalanishdagi muammolari. Professional va havaskor ijrochilik. Cholg‘u ijrochiligida ustoz-shogird tizimi. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta’lim jarayoniga tadbiq etish masalalari. Mazkur mavzu yuzasidan tinglovchilar cholg‘ularda ijrochilik san’ati va dirijyorlik san’atining paydo bo‘lishi, kasb sifatida shakllanishi, sozanda va dirijyor kasbiga nisbatan qo‘yiladigan talablar, zamonaviy musiqa san’atida sozanda yoki dirijyorning o‘rni va unga qo‘yiladigan talablar haqida ma’lumot oladilar.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: Musiqiy ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari.

Musiqiy ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari. XX asr musiqasida shakl va uslublar xilma-xilligi, janrlar. Musiqada “modernizm” tushunchasining paydo bo‘lishi. Tarixiy va turli innovatsion an’analarning vujudga kelishi. Musiqa san’atining an’anaviy uslub va janrlarini inkor etilishi va turli

kompozitorlik oqimlari haqida ma'lumotlarga tinglovchilar ega bo'lishi. Mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalarning amaliy ko'nikmalarini namoyish etish.

2-amaliy mashg'ulot: Musiqa cholg'ulari rivojida innovatsiyalarning o'rni.

Musiqa cholg'ulari rivojida innovatsiyalarning o'rni. Zamonaviy musiqa yaratgan kompozitorlarning ijodiy asarlarini tahlil etish. Penderetskiy, Shchedrin, Shnitke va boshqalarning ijodi. Gibrit janrlar. Uslublar plyuralizmi. Musiqiy til evolyusiyasi va uning shakl, musiqiy obraz hosil qilish mexanizmiga ta'siri. XXI asr musiqa san'atidagi yangi oqimlarning janr, shakl va uslubga ta'siri. Janriy eksperimentlar natijasida stilizatsiya, polistilistika, individual uslublar tushunchalarining paydo bo'lishi. Mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar bo'yicha amaliy ko'nikmalarini namoyish etish.

3-amaliy mashg'ulot: Xalqaro tanlovlarning innovatsion jarayonlardagi o'rni («Art open world» tanlovi misolida).

Xalqaro tanlovlarning innovatsion jarayonlardagi o'rni («Art open world» tanlovi misolida). Kompozitor va folklor, Sharq va G'arb musiqasining integratsiyasi. Rossiya va Amerikada professional dirijyorlar tayyorlash tizimi va ularning mazmuni nimalardan iboratligini o'rganish. Mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar bo'yicha amaliy ko'nikmalarini namoyish etish.

4-amaliy mashg'ulot: Musiqiy ta'limda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish.

Musiqiy ta'limda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish. Mavzu yuzasidan xorijiy davlatlarda vokal maktablar tizimlari, ulardagi yutuq va kamchiliklarni, vokal ijrochilik san'atida artistik mahorat va sahma madaniyati, yuqori darajadagi mashhur professional xonandalarning ijodiy faoliyati haqida ma'lumot olish.Nazariy mashg'ulot rejasida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha mustaqil ravishda so'nggi davrda vokal san'ati bo'yicha chop etilgan qo'llanma, darslik va ilmiy jurnallardan, INTERNET saytlaridan qo'shimcha ma'lumotlar to'plash. Mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalarning amaliy ko'nikmalarini namoyish etish.

5-amaliy mashg'ulot: Professional musiqa ijrochilarni tayyorlash jarayonida media texnologiyalarning o'rni.

Professional musiqa ijrochilarni tayyorlash jarayonida media texnologiyalarning o'rni. Ushbu mavzuni o'zlashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulot xonanda bilishi va egallashi lozim bo'lган barcha bilimlarni aniqlashtirish. Vokal ijrochiligidagi zamonaviy texnik vositalar, ulardan foydalanish uchun zarur bo'lган sharoit, talab etiladigan ko'nikmalarni namoyish etish. Tegishli bilimlarning o'zlashtirilishi va amaliy ijro etilishi.

6-amaliy mashg'ulot: Musiqiy ta'limda foydalilaniladigan multimedia loyihibalarining turlari va shakllari. Musiqiy ta'limni zamonaviylashtirishda davlat siyosati.

Musiqiy ta’limda foydalaniladigan multimedia loyihalarining turlari va shakllari. Musiqiy ta’limni zamonaviylashtirishda davlat siyosati. Mazkur mavzuni o‘zlashtirishdan oldin vokal san’atida Xalqaro xonandalar tanlovlari va festivallar o‘rni belgilab olish. Tajribali xonandalarning qanday uslublarda ijodiy jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishi, ta’sir kuchini o‘tkazuvchi uslublar va samarali faoliyat olib borilishi. Zarur bo‘lgan bilim-tajribalar bo‘yicha tinglovchilar mustaqil ravishda (turli xonandalarning tajribalari asosida) ma’lumotlar to‘plash va tashkil etiladigan amaliy mashg‘ulot davrida xonandalikning mahalliy uslublar xususida o‘z qarashlarini bayon etashi. Eng samarali va ilg‘or deb topilgan ta’sir vositalarining yanada chuqurroq o‘zlashtirilishi uchun baxs-munozaralar tashkil etish. Mashg‘ulot yakunida jamoga ta’sir vositalarining eng namunali deb topilganlari umumlashtirish, ta’lim tizimiga tatbiq etish masalalari muhokama etilishi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilzish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qieslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

1. Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lган yakuniy xulosa eki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari ezilgan qog'ozlarni tarqatiladi:
 - ishtirokchilarning munosabatlari individual eki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

2. Namuna.

Fikr: “Bastakorlik san'atida “Avangardizm” oqimi va uning zamonaviy musiqaga ta'siri”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- pedagog mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni eritilgan input-matnni tarqatma eki taqdimot ko'rinishida tayerlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini erituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi eki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishslashda talabalar eki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgililar	1 - m a t n	2 - m a t n	3 - m a t n
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“_” bu fikr èki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq èritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Venn diagrammasi metodi Metodning maqsadi:

Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiyligini farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilaётган tushuncha èki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (èki aksi) doiralar ichiga èzib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular bирgalashib, ko‘rib chiqilaётган muammo èhud tushunchalarning umumiyligini jihatlarini (èki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga èzadilar.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar èki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga èki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual èki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida èzma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi èki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunc halar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo ‘s hi m c h a ma 'l u m ot
Kanon	Yunon. canon – me’èr, qoida	
Intonatsiy a	Lot. intono – qattiq talaffuz etaman	
Basso ostinato	Ital. basso ostinato – tayanch bas.	

Geterofoniya	Yunon. heteros – boshqa, phone tovush, ovoz; bir ovozli kuyni birgalikda ijro qilganda, improvizatsiya tufayli vaqtı-vaqtı bilan yuzaga keladigan ohangdoshlarning paydo bo‘lishi	
Auftakt	Nem. auf-ustida, lot. Tactus – tegish; qo‘l bilan ishora qilmoq, birlamchi ogohlantiruvchi qo‘l ko‘tarish harakati	
Vokaliz	Fransuzcha vocalize, lot. Vocalis – unli tovush.	

Izoh: Ikkinchı ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi.
Mazkur tushunchalar haqida qo’shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

“Brifing” metodi

“Brifing”- (ingl. briefing-qisqa) biror-bir masala èki savolning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press-konferensiY.

O’tkazish bosqichlari:

1. Taqdimot qismi.
2. Muhokama jaraèni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin.

Shuningdek, amaliy o‘yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzarb mavzu èki muammo muhokamasiga bag‘ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo‘ladi. Talabalar èki tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o’tkazishda ham foydalanish mumkin.

III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Cholg‘u ijrochiligi sohasida innovatsion ta’lim.

Reja:

- 1.1. “Cholg‘u ijrochiligidagi innovatsion yondashuv” fani asoslari.
- 1.2. “Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” fanini o‘qitishning maqsadi va vazifalari.
- 1.3. Musiqa san’ati fanlarining o‘ziga xos jihatlari.

Tayanch iboralar: uzlucksiz ta’lim, ta’lim tuzilmasi, ta’lim xususiyatlari, musiqa san’ati, pedagogik texnologiyalar, uslubiyot, uslub, vosita.

1.1. “Cholg‘u ijrochiligidagi innovatsion yondashuv” fani asoslari

Musiqa – inson ma’naviy olamining tarjimoni, u inson tuyg‘usiga ta’sir etish bilan kishini ma’naviy jihatdan tarbiyalaydi. Bugungi kunda musiqa san’ati insonlarga va ayniqsa yoshlarga ko‘tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo‘naltirishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham yurtimizda musiqa san’atini rivojlantirish, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bolalar va san’at maktablari, kollej-litseylar, oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quv-tarbiyaviy ishlarni zamon talablari darajasida tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida: “Bugungi shiddatli davrda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkin”, deyiladi. Bu borada musiqa san’ati orqali shu soxa bo‘yicha ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi ustoz-o‘qituvchilar yosh iste’dodlarga g‘oyaviy yetuklik va ijro mahoratlarini o‘stirish masalalariga jiddiy e’tibor berishlari talab etiladi.

“Ma’naviyatni yo‘qotsak, o‘zimiz va o‘zligimizni yo‘qotamiz. Ma’naviyatni yuksaltirsak, o‘z murod-maqsadimizga yetishda kuchli madad topamiz”.¹

Asrlar osha bizgacha yetib kelgan milliy cholg‘ularimiz va musiqamizning ajoyib namunalari bugungi kunda ham o‘zining rang-barang jilosi, ohanrabo kuylari bilan kishilarga olam-olam zavq-shavq va huzur baxsh etib kelmoqda. Milliy musiqa san’atimizni har qachongidan chuqurroq va atroflicha o‘rganish, uni xalq ichida keng targ‘ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, o‘zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo‘lgan cholg‘ular va cholg‘u musiqasi qadimdan boy va murakkab ta’sirchan imkoniyatlarga ega.

Jamiyat ma’naviy hayotini rivojlantirish kishilarning ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat va ilm-fan to‘g‘risidagi tasavvurlarining nechog‘lik ilmiyligi, shuningdek, to‘g‘ri nazariy va amaliy negizga qo‘yilganligi bilan bog‘langandir.

Ma’naviyatni rivojlantirish sohasidagi mustaqillik siyosati ma’naviy hayot, madaniy taraqqiyotning umumiy qonunlarini ilmiy jihatdan yangicha ishlab chiqishni, ma’naviy-ma’rifiy omilning demokratik, insonparvarlik tamoyillari va bozor iqtisodiyoti asosida qurilayotgan yangi jamiyatda tutadigan o‘rnini belgilab olishni kun tartibiga qo‘yadi. Prezidentimiz I.A.Karimov alohida ta’kidlaganidek, «Yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo‘lib voyaga yetishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko‘tarishning ahamiyati beqiyosdir» (Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- Toshkent, «O‘zbekiston», 2000 3-bet).

Cholg‘u ijrochiligi musiqa san’ati tarkibida muhim o‘rin tutadi. Chunki bunda asrlar davomida ajdoddlardan avlodlarga uzatib kelinayotgan cholg‘ular va ularning ijrochilik asoslari an’anasi davom ettiriladi. Mazkur “Cholg‘u ijrochiligidagi innovatsion yondashuv” fanida oliy ta’lim professor-o‘qituvchilarini cholg‘u ijrochilik metodologiyasi bilan tanishtiradi. 2017 yil 8 avgustdagи PQ – 3178 – sonli “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarorida yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish vazifasi qo‘yilgan.

¹ И.А. Каримов. “Юксак маънавият – енгилмас куч”, Т.2008

“Cholg‘u ijrochiligidagi innovatsion yondashuv” fanining asosiy maqsadi – oliy musiqiy ta’lim bo‘yicha professor-o‘qituvchilarni fanning ilmiy va metodologik asoslari orqali ilmiy-nazariy bilimlarni chur egallagan, ularni amaliyotda tadbiq eta olish ko‘nikmalarini yanada takomillashtirishdan iborat. Puxta nazariy bilimlar va amaliy ish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan mutaxassislarining malakasini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylangan.

Respublikamiz iqtisodiyotining barcha sohalariga mehnat bozorida raqobatlasha oladigan, keng ixtisosli, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini maqbullashtirish uchun oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash, ta’lim yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umum davlat tasniflagichi, davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja hamda dasturlarini takomillashtirish, samarali ta’lim texnologiyalarini amalgalashtirish, zarur moddiy-texnik va o‘quv-uslubiy baza yaratish hamda ulardan unumli foydalanish, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash va ularning mehnatini rag‘batlanish, o‘ziga xos o‘quv-ilmiy majmular va markazlar tashkil etish kabilarga asoslanish zarur.

Ma’lumki, oliy ta’lim tizimi jarayoni tahsil oluvchining o‘qib-o‘rganish va o‘qituvchining o‘rgatuvchilikdan iborat hamkorlik faoliyatlarini ko‘zda tutib, professor-o‘qituvchilar tomonidan ta’lim standartlari darajasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar o‘zlashtirilishini ta’minlaydigan tizimdir.

Cholg‘u ijrochiligi o‘quv predmetlarining vazifasi tanlangan kasb va ixtisosliklar bo‘yicha zarur va yetarli darajadagi bilim, xatti-harakat usullari (ko‘nikma va malakalar) va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishdir.

Cholg‘u ijrochiligi o‘quv predmetlarini o‘rganish jarayoni o‘zining maqsadi va vazifalari, mazmuni, tashkil etish shakllari, amalgalashtirish metodlari va vositalari, o‘rganish o‘rni (joyi), ajratilgan vaqt miqdoriga ko‘ra umumilmiy hamda umumkasbiy o‘quv predmetlaridan farq qiladi.

Cholg‘u ijrochiligi o‘quv predmetlarini maqbul o‘qitish deganda ayni payt va shart-sharoitda eng kam vaqt, zo‘riqish kuchlari, mablag‘, material kabilalar sarflab imkon qadar yuqori samara hamda sifatli natijaga erishishni tushunamiz.

Ma’lumki, hozirgi paytda fanning rivojlanishi tabaqalanish va mujassamlashtirish bilan tavsiflanadi.

Fanning tabaqalanishi mavjud fanning alohida bo‘limi mustaqil tarmoq sifatida ajralib chiqishida o‘z ifodasini topsa, ilgari alohida-alohida bo‘lgan bir necha fanlar tutashgan joyida yangi, jadal rivojlanuvchi fanlar hosil bo‘lishi esa mujassamlashtirishni anglatadi. Mujassamlashtirish, eng

avvalo, obyektlar mohiyatiga chuqur kirib borish bilan tavsiflanadi. Demak, ta’lim tizimining rivojlanishi pedagogikani tabaqalanishiga zamin yaratdi.

Metodika uchun o‘ziga xos masala ko‘rilayotgan aniq o‘quv predmetini o‘qitish mazmuni hisoblanadi: O‘quv predmetini shakllanishida ma’lum fan sohasidan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega axborotlarni tanlab olish, ularni tizimlashtirish muhim ahamiyat kasb etdi. Bu masalalarni ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantirish va qiziqtirish maqsadlaridan kelib chiqqan holda xususiy metodikalar tadqiq etadi. Lekin, eng avvalo aniq fan undan o‘quv maqsadlarida ajratib olingan qismi, ya’ni o‘quv predmetining o‘ziga xos jihatlari hisobga olinadi. Ta’lim mazmunini aniqlashda umumiy pedagogika bir tomonda qolib ketmaydi. Biroq umumiy pedagogikada fan va o‘quv predmeti didaktik nuqtai nazaridan etarli darajada ishlab chiqilmagan hisoblanadi, bu masala metodika doirasida nisbatan ko‘proq o‘z yechimini topadi.

Mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish, talabalarning mustaqil ishlarini hamda o‘quv predmeti bo‘yicha to‘garak ishlarini tashkil etish va meyorlash, tahsil oluvchilarning faol o‘quv-bilish faoliyatlarini ta’minalash yo‘llarini aniqlash, ta’lim-tarbiya metodlarini tanlab amalga joriy etish, o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlab, baholash kabi masalalarda metodika o‘quv predmeti mansub bo‘lgan fanga nisbatan ko‘proq didaktika va innovatsion ta’lim texnologiyalariga tayanadi.

Bunda ixtisoslik qaysi kasbga mansubligi, shuningdek, kasbning o‘zi qanday faoliyat turiga tegishli ekanligini ham aniqlashtiradi. Aniq yo‘nalishda tanlab olingan ta’lim mazmuni yuqorida pastga “qavatma-qavat” tahlil etiladi. Yuqori qatlama iqtisodiyot sohasiga tegishli bo‘lsa, o‘rta qavat kasb-hunarga va pastki qavat alohida ixtisosliklarga to‘g‘ri keladi. Bunday yondashuv zamonaviy cholq‘u ijrochiligi ta’limi mazmunini shakllantirish muammosi yechimi sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki bunda kasb yoki ixtisoslik nuqtai nazaridan pastdan emas, balki aniq yo‘nalish doirasidagi kasbiy ta’lim mazmuni yaxlit tizim sifatida yuqorida pastga tomon tadqiq etiladi.

Ta’lim mazmunini tanlab olishga umumiy yondashuvlar:

I. Ta’limda uzviylik o‘quv predmetining tashkiliy qismlarining to‘g‘ri nisbati va zaruriy bog‘liqligini ta’min etadi.

O‘quv materialining joylashishi va bu materialni o‘zlashtirish usullarini tanlashdagi uzviylik quyidagi ikki omilni hisobga olish bilan amalga oshiriladi: Ushbu o‘quv predmeti tegishli fan mazmuni va mantiqi hamda bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining qonuniyatlarini, fanning

mazmuni va mantig‘i o‘quv predmetining uzviyligini ta’min etishda muhim ahamiyat kasb etadi: tushuncha, qonunlar va dalillar, o‘quv predmeti mazmunining o‘zagi hisoblanib, ketma-ket joylashadi va o‘rganilayotgan sohaga oid bilimlarning kengayib borishini ta’minlaydi, oldingilari keyingilari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining qonuniyatları omili ilmiy bilimlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quv predmeti mazmuni sifatida talqin etilishiga yo‘l qo‘ymaydi, unga didaktik ishlov berishni talab etadi. Shunday qilib, uzviylik faqatgina to‘g‘ri chiziqli emas, balki o‘quv materialini konsentrik joylashuvida ham amalga oshiriladi.

Uzviylik tushunchalarini keng va chuqur aloqadorligini o‘rganish mazmunini boyitish uni o‘zlashtirish shakllarining uzviyligini ta’min etadi.

Uzviylik alohida o‘quv predmetlarinigina emas, balki turli o‘quv predmetlarining o‘zaro munosabatlarini ham qamrab olishi zarur. Buning uchun turli o‘quv predmetlarini o‘rganishda obyektlarning turli jihatlarini obyektiv aloqadorligi asos hisoblanadi.

II. Ta’lim mazmuni avval DTS (TTS), so‘ngra o‘quv reja va dasturi shaklida loyihalashtiriladi.

Ta’lim mazmuni ta’lim jarayonining asosiy elementi (tashkil etuvchi komponenti) ni o‘zlashtirish natijasida ijtimoiy maqsadlarga erishiladi. O‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan ijtimoiy madaniy tajribaning tavsifi va hajmi aniq shart-sharoit, makon, zamon, shuningdek, ta’lim muassasasining turi va darajasiga maqsad va vazifalariga bog‘liq bo‘ladi.

Ta’lim mazmunini tashkil etuvchi tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: a) samarali amaliy faoliyat ko‘rsatish tajribasi, ya’ni mehnat, iqtisodiyot, siyosat ijtimoiy va boshqa sohalardagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish. b) bilish tajribasi atrof olam rivojlanishi qonuniyatlarini anglash metodlari va natijalari; v) umumiy maqsadlarga erishish jarayonidagi ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar tajribasi; g) axloqiy etik tajriba; d) ma’naviy- madaniy tajriba va shu kabilar.

Ta’lim mazmuni muayyan ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan o‘quv predmetlarini o‘rganish jarayonida o‘zlashtiriladi. Ta’lim mazmunining tuzilmasi, ya’ni turli elementlarning o‘zaro munosabatlari, ketma-ketligi, davomiyligini o‘quv rejasi aniqlab beradi Shu paytgacha ta’lim mazmuni shakllantirishga yagona yondashuv ishlab chiqilmagan. Amalda ta’lim mazmuni bajariladigan vazifalarning murakkablik darajasi va mazmuniga binoan aniqlanadi.

1.2. Cholg‘u ijrochiligi uslublari

San’at – millatning ma’naviy mulki. Inson kamolotida musiqaning o‘rni va ahamiyati katta ekanligi mutaxassis-olimlar tomonidan isbotlangan. Ayniqsa, milliy ohanglarga yo‘g‘rilgan musiqaning kishilarni bir maqsad yo‘lida jipslashtirish, ularni bunyodkorlik, ijodkorlik, go‘zallik sari ilhomlantirishi sir emas. Har bir davr o‘z g‘oyalarini o‘rtaga tashlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyeyov ilgari surayotgan g‘oyalardan biri **“Istiqlolni birga quramiz!”**

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan yangilash, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishga doir muhim masalalar belgilangan. Prezidentimizning 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Shaxs axloqiy madaniyati shakllanishida tizimli va aniq maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Bunda har bir insonga individual tarzda yondashish hamda axloqiy madaniyatni kamol toptirishning muhim yo‘nalishi hisoblangan o‘z-o‘zini tarbiyalashga alohida e’tibor talab qilinadi. Ushbu vazifa va talablarga ta’lim oluvchilarimiz mas’uliyat bilan qarab, o‘z kasbiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun harakat qilishlari lozim. Buning uchun nashr etilgan o‘quv adabiyotlar, ilmiy maqolalar, taniqli sozandalar, san’at ahli bilan uchrashuvlardagi ibratli fikrlardan xulosa chiqarish, o‘z faoliyatlarida unumli foydalanish ijobiy samara beradi.

Har bir cholg‘u ijrochiligining o‘ziga yarasha va xos bo‘lgan ijro uslubiga ega. Bu faoliyat cholg‘ularda ijrochilik holatini mukammal egallashdan boshlanib, turli ijro yo‘nalishlarini tahlil qilish, mahorat oshirish, nazariy va amaliy bilim, ko‘nikmalarni shakllantirishni taqozo etadi. Har bir bo‘lg‘usi o‘qituvchi-ustoz turli o‘quv maskanlarining o‘z cholg‘usi bo‘yicha tasdiqlangan DTS, qabul qilingan dasturi, o‘quv adabiyotlarini bilishi, har bir ta’lim oluvchi-shogirdga individual yondashib ish yuritishi lozim bo‘ladi. Masalan, musiqada shtrixlar badiiy asarning mohiyatini, xarakterini va badiiy ifodalilagini ochib beradigan ijro usulidir. Ayrim adabiyotlarda shtrix – «tovush chiqarish usuli» deb ham ataladi. Shtrixlarning har birini alohida izohlaganda tovush chiqarish usuli hisoblansa, badiiy asar ijrosida esa ular majmuasi ijro usullari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Cholg‘u ijrochiligi bu ijodiy jarayon, chunki asardagi ma’lum bir musiqiy jumlanı turli shtrixda ijro qilib ko‘rilgandan so‘ng, shu

jumla mazmunini ochib bera oladigan shtrix usuli tanlanadi. Musiqiy pedagogika va musiqashunoslik sohasidagi izlanishlar, kompozitorlar ijodi, umuman musiqaning rivojlanishi zamonaviy cholg‘u ijrochiligi va ijiro usullarining ham rivojlanishiga asosiy turtki bo‘lmoqda. Shtrix ustida so‘z yuritilar ekan, ijrochilikda uning ahamiyati juda muhimligini ta’kidlab o‘tish joiz. O‘qituvchi shogirdiga yangi, notanish asarni o‘rgatar ekan, undagi har bir jumla ijrosida qanday shtrixni qo‘llash maqsadga muvofiqligi ustida o‘ylab ko‘rish, maqbulini tanlash lozim bo‘ladi. Turli cholg‘ulardagi ijroda asarning badiiy mohiyatiga zarar yetkazmaslik yo‘lini izlash va topish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, musiqiy pedagogikaning cholg‘u ijrochilik yo‘nalishida gamma, uchtovushlik va mashqlar o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ularni o‘rganish va chalish o‘quv davrining hamma bosqichlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Undan turli bosqichlarda turli maqsadlarda foydalaniladi. Doimiy ravishda o‘z ustida ishlamaydigan sozandaning ijrochilik faoliyati tez tugab qolishi mumkin. Chunki, bu faoliyat ijodiy faoliyat. Ijodiy faoliyat esa doimiy izlanishni, ijrochilik mahorati ustida muntazam shug‘ullanishni talab qiladi. Shuning uchun o‘z-o‘zidan, nafaqat o‘quv jarayonida, balki ijrochilik faoliyatining oxirigacha gamma, uchtovushlik va mashqlarning ahamiyati birday saqlanib qolaveradi. Mashhur sozandalarning faoliyatiga nazar tashlasak, buning isbotini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Kompozitor va o‘z davrining yetuk sozandasini mashhur pianinochi S.Raxmaninov «Bir kun chalmasam o‘zim bilaman, ikki kun chalmasam do‘stilarim biladi, uch kun chalmasam tinglovchilar biladi» deganida, mashq qilish, shug‘ullanishning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor isbotlagan edi.

Gamma va arpedjiolar ustida ishslash jarayoni faqat o‘quvchining texnik imkoniyatlarinigina rivojlantirish bo‘lib qolmasdan, balki gammalar yordamida ijroning badiiy ifodalilik ko‘nikmalarini tarbiyalovchi vositalardan biri deb qarash lozim. Har qanday mashq yoki gamma aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Gamma, uchtovushlik va mashqlarni chalish ongli ravishda zarurat darajasiga aylansagina, kelajakda ijrochilik mahoratini yo‘qotmay uni saqlay olish va rivojlantirish imkonini beradi. Shuning uchun ham ijrochilik faoliyatida gamma, uchtovushlik va mashqlarning ahamiyati beqiyosdir.

Har bir xalq musiqasi va kompozitorlar yaratgan asarlar boy musiqiy bezaklarga ega. Musiqiy bezaklarsiz musiqa o‘zining to‘liq mazmun mohiyatini tarannum eta olmaydi. Musiqiy bezaklar kuyni har tomonlama

boyitadi, uning xarakterini ohib berishda muhim o‘rin tutadi. Musiqiy bezaklar har-xil melizmlar va qochirimlardan iborat. Melizmlar “trel”, “forshlag”, “mordent”, “gruppetto” va boshqa nomlar bilan atalib, deyarli barcha xalqlar kuy va qo‘shiqlarida, kompozitorlar ijodida juda keng qo‘llaniladi. Shashmaqom asarlari va mumtoz o‘zbek kuylarida uchraydigan bezaklar melizmlar deb atalishi bilan birga “qochirim”, “nola” deb ham yuritiladi. Ular milliy musiqiy bezaklarning barchasini o‘z ichiga oladi, turli cholg‘ular ijrosida turlicha nomlanadi, ijro etiladi. Ular milliy musiqamizning to‘laqonli, haqqoniy jaranglashiga, kuy ohanglari jozibasini to‘liq ohib berishga yordam beradi. Ta’lim oluvchilar ham bu faoliyatga ijobiy yondashishlari, muntazam takrorlash, yangi mahorat oshirish yo‘llarini izlashlari talab etiladi. Ta’lim oluvchining yoshi, qobiliyati, iste’dodi, xarakteri, malakasi, qiziqishi inobatga olinishi ijobiy natijaga erishishda muhim vosita hisoblanadi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyin, ayniqsa, milliy madaniyatimizning serqatlam tarixiga qiziqish va uni batafsil o‘rganishga e’tibor qaratildi. Arxeologik qazilmalar orqali topilgan haykalchalarni, uzoq asrlar davomida bunyod etilgan madaniy yodgorliklarni o‘rganish – musiqiy tadqiqotchilarimizning oldida turgan muhim vazifalardan biriga aylandi. Mashhur olimlar – YE.E.Bertels, A.N.Boldirev, B.L.Riftin, AA.Semyonovlarning izlanishlaridan olingen qimmatli ma’lumotlar, qadimshunoslar tomonidan ochilgan yangi-yangi kashfiyotlar musiqa madaniyatimiz tarixiga zarhal sahifalar bitili-shiga asos bo‘ldi. Jumladan, Ayritom va Termiz arxeologik ekspeditsiyalari (Rahbar: M.YE. Masson), Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi (Rahbar: S.P.Tolstov), Tojikiston arxeologak-etnografiya ekspeditsiyasi (Rahbarlar: AM.Belenitskiy, M.M.Dyakonov, A.Y.Yakubovskiy), Janubiy-Turkmaniston majmua ekspeditsiyasi (Rahbar: M.YE.Masson). O‘zbekis-ton Badiiy akademiyasi tasarrufidagi san’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti tashab-busi bilan tashkil etilgan ekspeditsiyalar ko‘hna madaniyatimiz tarixini yoritishga o‘z hissasini qo‘shti (Rahbar: GA.Pugachenkova). Mashxur olimlar K.V.Traver va VA.Meshke-ris ilmiy risolalarida ko‘hna Samarqand yaqinidagi shaharcha – Afrosiyob qazilmalaridan topilgan mashshoq(sozanda)lar tasvirlangan haykalchalar atroflicha tahlil etilib, ma’lum bo‘lishicha lyutnya cholrusi so‘g‘dlarning sevimli cholg‘ularidan bo‘lgan. Torli cholg‘ulardan yana biri o‘sha vaqtda ommalashgan arfa (chang) cholg‘usi bo‘lsa, damli cholg‘ularidan esa nay sozi bo‘lgan.

Taniqli olim R.L.Sadokovning qadimiy Xorazmga bag‘ishlangan risolasi musiqiy-tarixiy yo‘nalish bo‘yicha nihoyatda qimmatlidir.

Umuman, o'sha zamonning madaniy yodgorliklarida torli (lyutnya, arfa), damli (nay, surnay, rog, truba), urma zarbli (doira) cholg'ular tasvirlari saqlanib qolingga. Tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan masalalar do-irasi nihoyatda keng va ko'p qirrali bo'lgan. Shu nuqtai nazardan Markaziy Osiyo xalqparining musiqa madaniyati tarixini chuqurroq o'zlashtirilishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Musiqa tarixini bosqichma-bosqich o'rganish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasi bo'ylab qadim zamonlarda paydo bo'lgan musiqiy cholg'ularining rivojlanishidagi muammosini yoritish ham asosiy o'rinni tutadi.

Olib borilgan ekspeditsiyalar natijalari – cholg'ular tarixini o'rganishga imkon beradi. Sharq allomalarining mashhur risolalarida ham qadimiylar haqida boy ma'lumotlar mavjud. Abu Nasr Muhammad al-Forobiyning (873-950) «Katta musiqa kitobi», Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) «Davolash kitobi» qomusidagi «Musiqa haqida risola» si, Abu Abdulloh al-Xorazmiyning (X asr) «Bilimlar kaliti», Ibn Zaylining (1044 yilda vafot etgan) «Musiqa haqnida to'liq kitobi», Abduqodir Marog'iyning (XV asr) «Musiqa ilmida ohanglar to'plami», Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) «Musiqa haqida risola»-si, Hofiz Darvish Ali Changiyuning «Musiqa haqida risola»si kitoblarida xalq cholg'ulari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan.

Xalq cholg'ulari haqidagi tasavvurlarimizni badiiy asarlardagi musiqaga bag'ishlangan miniatyuralarda ifodalangan cholg'ular tasvirlari yanada boyitadi. Abul Qosim Firdavsiy, Musyaixiddin Sa'diy, Xofiz Sherzoziy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dexlaviy, Imonuddin Nasimiy, Abul Fazl Bayhaqiyy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Sulaymon Fuzuliy asarlardida 20 dan ziyod xalq cholg'ularining nomlari zikr etilgan.

XV-XVII asrlarda yaratilgan miniatyuralarda tanbur, barbat, ud, qonun, chang (arfa), lyutnya, doira, nay, g'ijjak, rubob kabi cholg'ularni uchratish mumkin. Saroy devorlarida (taxtda kim o'tiridshdan qat'iy nazar), taxtning chap devorida ikki mashshoq tasviri bo'lgan – chang va doira ijrochilar, shuningdek qo'llarida g'ijjak, chang, rubob, boshqa cholg'ularni va doira ushlab turgan mashshoqlar bilan birga martabali zotlarning saroy bog'larida aylanib yurishlari ifodalangan. Ma'lum bo'lishicha, xalq cholg'ularvda ansambl bo'lib ijro etish ham qadim zamonlardan shakllanib kelgan.

Madaniyat yodgorliklari, tasviriy san'at asarlari, devoriy rasmlar, sopol haykalchalar va turli xil miniatyuralar eramizning VII asridayoq ikki turdag'i xalq cholg'ulari ansamblari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Jumladan, damli va urma-zarbli cholg'ular; chertma mizrob torli cholkular ansamblari.

Xalq cholg‘u ansamblari jo‘rligida qo‘shiq va o‘yinlar xalq ommasining katta-katta madaniy hayotda, ommaviy bayramlarida ijro etilganligi haqida ma’lumotlar mavjud.

Cholg‘u ijrochiligi Markaziy Osiyo aholisining turmushi va faoliyatiga singib ketganligi, inson ma’naviyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanganligi tufayli «Navro‘z», «Lola sayli», «Hosil bayrami», «Qovun sayli», «Uzum sayli», «Paxta bayrami» va shunga o‘xhash shodiyonalarni cholg‘ularsiz tasavvur qilish qiyin. Xalq ommaviy sayil va bayramlarida karnay, surnay, doira, nog‘ora kabi musiqa cholg‘ulari keng qo‘llanilgan. Xalq raqslari aslida qosh o‘yini, yelka o‘yini, bosh o‘yini kabilarni o‘z ichiga olgan. Raqslar qarsak jo‘rligida ham ijro etilgan. Qarsak urish jo‘rligida o‘ziga xos «Qarsak o‘yin» san’ati shakllangan. «Qarsak o‘yin» xalq tomosha san’atining qadimiy ko‘rinishlaridan biri hisoblangan. Qarsak chalib, usul(ritm) hosil qilish va unga mos harakatlar topib o‘ynash, Qarsak o‘yinining asosiy belgisi bo‘lganligi haqida ma’lumotlar mavjud. U asosan ikki yirik xil – «Besh qarsak» va «Mayda qarsak»dan iborat bo‘lgan. Qarsak o‘yini ibridoiy ovchilarning turli o‘yinlari, ba’zi marosim raqslari negizida hamda sodda dunyoqarashlar bilan bog‘liq holda yuzaga kelib, ko‘p asrlik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Asrlar davomida u shaklan va mazmunan o‘zgarib, madaniylashib, xalq orasida ommalashib, bizgacha yetib kelgan.

Jizzax viloyatining Forish tumanida, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida va Samarcand viloyatining tog‘li va cho‘l tumanlarida «Besh qarsak» va «Mayda qarsak» o‘yinlari hozirgacha ijro etilib kelinmoqla. Mashhur Sharq olimi Abu Nasr Muhammad al-Forobiy «Musiqa haqida katta kitob»ada qarsakni musiqa ijrochiligi turlarvdan biri sifatida talqin etgan.

Hayotdagи ijtimoiy o‘zgarishlar taraqqiy etgandek, ansambl ijrochilik san’ati ham rivojlana boradi va uning turlari takomillashaveradi.

Doira cholg‘usi barcha turdagи ansamblarda yetakchi soz sifatida shartli ravishda qo‘llanilgan. Misol tariqasida: chang, ud, doira; g‘ijjak, ud, doira; ud, chang, g‘ijjak, nay, doira; ud, chang, g‘ijjak, doira; tanbur, dutor, doira ansamblari ijrochshshk amaliyotida qo‘llanilgan. Tanbur va doira cholg‘ularssan tuzilgan kamer turdagи ansambllar ijrosi yirik shakldagi asarlar hisoblangan – Maqom asarlarini ijro etishda ishlatilgan. Bunda tanbur sozi yetakchi cholg‘ulardan hisoblangan. Tanburning tori ikkita, keyinroq uchinchi tor qo‘shib taqilgan. Sariq (jez) simlar tortilgan uchta torli cholg‘u sifatida ijrochilik amaliyotida keng qo‘llanilgan.

Tanbur, doira va nay cholg‘ulari maqomlarning ashula yo‘llari ijrosida jo‘rnavoz sifatida ishtirok etgan.

Tantanali, bayramona marosimlarda barcha sozlardan tuzilgan katta cholg‘uchilar ansamblari ham faoliyat ko‘rsatgan. Jumladan, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak (yoki qobuz), chang, nay, qo‘shnay (yoki bulaman) va shu kabi cholg‘ular ansambli. Ma’lumotlarga ko‘ra XIX asrning ikkinchi yarmida O‘zbekiston va Tojikistonda asosan damli va urma-zarbli cholg‘ulardan (surnay, karnay, nokora, qo‘shnog‘ora va doiralardan) iborat ansambl tuzilgan. Bunday ansamblarda o‘ziga xos ijrochilik repertuari boyitilib, xalq teatrlariga jo‘rnavozlik uchun mo‘ljallangan o‘ynoqi kuy va ohanglar ijro etilgan. Ikkinchisi – xalq cholrulari ansambli deb nomlanib, unda asosan g‘ijjak, tanbur, dutor, nay va doira cholg‘ulari qo‘llanilgan.

XX asrning boshlarida O‘zbekistonda rubob cholg‘usi amaliyotda ommalasha boshladi. Bu cholg‘u Qashqardan keltirilganligi sababli qashqar rubobi deb nomlanib, ansamblar tarkibidan keng joy ola boshladi, jumladan, chang cholg‘usi ham keng qo‘llanilib, ansamblar tarkibiga kiritildi. Torli cholg‘u ansamblari uchun asosan ashula-raqs kuylaridan iborat bo‘lgan o‘ziga xos ijro repertuarlari o‘rin olgan. Bular: «Karimqulbegi», «Roq», «Qashqarcha», «Latifa», «Mustahzod», «Suvora», «Ufor» kabi asarlardir.

1927 yilga kelib mashhur sozanda-ijrochi, bastakor – Yunus Rajabiy O‘zbekiston radiosи qoshida 20 ga yaqin cholg‘uchi va xonandalardan iborat bo‘lgan xalq cholg‘ulari milliy ansamblini tashkil etadi. Bu ansamblga Toshkent shahrining o‘sha paytdagi mashhur musiqachilar: nay ijrochilar – Dadaali Soatqulov, Saidjon Kalonov, qo‘shnaychi Xayrulla Ubaydullayev, changchilar – Nig‘matjon Do‘stmuhamedov, Faxriddin Sodiqov, dutorchilar – Abdusoat Vahobov, Orif Qosimov, tanburchilar – Rixsi Rajabiy, Maxsudxo‘ja Yusupov, rijjakchilar – Imomjon Ikromov, Nabi Xasanov, Mahmudjon Yunusov, doirachi Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevlar jalb etiladi. Keyinroq borib bu ansambl tarkibi Da Respublikaning mashhur xonandalari – Toshkentlik Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Buxorolik Domla Halim Ibodov, Samarqandlik dutorchi, xonanda Hoji Abdurahmon Umarov, Xorazmlik tanburchi va xonandalar Matyoqub Xarratov, Safo Mug‘anniy, Toshkentlik xonandalar Nazira Ahmedova, Berta Davidova kabi taniqpi xushovoz san’atkorlar faoliyat ko‘rsatganlar. Ansamblning musiqiy ijrochilik repertuari dastlab o‘zbek xalq musiqasi namunalaridan tashkil topgan bo‘lib, keyinchalik Respublika bastakorlarining asarlari hisobiga ham birmuncha kengaya bordi.

Ijrochilik repertuarini rang-barang qilishga intilish, jahon musiqa madaniyati durdona asarlariga murojaat etish, ko‘zga ko‘ringan san’at ustalarini va iste’dodli yoshlar oqimini olib keldi. Shu maqsadda ansamblga

mashhur cholg‘ushunos, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Usta Usmon Zufarov tayyorlagan katta g‘ijjak, katta dutor va tanbur kabi cholrular kiritildi, natijada ansamblning ovoz diapazoni kengaytirilib, tembr jihatdan yanada boyitilishiga sabab bo‘ldi.

Ma’lumki, ansambl ijrochiligi san’atining rivojlanishida an’anaviy va turli yo‘nalishdagi zamonaviy ijro uslublariga xos ansambllar shakllandı. Bu albatta tabiiy holdir. Yillar o‘tib xalq cholrulari ansambl ijrochiligi san’ati hozirgi zamon talabiga xos bo‘lgan turli cholg‘ular turkumidan iborat ansambllar ham rivojlandi.

Musiqiy ijrochilik an’analarini yanada rivojlantirish, o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san’atini hozirgi kun talabiga javob beradigan darajaga ko‘tarish, zamonaviy ansambl ijrochiligi san’atini jahon andozasi talablariga to‘liq javob beradigan holga keltirish mutaxassislar e’tiboriga havola etildi. Mustaqil davlatimizning shuhratiga shuhrat qo‘sish, musiqiy ijrochilik dovrukini jahonga tanitish, ansambl ijrochiligi san’ati yutuqlariga tayangan holda zamon talabiga javob beradigan yangi-yangi cholg‘u asboblari yaratish masalalari yuzaga kelmokda.

Bugungi kunda bolalar musiqa va san’at mакtablarida, o‘rta maxsus musiqa va san’at bilim yurtlarida, madaniyat va san’at oliy o‘quv yurtlarida, kollejlarida yosh sozanda-ijrochilarni tarbiyalab yetishtirish uchun barcha imkoniyatlар yaratilmoqda. Xalq cholg‘ularida ijrochilik san’ati jahon musiqa madaniyatining yuksak talablari darajasiga ko‘tarilmoqda. Cholg‘ular takomillashtirilmokda: bular amaliy ijrochilik san’atining taraqqiyotiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmokda. Bu borada izlanishlar hamon davom etib kelmoqsa.

Bugungi kunda, ansambl, orkestr, yakknavoz cholg‘uchilik ijrochiligi keng rivoj topdi. Mustaqillik sharofati tufayli madaniyatimiz va san’atimizni yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlар ochildi.

Xalq cholg‘ulari ansambllarining yangi-yangi turlari ijrochilik san’atining yutuqlarini nafaqat Vatanimiz bo‘ylab, hatto xorijiy mamlakatlarda ham tarannum etmoqdalar:

Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambl; M.Turg‘unboyeva nomidagi «Bahor» xalq raqs ansambl; «Lazgi» ashula va raqs ansambl; «Shodlik» ashula va raqs ansambl; R.Toshmatov nomidagi dutorchilar ansambl.

O‘zbekiston davlat konservatoriysi xalq cholg‘ulari kafedrasida 1969 yilda tashkil etilgan changchilar ansambl shular jumlasidandir. Ansamblning o‘ziga xos tarixi bor. Ushbu risola chang cholg‘usining tarixi va takomillanish yo‘li, changchilar ansamblining shakllanishi, shu davrgacha bosib o‘tgan ijodiy yo‘liga bag‘ishlangan. Changchilar ansamblining ijrochilik

amaliyotida erishgan har bir yutug‘i, benazir mehnati, nufuzli konsertlardagi ishtiroki, yirik-yirik mutaxassislar va tinglovchilar tomonidan berilgan e’tiborlari batafsil yoritilgan. Risolani bir bo‘limida Respublikamizdagi changchi sozandalar va changchilar ansambli bilan faoliyat ko‘rsatgan san’atkorlar haqidagi qisqa ma’lumotlar berilgan.

Nazorat savollari

1. Ijrochilik san’atining vazifasi qanday?
2. Ijrochilik mahoratini oshirish yo‘llari qanday?
3. Gamma, uchtovushlik va mashqlarning ahamiyati nimada?
4. Musiqiy bezaklarning ahamiyatini ayting.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalq cholg‘ulari ijrochiligidagi yoshlar faolligini oshirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensisi maqolalar to‘plami. Maxsus muharrir D.Murodova. –T.:”Musiqa”.2015. -280 b.
2. Umrboqiy sozlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Tuzuvchi O.Toshmatova. –T.: “Nishon-Noshir”.2015. -252
3. O‘rta maxsus musiqa va san’at ta’lim tizimining vazifalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning maqolalar to‘plami. Mas’ul muharrir B.Azimov. – T.:”Musiqa”.2016. -184 b.

2-mavzu: Musiqiy ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari.

Reja:

- 2.1. Ustozning shaxsiy xislatlari, kasbiga xos bilimi, o‘z kasbiga xos xislatlari.
- 2.2. Ustoz faoliyatiga oid malakalar.
- 2.3. Musiqa san’ati rivojiga xissa qo‘shgan buyuk san’atkorlar.
- 2.4. 1917-1945 yillarda ijrochilik san’atining taraqqiyoti.

Tayanch iboralar: uzliksiz ta’lim, ta’lim tuzilmasi, ta’lim xususiyatlari, musiqa san’ati, pedagogik texnologiyalar, uslubiyot, uslub, vosita.

2.1. Ustozning shaxsiy xislatlari, kasbiga xos bilimi, o‘z kasbiga xos xislatlari.

Har bir jamiyatning rivojlanishida ta’lim tizimining rivojlanishi eng muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, rivojlangan jamiyat qurish yo‘lidagi ustozlarning say harakatlari ham ta’lim tizimining sifat bosqichini yuqori saviyada bosib o‘tib, ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ta’lim jarayoni jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda asosiy mazmun beruvchi yana bir tizim “Ustoz — shogird” tizimidir. Bugungi kunda mustaqil fikrlovchi, ishonch-e’tiqodli shogirlarni tarbiyalashda va zamon talabiga mos kadrlar yetkazib berishda bu tizim alohida o‘ringa egadir.

Darhaqiqat, har bir mashg‘ulot mazmunining kengligi va chuqurligi uning davlat talablariga muvofiqligi, shogirlarning ta’lim texnologiyalari va metodikaning to‘g‘ri usulini tanlashi va undan unumli foydalanishni talab etadi. Fikrimizdan kelib chiqqan holda, ustoz — shogird tizimi samaradorligining ortib borishini jadallashtirimiz zarur. Bu samaradorlikni esa, ustoz-shogird tizimida raqobat usullari orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, shogird ustozidan o‘zadi, degan xalq iborasi ham beziz emas, albatta.

Ustoz dastlab shogirdga auditoriyani ko‘rishi, his qilishi, u bilan birga ishlashi kerakligini uqtiradi va darsning zerikarli bo‘lmashligiga harakat qilishi, o‘z darsiga shogirdi ko‘zi bilan qarashi lozim bo‘lgan barcha chora-tadbirlarni berishi ham mumkin. Ustozning bitta shogirdi bo‘lmaydi, uning yana boshqa shogirlari ham bor bo‘lishi mumkin. Shu boisdan, u shogirlari bilan birga ishlar ekan, ularning o‘quvchilar bilan munosabatini ko‘rishi, dars jarayonidagi ma’lumotlarga to‘liq ega bo‘lishi va shogirdining imkoniyatlarini bilishi zarur. Raqobat usuli bu -shogirdni

harakatga keltiruvchi usullardan, shogird o‘zining tajriba orttirishi zarurligini bilishi, o‘z ustida ishlashi uchun motivatsion ta’sir kuchiga ega.

Ustoz shogirdlariga strategik rejalar tuzish va maqsad sari intilishi uchun har qanday metodik yordam ko‘rsata oladi. Demak, shogirdlariga ustoz istiqbol yo‘lida albatta raqobat bo‘lishini ham tushuntirib boradi.

Ustoz shogirdi hayotda va faoliyatda raqobatga kirishishi va o‘zini ro‘yobga chiqarishi uchun eng muhim narsa bu – boshqa odamlar bilan samarali o‘zaro ta’sirga kira olish qobiliyati ekanligini amaliyotda ko‘rsata olishi lozim. Shogird har qanday raqobat holatida to‘g‘ri yo‘l topa olish ko‘nikmalarini va natijani to‘g‘ri aniqlay olish har bir kishidan rang-barang shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlarni talab qilishini bilib boradi.

Shogird natijada o‘zining mustaqil harakat qilishida katta imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Demak, raqobat usullari shogirdni har tomonlama tayyor kadr bo‘lib yetilishiga sabab bo‘ladi. Ustoz-shogird munosabatlarida mustaqkam pedagogik-psixologik ko‘rsatmalar shakllanib borishi ham mumkin.

Ular quyidagicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

- o‘z xatti-harakatlari rejalarini shakllantirish;
- o‘z rivojlanishini kuzatib borish;
- o‘z rivojlanishini tushunish va foydalanilmagan imkoniyatlarni baholash;
- mentorlikning yangi malakalarini egallah;
- mentorlikning yangi usullari va metodlarini amaliy egallah;
- samarali rejalashtirish ko‘nikmalari;
- suhbатdoshini tinglay olish malakasi
- maxsus qoidalarni bilish va boshqa odamlarni tushunish.

Abu Nasr Farobi ustoz o‘qituvchiga shunday talab qo‘yadi: "Ustoz shogirddariga katta zulm ham xaddan tashqari ko‘ngilchanglik ham qilmaslik lozim." Chunki ortikcha zulum shogirdda ustozga nisbatan nafrat uyg‘otadi-yu, ustoz juda ham yumshoq bo‘lsa shogird uni mensimay qo‘yadi va u beradigan bilimdan sovub ham qoladi. U o‘qituvchiga bolalarning fe’l atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanishni maslaxat beradi. Uning fikricha:

1. Tarbiyalanuvchilar o‘qish-o‘rganishga moyillik bildirsalar, ularga ta’lim tarbiya jarayonida yumshoq usul qo‘llaniladi.
2. Tarbiyalanuvchilar o‘zboshimcha itoatsiz bo‘lsalar, qattiq usul (majburlov) qo‘llaniladi.

Abu Ali ibn Sino jahon madaniyatiga katta xissa qo‘shgan mashxur ensiklopedist olim, tabiatshunos, faylasuf, astronom, matematik,

musiqashunos, xuquqshunos, filolog, yozuvchi va shoir. Yevropada Avitsenna nomi bilan mashxur bo'lgan Ibn Sino jahon fani taraqqiyoti tarixida muxim rol' o'ynaydi,

Ibn Sinoning gumanistik ta'limalda birinchi masala inson kamolotidir, insonni olamdag'i mavjudodlardan yuqori qo'yishdir.

Ibn Sinoning ta'limal va tarbiya soxalaridagi boy meros o'z davrida jaholatiga qarshi kurashda juda katta progressiv axamiyatga ega bo'ldi. Buyuk alloma Ibn Sino bolaga bilim berish ustozning ma'suliyathi burchi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha bolalar bilan muomolada bosiq va jiddiy bo'lish, berilayotgan bilimning bolalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish kabilalar muhimdir.

XI asrda yashab o'tgan allomalardan biri Yusuf Xos Xojib ham o'z ijodida ilm axillarini, ustozlarini ulug'laydi. "Kutadgu bilig" asarida ilm axli ulug'lanadi. Uning yozishicha:

Tag'in bir toifa donishmand dono,
Ular ilmi elga mash'al doimo.
E'zozla ularni to bor imkoning,
Bilimlarin o'rgan toki bor oning,

Bulardir xaqiqat tayanch tirdgaging
Bilimli diyonat asos o'zagi.
Olimlar yo'q esa edi dunyoda,
Kelishi ham kulurmi edi bunyoda.
Ular ilmi bo'ldi xaloyiqqa nur
Erisa bu nurdan kimi yo'l topur.

Abu Rayxon Beruniyning qarashlari progressiv mazmun kasb etadi. Mutafakkirning gumanistik qarashlarida rostgo'ylik bilan adolat ximmatga ega bo'lgan sifatlardir. Olim xulqlarni yaxshi va yomon xulqlar deb 2 qutbga bo'lib ko'rsatadi. Uning fikricha yaxshi xulqlar - rostgo'ylik, adolat, mardlik, botirlik, himmat va shu kabilardir. Bu haqida u shunday deydi: hammaning tabiatida adolat bevosita sevimli va hamma uning yaxshiligiga kizikadigan bo'lgani kabi rostguylik xam shunday; lekin rostguylikning shirinligini tatimagan yoki shirinligini bilsa xam, totishni istamaydigan kishi uni sevmaydi:

Umar Xayyom - o'zining jahonshumul ilmiy asarlari bilan emas, nozir poetik asarlari ruboilylari bilan olamga mashhur bo'ldi. Umar Xayyom insonni uluglaydi, uni dunyodagi eng oliy mavjudot sifatida qo'llaydi. Umar Xayyom dunyoqarashida inson va uning xayoti

muammolari, inson xayoti bilan bog‘liq bo‘lgan tashvishlar, gumanizm masalalari markaziy o‘rin egallaydi.

Az-Zamaxshariy «Nozik iboralar» risolasida ilmi fan axillari ustozlarga nisbatan hurmat-e’tiborning pasayib ketganidan kuyunib yozadi. «Utgan zamonlarda ilmu-fazilat soxiblari podshoxlaridan o‘z og‘irliklariga barabar oltin xadya olardilar, asta-sekin zamonlar o‘tishi bilan ularning qiymatlari kamayib itlari, olmaxonlar ulardan afzal bo‘lib qoldi, ya’ni nodonlar oltinlardan ortiq ko‘riladigan bo‘lib qoldi».

Shark. mumtoz madaniyatning butun dunyoga mashxur namayondalaridan biri Sa’diy Sheroziy ta’lim-garbiyada muallimning talabchanligi bilim va tarbiya berishda qattiqqo‘llik bo‘lishining tarafdoi bo‘ladi. «Guliston» da ustoz-shogird munosabatiga oid xikoyat keltiriladi: «Bir odam kurash san’atida zur maxorat qozondi, u 300 xiylni bilar va har kuni bir xiylni ishlatib kurishar edi. Shogirdlaridan biriga 259 xiylni o‘rgatdi. Ammo bir xiylni o‘rgatmadni. Ustozning xurmatini bilmagan shogird ustozidan ham ustunligini aytib maqtanadi. Bu so‘z podshoga yoqmaydi. Ular kurash tushmoqlarini buyuradi. Ustoz oxirgi xiylasini ishlatib shogirdini yengadi. Ustoz xurmatini bilmagan shogird esa xaloyiq va podshoxning nafratiga uchraydi».

Ustozga nisbatan xurmatda bo‘lishning ifodasi shuki, shogird muallimdan oldin yurmaslik uning o‘rniga borib o‘tirmasligi lozim. Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar muallimdan uzoq bo‘lmashinlar, ular orasi o‘k-yoy oralig‘ida bo‘lsin, mana shunda ilmga intiluvchilarni o‘z ustozlariga xurmati ma’lum bo‘ladi.

Soxibkiron Amir Temur ham o‘z xukumronligi davrida ilm axillari, muallimlarga xurmat bilan qaraydi. Kishilarga mansab berishda ham ularning ilmlarini xisobga oladi. Jamiatning rivojida ularning o‘rni muxim deb biladi. Ko‘plab madrasalar ochadi ularga muallim va mudarislar tayin etadi, o‘zining ustozlarini xam juda qadrlaydi.

Alisher Navoiy uzbek xalqlning ulkan shoiri va mutafakkiri, ulug‘ olim va davlat arbobi, jahon adabiyotining siymolaridan biri. Shoир butun xayoti va faoliyatini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning san’at va adabiyot taraqqiyotiga bag‘ishladi.

Alisher Navoiy ijodida ham muallimlar ishi ularga munosabat masalalriga keng o‘rin beriladi. U yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar mudarislar hamda ustoz murabbiylarning o‘zlarini ham bilimli va tarbiyalı bo‘lishi zarurligini uqtiradi. U nodon mutaassib johil domlalarni tanqid etadi va o‘qituvchi ma’lumotli o‘qitish yo‘llarini biladigan muallim bo‘lishi zarur deydi.

Xaq yo‘lida kim senga bir xarf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning xaqin yuz ganch ila.

Xusayin Voiz Koshifiy o‘z asarlarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to‘xtaladi; «Agar shogirdlikning binosi nimani ustiga quriladi deb so‘rasalar irodat ustiga deb javob bergin. Agar irodat nima deb so‘rasalar samo’ va toatdir deb aytgin. Agar samo’ etish va toat nima deb so‘rasalar nimani ustoz aytsa uni jon qulog‘i bilan eshitish, chini bilan qabul qilish va vujud a’zolari orqali amalda ado etishidir deb ayt».

U shogirdlikning 8 ta odobini ko‘rsatadi:

1. Birinchi bo‘lib salom berish.
2. Ustozning oldida oz gapirish.
3. Boshni oldinga egib turish.
4. Ko‘zni har tomonga yogurtirmaslik.
5. Gap suramoqchi bo‘lsa oldin ustozdan ijozat olish.
6. Ustoz javobiga e’tiroz bildirmaslik.
7. Ustoz oldida boshqalarni g‘iybat qilmaslik.
8. O‘tirib turishda xurmat saqlash.

Koshifiy ustozlik shartlarini xam ko‘rsatadi: «Bilgikim xech bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz bir ishni kilur ersa ul ishni asosi mustahkam bo‘lmasay».

2.2. Ustoz faoliyatiga oid malakalar.

Pedagogik malaka bilim va ko‘nikmalar faoliyatning ma’lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir. Ustoz faoliyatiga oid bunday malakalarga quyidagilar kiradi.

A) Amaliy konstruktiv malakalar:

1. Amaliy tarbiyaviy ishlarini rejalshtirish, faoliyatning eng muxim qoidalarini anglay bilish.
2. Har bir o‘quvchiga nisbatan uni jamoa sharoitida tarbiyalashning individual dasturini tuzish.
3. O‘quvchilarning yoshlik va shaxsiy xususiyatlarini xisobga olgan xolda, ularga nisbatan individual munosabatni oshirish.

B) Tashkilotchilik malakalari:

1. O‘quvchilar orasidagi faol bolalarni aniqlay bilish, tanlay bilish va ularni idrok qilish.
2. O‘quvchilarning turli xildagi jamoa, individual faoliyatini uysushtira bilish va ularni ijtimoiy faolligini bilish.

3. O‘quvchilarga berilgan ijtimoiy topshiriqlar berilishi yuzasidan nazorat o‘rnatish va ularga zarur vaqtida amaliy yordam berish.

4. Ota-onalar, keng jamoatchilik o‘rtasidagi ishlarni bilish. o‘quvchilarga talablar qo‘yish metodlari quyidagilar dan iborat: o‘quvchining axloq qoidalarini, barcha predmet buyicha bilimlarni baholash, o‘qitishdagi burch va ma’suliyatni bilish, mashq kilish, o‘quvchilarni mehnat qilishga o‘rgatishdan iboratdir.

Ustoz oldiga qo‘yilgan talablar:

1. Faoliyatning aniq maqsadlarini shogird xis qilsin.
2. Faoliyatni amalga oshirish shogird tashabbusi va ijodiy faollikka bog‘liq. Bunda ishni taqsimlash, rejlash, xisobga olish, natija chiqarish kabilarni shogirdlarning o‘zlariga xavola qilish lozim.

3. Ustoz faoliyatga pedagogik raxnamolik qiladi, shogirdlarning ijodiy odatlarini shakllantiradi.

4. Faoliyat jarayonida har bir shogird ijrochilik malakasiga ega bo‘ladi.

5. Ish natijasini muhokama qilish, shogirdlarni rag‘batlantirish.

Ustoz shaxsiy xususiyatlaridan tashqari chuqur ilmiy saviyaga, so‘zlash madaniyatiga, yuksak odob axloqli bulishi kerak. Shogirdlar bilan o‘tkaziladigan suxbatlarni yuqori saviyada tashkil qilishda, ustoz quyidagi madaniyat qirralariga ega bo‘lishi kerak.

Ruxiyat madaniyati - shogirdning ma’naviy extiyojlariga to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish.

Mahorat madaniyati - har bir tadbirni zo‘r quvonch va qalbdan tashkil qilish.

Siyosiy madaniyat - davr talabiga mos iqtisodiy, ijtimoiy bilimga ega bo‘lish.

Ma’naviy madaniyat - shogirdlarning ijodiy, ma’naviy, badiiy faoliyatini tashkil qilish.

Kasbiy qobiliyatning asosiy turlari. Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi, pedagogik mahoratga erishish uchun ustozda quyidagi qobiliyat turlari mavjud bo‘lmog‘i lozim.

1. Bilish qobiliyati - fanni tegishli soxalariga oid qobiliyatidir. Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan ustoz fanni o‘quv kursi xajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o‘z fani soxasidagi kashfiyotlarni xamisha kuzatib boradi.

2. Tushuntira olish qobiliyati - o‘kuv materialini o‘quvchilarga tushunarli kilib bayon etish, o‘quvchilarda mustakil ravishda faol fikrlashga qiziqtirish.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati - tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati. O‘quvchi shaxsni va uning vaqtinchalik ruxiy xolatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog‘lik bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.

4. Nutq qobiliyati - nutq yordamida shuningdek imo-ishora vositasida o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - o‘quvchilar jamoasini uyuştirishi, o‘quvchilarni muhim vazifalarini xal etishga ruxlantirish nazarda tutiladi.

6. Obro‘ orttira olish qobiliyati - bevosita ematsional, irodaviy ta’sir ko‘rsatish va shu asosda tarbiya berish ma’suliyatini xis etish, o‘zini xaq ekanligiga ishontirish.

7. Kommunikativ - to‘g‘ri muomala qila olish, o‘zaro munosabat o‘rnata bilish pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati - o‘z xarakatlarining natijaviyligini ta’minlash.

Professionalizm kategoriyalari:

- *ijodiy individuallik;*
- *o‘zining o‘sish va takomillashish jarayoni;*
- *o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.*

O‘qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- *intellektual - ijodiy tashabbus;*
- *bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliya ti;*
- *ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;*
- *axborotlarga tashnalik, muammolardagi g‘ayri odatiylikka va yangilikka bo‘lgan his-tuyg‘u, professionalizm, bilishga bo‘lgan chanqoqlik*
- *(N.V.Vishnekova).*

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

- *fikrining ravonligi;*
- *fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olishi;*
- *o‘ziga xoslik (originallik);*
- *qiziquvchanlik;*
- *farazlar yaratish qobiliyati;*
- *xayol qila olish, fantastlik (fantaziY.)*

O‘qituvchi faoliyatidagi kreativligi bosqichlari:

Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an’anasi mavjudligi aytildi:

- *obyektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili;*
- *shaxslararo muloqot ma’nosini tushunish refleksiyasi;*

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, shogird malakali kadr bo‘lib shakllanar ekan, raqobat usullarining har xil turli shakllarini o‘zlashtirishi lozim. Bu o‘z navbatida ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlab boradi.

2.3. Musiqa san’ati rivojiga xissa qo’shgan buyuk san’atkorlar.

XVII-XIX asrlarda cholg‘ular batafsil ta’riflangan yirik asarlar yaratilmadi. Bu ko‘prok feodal tarkokligining kuchayishi bilan bog‘liq. Ulkan davlat ayrim-ayrim xonliklarga bulinib ketadi. (Buxoro, Xiva, Qukon xonliklari). Bu esa musiqa san’ati taraqqiyotida aks etmay kolmadi. O‘zbek musiqa madaniyati maualliy xususiyatlar kasb eta boshladi. O‘ziga xos musiqa cholg‘ulari shakllandı. Musiqa turlaridan-makomlar bundan buyon uar xonlikda o‘ziga xos yunalishda takomillashdi. Makom ijrochilar zarurat yuzasidan uzgarishlar kiritishdi. Shunga karamay, musiqaning umumiy xususiyatlarini saqlab kolishdi. X,ar bir ijrochi makom ijrosiga ijodiy yondashib, musiqa ijrosiga o‘ziga xos takrorlanmas jiuatlar kiritdi. Ogzaki tarzda cholg‘ularni saqlab kolish an’anasi makomning asosiy xususiyatlaridan biri bulib, busiz uning yashab kolish va sunggi taraqqiyotini tasavvur etish kiyin. X,ar bir xonlikda o‘ziga xos bir yunalishda xalk musiqasining yangi turlari yaratildi; bayramona, kuylar, xalk tomosha kuylari (dorbozlik, qo‘g‘irchoqbozlik) yangi tipdagisi raks kuylari. Bu kuylar uzining kuvnokligi, shuxligi bilan bir-biridan fark kilib turgan va keng xalk ommasini o‘ziga jalb etgan.

XVII asr oxiri va XIX asr boshlarida o‘zbek musiqa madaniyatida xalk va professional musiqa san’atining kuyidagi ko‘plab yangi turlari takomillasha boshladi; katta ashula, katta uyin, Shodiyona, Navruz, Mavrigiy, Shashmakom, Chor makom (unga Dugou, Xusayniy, Chorgou, Bayot, Gulyori-Shaunoz kirgan). Joylarda mavjud musiqa cholg‘ulari va ijrochilarga bog‘liq uolda turlichay cholg‘u ansamblari tuzilgan. Ko‘p uollarda xalk cholg‘ulari ansambl tarkibiga g‘ijjak, tanbur, dutor, chang, nay, kushnay, doira kabi musiqa cholg‘ulari kiritilgan.

Musiqachilikda olti turkum asarlardan iborat Shashmakom ayniksa mashuur bo‘lgan. U O‘rta Osiyo xalklari syuita (turkum) shaklidagi

professional musiqasining uzoq taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan. I.Rajabov yozadi: Shashmakom olti xil turli lad sistemalaridan iborat, ularning uar biri, uz navbatida, mushkilot (cholg‘u) va nasr (ashula) bulimlaridan iborat bo‘lgan kuyidagi makomlarga (kismlarga) bulinadi:

«Rost», «Buzrug», «Navo», «Dugou», «Segou», «Irok» ...

Xar bir makom 20 tadan 40 tagacha katta-kichik kismlarni uz ichiga oladi. Xammasi bulib turkumda 250 ga yakin mushkilot va nasr kismlari bor. Bir makomning ijrosi bir necha soat davom etgan.

Xalk cholg‘ulari xalk ogzaki ijodi va klassik adabiyot bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi. Xalk cholg‘ulari uakidagi tasavvurlarni badiiy asarlardagi musiqa cholg‘ulari ifodalari, kitob miniatyuralaridagi cholg‘uchilar tasviri boyitadi. Firdavsiy, Sa’diy, Navoiy, Deulaviylarning asarlarida 60 dan ziyod xalk cholg‘ularining nomi zikr etilgan.

Makomlar asosan saroy ayonlari uuuzurida muayyan vaktda yoki muayyan sharoitlarda ijro etilgan. Xatto mouir qo‘schiqchilarning o‘ziga xos musobakasi (ayniksa, avjlarni ijro etishda, shuningdek, yangi kismlarini tukishda) tashkil etilgani ma’lum.

Musiqa ijrochiligi san’atida makom janrini tiklash va rivojlantirish davom etdi. Makom uzining oxang va ritm konuniyatlariga kura xalk qo‘schiqlari bilan uzviy bog‘liq bulib, fakat kamrovining kengligi bilan farklanar edi. Odatda, uar bir makom ikki katta kismga bulingan.

Birinchisi - fakat cholg‘ularda ijro etilgan kismi bulib mushkilot deb atalgan, ikkinchisi - cholg‘ular jurligida aytildigan ashula kismi bulib, nasr deb atalgan. Nasr uz ichiga raqs kuyi- uformi ham olgan.

Cholg‘uchilar orasida musiqa tovushlarini yozib kursatadigan maxsus belgilar sistemasi notatsiya yaratishga intilish paydo bo‘ldi. Buni amalga oshirish shoir-musiqachi Paulavon niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy 1825-1879) ga nasib etdi. Iste’dodli musiqa ijrochisi mouir tanburchi va g‘ijjakchi Paxlavon niyoz Mirzaboshi sayouat chogida nota buyicha kuy chalayotgan cholg‘uchilarni kurib uayratga tushdi. Mirzaboshi - Komil Xorazmiy Xorazmga kaytishi bilanok ilgaridan diliga tugib yurgan niyati makomlarni yozib olishga iluom bilan kirishdi.

Paxlovon noyoz Mirzaboshi Komilning shogirdi Muuhammad Yokub Xarratov (1867-1939) mashuur tanburchi edi. U nafakat choguchilik san’atini, balki uattotlik san’atini uam mukammal egallagan edi. Iste’dodli cholg‘uchi Komil Xorazmiy raubarlik kilgan saroy xalk cholg‘ulari ansambilining sozandasini bo‘lgan Muuhammad Yokub Xarratov (Matyokub Xarratov) tanbur nototsiyasini tuzishda va xorazmcha makomlarni yozib

olishda katnashgan. Ustozidan xorazmcha makom turkumlarini kabul kilib, ularning saklanib kolishiga katta uissa kushgan.

Muuammad Rauimxon (1806-1825) saroyida ishlagan mashuur tanburchi va qo'shiqchi Niyozxuja Xrjining ijodiy va ijrochilik faoliyati Xivada kechdi. U xorazm musiqa madaniyatiga katta e'tibor berdi.

Matyokub Xarratovning aytishicha, Niyozxuja Buxoroga «Shashmakom» ni urganish uchun borgan. U Buxorodan kaytgach, buxorocha makomlar Xiva cholg'uchilari tamonidan uzlashtirilib, Xorazmda keng tarkala boshladi. Xorazmnning mashuur cholg'uchilari Muxammadraim Feruz, Komil Xorazmiy, Mirzo Muxammadrasul va boshkalar Niyozxuja bilan uamkorlikda makomlarga yangi cholg'u bulimlari kushib, ularni boyitdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qukon shauri mashuur cholg'uchilar tuplangan markazga aylangan edi. Bu yerda Usta Xudoyberdi raubarligida o'zbek xalk cholg'ularida ijrochilik maktabini urganish buyicha o'ziga xos mактаб yaratildi. Fargona cholg'ulari buxorocha shashmakomni faol uzlashtira boshladi. Ota - Jaloliddin Nosirov (1845-1928) makom ijrochisi, tanikli ukituvchi, cholg'uchi, usta tanburchi edi. U dastlab musiqa ilmini onasidan urgandi, sungra makomlarning zukko bilimdoni va mouir ijrochisi bo'lган otasidan ta'lim oldi. Ota-Jalol Nosirov uzoq yillar mobaynida Amir Olimxon (Buxoro), Amir Muzaffarxon (Shaurisabz)," Amir Otajonlar (Karmana, uozirda Navoiy)lar saroyida o'zbek xalk cholg'ulari ansamblining doimiy raubari va xonandasasi bo'lган.

Ota G'iyos Abdug'ani (1858-1924) o'zbek musiqasining bilimdoni, buxorolik tanburchi edi. U Shashmaqomning Mushkulot qismini yaxshi bilgan va har bir makomni unga xos usul va xususiyatlarni saqlab qolgan holda ijro etgan.

Xoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936) o'zbek va tojik musiqasining tanikli ijrochilaridan biri, mohir tanburchi Hoji Raximqulning shogirdi. 1888 yilda Buxoroga bordi. U yerda Ota-Jaloliddin Nazirov rahbarligi ostida bir yil ichida Shashmakomni mukammal urgandi. A.Rasulov Fargona, Samarkand, Toshkent shaharlarida o'zbek xalk musiqasi va makomlarini faol targib kildi. U o'zbek xalk cholg'ulari ijrochiligi rivojiga tanburchi, dutorchи va xonanda sifatida salmokli uissa kushib, xalk va musiqa jamoatchiligining meur-muuabbatiga sazovor bo'ldi.

Yukorida nomlari keltirib utilgan musiqachi-cholg'uchilar uz ijodiy yulini boshlab uz davrida ijodiy kamolotga yetdilar. Ular uammasi ma'rifatchilar, yosh musiqachilarning ustozlari edilar. Ularning pedagogik

karashlari, ta'limotlari o'zbek xalk cholg'ularida ijrochilik buyicha yangi pedagogik uayotiy manba bulib, ulmas meros sifatida saklanmokda.

2.4. 1917-1945 yillarda ijrochilik san'atining taraqqiyoti.

1917 yildan keyin o'zbek musiqa san'ati jadal va jushkin taraqqiy kila boshladi. Birinchi un yillikdayok musiqa ta'limi, fol'klorshunoslik, ijrochilik san'ati soualarida muayyan yutuklarga erishildi.

Musiqa ukuv yurtlari - Toshkentdagi Turkiston xalk konservatoriysi (1918) va uning Samarkanddagi, Fargonadagi (1919), Buxorodagi (1920) filiallarida katta ishlar amalga oshirildi. Ularda asosan o'zbek xalk cholg'ularini uamda ba'zi Ovrupacha musiqa cholg'ulari (fortepyano, skripka va damli cholg'ulari) ni chalish urgatilar edi. Bu musiqa bilim yurtlari tom ma'nodagi konservatoriya bulmasa-da, birok, utgan davr musiqa madaniyati ilmini urganish imkoniga ega bulmaganlarga sodda musiqa nazariy ilmi xamda ijo san'atida sabok berilar edi. Shu tufayli yosh respublikaning ko'pgina shaxarlarida musiqa xavaskorligi keng kuloch yoydi.

1917 yilgacha bo'lgan davrdagi xalk musiqachi va ijrochilar yaratgan an'analar cholg'ularning keyingi avlodи ijodida tarkib topdi va davom etdi. Musiqachi-ijrochilar kayta tuzilgan madaniy-ma'rifiy tashkilotlarda ishga kirishib ketdi.

Taniqli tanburchi va xonanda Shoraxim Shoumarov 1919 yilda Toshkentdagi «Namuna» maktab-internati koshida xalk cholg'ulari ansamblini tuzdi. Bu ansambl keyinchalik Toshkent musiqa texnikumini tashkil kilish uchun asos bulib xizmat kildi.

20-yillarda o'quv yurtlari, zavodlar, fabrikalar qoshida, qishloq joylarda «Ko'k kuylak», «San'atchi qizlar», «Sanoyi nafisa» kabi musiqiy jamoalar tuzildi. Tashkil qilingan ijodiy jamoalar tarkibida naychi. changchi, dutorchi, tanburchi, g'ijjakchi, doirachi, nogarachilar va kashkar rubob sozandalari bo'lgan xalk cholg'ulari ansambllari xam bor edi.

Xalk cholg'ulari ansambllari Fargonada, Andijonda, Samarkanda xam tuziladi. Ularga mashxur cholg'uchilar usta Olim Komilov, Tuxtasin Jalilov, Axmadjon Umirzokov, Yusufjon Shakarjonov, usta Ruzmat Isaboyev, Matyusuf Xarratov, Usta Toyir Marufjon Toshpulatov, Muxiddin Mavlonovlar raxbarlik kilishgan. Ularning samarali ijodi tufayli, o'zbek xalk cholg'ularida ijrochilik san'atidan ko'pchilik baxramand bo'ldi.

1936 yilda Moskvada buladigan dekada munosabati bilan Qori Yokubovga Davlat filarmoniyasini tuzish topshiriladi, u filarmoniyaning

birinchi direktori etib tayinlanadi. Qori Yokubovning va boshka musiqa san'ati arboblarining kat'iyligi tufayli, Toshkent Davlat Konservatoriyanini tuzish xakida karor qilinadi.

O'zbek xalk musiqasi an'analarining davomchisi, toshkentlik moxir xalk cholg'uchisi-dutorchi, tanburchi, naychi Yunus Rajabiyning (1897-1976) ijodiy faoliyatiga ma'rifatparvarlik keng musikiy- ijtimoiy xususiyatlar xos edi. Besh jildlik o'zbek xalk musiqasini yozib olib, nashrga tayyorlaganligi Yunus Rajabiyning ko'p yillik ijodiy faoliyatining eng ajoyib samarasi bo'ldi.

1927 yili Yunus Rajabi O'zbekistan radio kumitasi koshida 12 cholg'uvchi (xonanda va sozandalar) dan iborat xalk cholg'ulari milliy ansambl tashkil etadi. Bu ansamblga u Toshkentdagagi usha paytda mashxur musiqachilar - kushnaychi Xayrulla Ubaydullayev, dutorchilar Abdusoat Vaxobov, Orif Qosimov, tanburchilar Rixsi Rajapov, Maxsudxuja Yusupov, g'ijjakchilar Imomjon Ikromov, Nabi Hasanov, Maxmud Yusupov, naychilar Dadaali Soatkulov, Said Kalonov, changchilar Nigmatjon Dustmuxammedov, Faxriddin Sodikov, Maxamatjon Rasulov, doirachi Dadaxuja Sottiyevlarni jalg etdi. Ansabl repertuarida o'zbek xalk kuylari bilan bir katorda zamonaviy bastakor, shu jumladan Yunus Rajabiyning «Chorgox», «Kuchabogi», «Bayet», «Birlashingiz», «Fabrika», «Galaba», «Xdmmamiz», «Ilg'or», «Mirzadavlat» kabi asarlari bor edi. Keyinrok bu ansamblda respublikaning mashxur xonandalari toshkentlik Mulla Tuychi Toshmuxamedov, buxorolik domla Halim Ibodov, samarkandlik dutorchi va xonanda xoji Abduraxmon Umarov, xorazmlik tanburchi va xonandalalar Matequb Xarratov, Safo Mug'anniy, Toshkentlik Nazira Axmedova kabi san'atkorlar ishlagan. Ayni paytda ansamblning ijrochilik repertuari «Shashmaqom» ning mushkulot va nasr qismlari: «Nasurulloi», «Navro'zi Sabo», «Talqini ushshoq», «Sarvinozi talkincha», shuningdek, bastakorlarning «Uyg'oning», «Bizning qishloq», «Yashasin», «Kolxozimiz» kabi asarlar xisobiga kengaydi.

1930 yilda Toshkent musiqa oliy maktabi, 1936 yilda esa uning asosida O'rta Osiyeda birinchi musiqa oliy ukuv yurti - Toshkent Davlat konservatoriysi ochildi.

1936-1937 ukuv yili xalk cholg'ularida ijrochilik soxasida musikiy ta'lim rivoji uchun juda muxim davr bo'ldi. Aynan shu davrda Toshkent musiqa bilim yurtida A.I.Petrosyans tashabbusi bilan Y.Rajabiy, A.Mansurov, B.Giyenko, N.Krestyanin, V.Marsinkovskiy, A.Maxsudov, O.Qosimov kabi ukituvchilar umummakbul nota sistemasi asosida o'zbek xalk cholg'ularida ijrochilik buyicha sabok bera boshladilar.

SH.Shoakramov, A.G'ofurov, M.Yunusov (chang), S.Yuldashev, G.Qodirov (tanbur), A.Ilesov, M.A'zamov kabilar ularning birlinchi ukuvchilardan bulishdi.

O'zbek xalk cholg'ularida ijrochilik madaniyatining usishi, jaxon klassik bastakorlari asarlarining uzlashtirilishi, O'zbekistan bastakorlarining xalk cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratishdagi faol ijodiy faoliyati o'zbek xalk cholg'ularida ijrochilik san'atini yanada yuksalishi uchun muxim zamin bo'ldi. Shu bilan birga, yukori malakali ilmiy pedagogik va ijrochi kadrlarni puxta va mukammal kilib tayyorlash masalasini xam kun tartibiga kuydi.

O'zbek xalk cholg'ularida ijrochilikning keyingi davrlardagi yuksalishi Toshkent konservatoriyasining faoliyati bilan chambarchas boglangan.

1948 yildan boshlab mamlakatimizdagi musiqa oliy ukuv yurtlarida, shu jumladan; M.Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasida xam xalk cholg'ulari ijrochiligi buyicha ta'lim berish boshlandi.

O'zbek xalk cholg'ulari bulimiga (orquestr fakulteti tarkibida) raxbarlik kilish, ukuvchilarni saralab yigish, ukuv rejalarini tuzish A. I. Petrosyans tomonidan amalga oshirildi. Toshkent Davlat konservatoriyasida o'zbek xalk cholg'ulari ijrochiligi buyicha professional ta'limni yulga kuyishda V.A.Uspenskiy, M.A.Ashrafiy, A.I.Petrosyans, I.P.Blagoveshchenskiy, B.F.Giyenko, G.G.Sobitovlar katta rol uynashdi.

1948-49 yillardagi birlinchi ukuv yilida konservatoriya O'zbekistan Davlat filarmoniyasi xalk cholg'ulari orkestrining 13 cholg'uchisi ukishga kabul qilindi. Shulardan 10 kishi: Nazir Nigmatov (kushnay), Abbas Baxromov, Aleksandr Yevdokimov (prima-rubob), La'li Sultonova, Mirzayev, Buriboy Mirzaaxmedov (kashkar), Maxamatjon Asilov, Obid Xolmuxamedov (g'ijjak), Anvar Liviyev (doyra) 1-kursga kabul qilindi. Toshkent musiqa bilim yurtining bitiruvchilari Axmadjon Odilov (chang), Valentina Borisenko (prima rubobi), Feoktist Vasilyevlar (qashqar rubobi) esa 2-kursga qabul qilindi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

1. O'z kasbining mohir ustasi tushunchasiga ta'rif bering.
2. Abu Nosir Forobiy ta'rifi bo'yicha musiqiy iqtidorni uch bosqichini tavsiflab bering.
3. Abu Nasr Farobiy ta'biricha ustoz qiyofasidagi fazilatlar tuzilmasi nimalardan iborat?

4. Allomalarimiz tomonidan belgilangan ustoz odobining sakkiz shartini sanab bering.
5. “Avesto”da ustozlarga qo‘yilgan talablar haqida nimalarni bilasiz?
6. Shogirdda bilim egallashga rag‘bat uyg‘otish usullari haqida qaysi manbada ma’lumotlar keltirilgan?
7. Abu Nasr Farobiyning ta’limiy konsepsiyanini sanab bering.
8. Ibn Sino asarlarida qanday konsepsiya ilgari surilgan?

Nazorat savollari

1. Ustoz-shogird an’anasi nima?
2. Ustoz kasbiy mahorati nimadan iborat?
3. Shogirdning fazifalari nimalardan iborat?
4. Rahbat tushunchasi nima?
5. Musiqa o‘qitilishida ustoz-shogird an’anasi mazmunini ayting?
6. O‘zbekistonda pedagogik fikr taraqqiyoti bosqichlari?

Foydalanilgan adabiyotlar

4. Xalq cholg‘ulari ijrochiligidagi yoshlar faolligini oshirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensisi maqolalar to‘plami. Maxsus muharrir D.Murodova. –T.:”Musiqa”.2015. -280 b.
5. Umrboqiy sozlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari. –Tuzuvchi O.Toshmatova. –T.: ‘Nishon-Noshir”.2015. -252 b.
6. O‘rta maxsus musiqa va san’at ta’lim tizimining vazifalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning maqolalar to‘plami. Mas’ul muharrir B.Azimov. – T.: Musiqa .2016. -184 b.

3-mavzu: Sozandaning musiqiy ifodadan foydalanishdagi muammolari.

Reja:

- 3.1. An'anaviy ijrochilikda o'qitish uchun nomzodlar tanlashning o'ziga xosligi.
- 3.2. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ixtisoslikka oid o'quv materialini o'zlashtirish uslublari.
- 3.3. An'anaviy ijrochilikning jismoniy va ruxiy asoslari.
- 3.4. Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish.
- 3.5. Ta'limning turli bosqichlarida dars o'tish uslubi.
- 3.6. Ijrochilik san'atida ta'lim shakllari.

Tayanch iboralar: uzlucksiz ta'lim, ta'lim tuzilmasi, ta'lim xususiyatlari, musiqa san'ati, pedagogik texnologiyalar, uslubiyot, uslub, vosita.

3.1. An'anaviy ijrochilikda o'qitish uchun nomzodlar tanlashning o'ziga xosligi.

Jahon umummusiqiy pedagogika tajribasida musiqa cholg'ularini chalishga qiziquvchi nomzodlar qobiliyatini sinab ko'rishning turli yo'llari mavjud bo'lib, birinchi navbatda uning musiqiy eshitishi, kuyni eslab qolishi va usul sezgisi aniqlanadi. Bunda nomzod cholg'u asbobida chalingan tovushni ovozda takrorlay olmasa yoki qoniqarsiz aytsa, buning sababi uning oldin qo'shiq aytmagani yoki fortepianoni eshitib ko'rmagani va tovush xususiyatini tushuna olmayotgani bo'lishi mumkin. Chuningdek, bolani o'qituvchi yoki komissiya oldida tortinishi, o'zini yo'qotishi, hayajonlanishi natijasida o'z qobiliyatini to'la namayon qila olmayotganligini ham hisobga olish kerak.

Iste'dodni dastlabki musiqiy qirralarini namayon qilish uchun nomzodlar guruhlari bilan har xil sinovlar, musiqiy musobaqalar o'tkazgan holda eng iqtidorlilarini va qobiliyatllilarini tanlashga imkon yaratish zarur. Ushbu tanlovda ularga o'zini erkin tutish, qo'shiq aytish va raqs tushishdan tortinmaydigan muhit yaratilsagina bola o'ziga tanish bo'lgan qo'shiqni bexato kuylashi, yoki she'rni yoddan ifodali o'qishi mumkin va bu katta ahamiyatga ega. Chundan keyin o'qituvchi tomonidan berilgan kuy yoki tanish qo'shiqni boshqa pardada kuylatib uning ovozidagi parda tozaligi

(intonasiya) va tovush oraliqlari (intervallar, ayniqsa tersiya, kvarta, kvinta va h.k.) ning tozaligini aniqlash mumkin.

Musiqiy xotirasini sinash uchun bolaga ikki, to‘rt takt hajmdagi kuyni cholg‘u asbobida chalib berib, kuylash so‘raladi.

Nomzodning usulni sezish qobiliyatini tekshirganda unga tanish bo‘lgan usulni takrorlatiladi keyin esa sekin asta notanish va murakkabroq usullarni chaldirib sinab ko‘riladi. Ushbu jarayon muvaffaqiyat bilan yakunlangandan keyin bolaning tana tuzilishi va jismoniy rivojlanishini hisobga olgan holda va asosan o‘z xohishiga qarab ma’lum damli, mizroqli, tirnama yoki zarbli cholg‘uda o‘qishga tavsiya qilish mumkin.

Milliy cholg‘ular chalishni o‘rganmoqchi bo‘lgan nomzodlar jismoniy barkamol, nafas yo‘llari, o‘pkalari toza va sog‘lom, tish va jag‘lari, lab va chakka mushaklari, barmoqlari va tana tuzilishi normal rivojlangan bo‘lishi juda muhim. Damli cholg‘ularda o‘qitishga tanlanadigan nomzodlar 10-12 yoshga kirgan bo‘lishlari maqsadga muvofiq. Ammo keyingi yillarda mamlakatimizda 6-7 yoshli bolalarni dutor, doira rubob kabi boshlang‘ich tayyorgarlikdan o‘tkazish orqali milliy cholg‘ularda o‘qitish tajribasi qo‘llanilmoqda. Nomzodlar jismoniy sog‘lom, tana tuzilishi normal rivojlangan bo‘lishi bilan birgalikda milliy cholg‘ularning har biriga alohida tanlanadi. Eng asosiysi har bir nomzod u yoki bu cholg‘uda o‘z xohishiga qarab o‘qisa, uning barcha jihatlari shu cholg‘uga mos kelsa, bunday mashg‘ulot ustozga ham, shogirdga ham birday zavq keltiradi va muvaffaqiyatlar garovi bo‘lishi muqarrar.

3.2. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ixtisoslikka oid o‘quv materialini o‘zlashtirish uslublari.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ixtisoslikka oid o‘quv materialini o‘zlashtirganligi, ularda shakllangan ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholash ta’lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunonchi, talabalarda kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda o‘qituvchidan mutaxassislik o‘quv predmetlaridan nafaqat asoslardan chuqur bilim berishi, balki ularni o‘zlashtirish darajasini haqqoniy nazorat qilib, baholash ham talab etiladi. Chunki, nazorat qilish bu faqat ta’lim-tarbiya natijalarini tahlil qilish emas, balki butun jarayonning turli bosqichlarida talabalar bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. Bundan tashqari oliy musiqa ta’limida nazorat qilib baholash o‘ziga xos ta’limiy, tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Ta’lim-tarbiya jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholashning ta’limiy ahamiyati, bunda o‘quv materialining o‘zlashtirilganligi haqida o‘qituvchi ham, talaba ham ijobiylar yoki salbiy

tavsifga ega bo‘ladi. YA’ni, o‘qituvchi uchun talaba nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi o‘quv materiali yaxshi o‘zlashtirilganu, qaysi biri hali yaxshi o‘zlashtirilmaganligi yoki umuman o‘zlashtirilmaganligi ma’lum bo‘ladi. Bu esa talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari o‘qituvchi o‘zining faoliyatiga tanqidiy baho beradi. Olingan natijalarga ko‘ra faoliyatiga qo‘srimchalar kiritadi, talabalarga nisbatan qanday yondashish metodlari va vositalarini tezroq topib oladi. Bu o‘qituvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko‘rishi va o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishi uchun negiz hisoblanadi.

Xuddi shuningdek, talabaga ham o‘quv materialida u nimani yaxshi, nimani qoniqarli va nimani yomon o‘zlashtirgani tushunarli bo‘ladi. Bilimlarni nazorat qilmasdan talaba o‘z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to‘g‘ri baholashga qodir emas, ba’zan unga guyo o‘quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, lekin nazorat chog‘ida esa o‘zlashtirishdagi kamchiliklar, yaxshi tushunmaganligi ma’lum bo‘lib qoladi. Nazorat qilib baholash jarayonida talabaning o‘rganilayotgan o‘quv materialini tushunish, esda saqlab qolish, mohiyatini anglab olish darajasini aniqlaydi. Talabaning faolligi orqali bilimlari, ko‘nikma va malakalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tugatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Nazorat qilish hamda baholashning tarbiyaviy ahamiyati talabalarda o‘qishga, o‘z yutuqlari va kamchiliklariga nisbatan munosabat shakllanadi, muammolarni yechish istagi tug‘iladi. Talabaga nisbatan berilgan baho unda hamisha talaba sifatida, shaxs sifatida o‘ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. Talabada o‘ziga nisbatan irodalilik, jamoaviylik, o‘zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlar shakllanadi. Bu, ayniqsa, o‘smirlar orasida katta ahamiyatga egadir. Har bir ta’lim beruvchi bilimlarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyatini to‘g‘ri qo‘llay olsa, har bir talaba oldida, o‘qitish sohasida qulay istiqbollarni ochib beradi.

Ilm fan, texnikaning rivojlanib borishi, ishlab chiqarishning o‘sishi barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim-tarbiya sohasida ham aniq, qat’iy mezonlar asosida tarbiyalanuvchining bilim va faoliyat darajasini baholash lozimligini kun tartibiga olib chiqdi.

XX asrning ikkinchi yarmidan ijtimoiy taraqqiyotning mislsiz tezligi talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakalari darajalarini qisqa vaqt oralig‘ida xolis baholash imkonini beruvchi, nazoratning yangi usulini

yaratishni taqoza etdi. Ana shu zaruratning samarasi sifatida talabaning bilim darajasini aniqlovchi reyting tizimi ishlab chiqildi.

3.3. An'anaviy ijrochilikning jismoniy va ruxiy asoslari.

Ma'lum bir musiqiy asar B.Asafev ta'biri bilan aytganda uch xil ko'rinishda mayjud bo'ladi. Bu nota matni, ya'ni yozuv asosida, ijrochi tomonidan talqin qilingan jonli ijroda va tinglovchining hayotiy tajribasi va badiiy obrazlarning uning tomonidan qabul qilinishi natijasida asarning haqiqiy ijro jarayoni amalgalashiriladi.

Musiqiy asarni ijro qilish faqat o'sha kompozitor notaga tushirgan fikru-xayollarining talqini bo'libgina qolmasdan, ijrochi uchun o'ta murakkab jismoniy va ruhiy kechinmalardan iborat jarayondir.

Ijro badiiy jihatdan yuksak bo'lishi uchun unda sozandaning diqqati, sezgisi, idroki, tafakkuri, tasavvuri va emosiyasi (his-tuyg'u va hayajon) faol ishtirok etishi zarur. Bundan tashqari uning shaxsiy sifatlari, ya'ni musiqiy qobiliyati va iqtidori, quvnoqligi va jo'shqinligi, dunyoqarashi va erkin fikrlashi, xarakteri va mintaliteti aks etmog'i lozim. Ushbu shaxsiy sifatlarning barchasi inson ruhiyatining o'ziga xos xususiyati, badiiy-ijrochilik ijodining tarkibiy qismi bo'lib, hali yaxshi tadqiq qilinmagan musiqiy ruhshunoslik (psixologiya) sohasiga aloqadordir.

Diqqat – inson faoliyatining barcha turlarida bo'lgani kabi, musiqa san'atida ijrochining hissiy, intelektual, harakatga keluvchi jarayonlardagi faoliyat samaradorligining muhim shartidir. Musiqiy faoliyatning barcha turlari diqqat bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa jamoa bo'lib ijro qilishda u juda muhimdir. YA'ni ansambl chalishdan avval doirachining yoki changchining ko'tarilgan qo'llari, auftakt, yakkaxon va jo'rnavoz o'rtasidagi ishora va harakatlarning hammasi musiqada diqqat deb ataladi.

Ayniqsa damli cholg'ular ijrochisi jismoniy va ruhiy jihatlarining barcha tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ijro jarayonida har bir cholg'uchi o'zining murakkab markaziy asab tizimi, butun sezgi a'zolari, ko'rish, eshitish, xotira, harakat mayllari, musiqiy-yestetik tasavvurlari va aqliy faoliyatining bir-biriga bog'langan, mujassam holda qatnashishining guvohi bo'lamiz. Bulardan «sezgi» – inson organizmi tomonidan eshitish, ko'rish, hid bilish, tana sezgisi, ta'm bilish va h.k. a'zolari orqali moddiy dunyonи anglaydi.

Bu murakkab jarayonda sozandaning aql-idroki va ruhiy faoliyatni ijroga qaratilgan bo'lib, u o'zi hosil qilgan va yonidagi hamrohlari yoki jo'rnavoz chalayotgan tovushlarni eshitishi, nota matni, barmoqlar applikatura pardalarini his qilishi, (Nay, qo'shnay, bolabonda) lablari

puflaydigan qismini sezishi natijasida bosh miyaga axborot yetadi. Narsalar yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'siri orqali ongimizda aks etishiga «idrok» deyiladi. Sezgida jismning alohida qismlari, idrokda esa o'sha jismning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. O'z ijrosini eshitgan sozanda tajribasiga tayanib uni tahlil qiladi va umumlashtirgan holda xulosa yasab xatolarini tuzatish uchun qarshi harakatga shaylanadi. Ammo umumlashtirish va xulosa yasash uchun inson fikrlashi, mushohada va mulohaza qilishi zarur. Bu tafakkurning vazifasi bo'lib, «Tafakkur» – obyektiv borliqning fikrda, mushohada va aqlda uning tahlili va sintezi bilan aks etish jarayonidir. U oliv miyaning eng yuqori mahsuli bo'lib, idrokdan farqli o'laroq, narsalarning chuqur mohiyati va mazmunini aks ettiradi. Cholg'u ijrochiligida buni uch bosqichda ko'rish mumkin. Ijrochi dastlab ko'rish, eshitish, his qilish va boshqa sezgilari orqali asarni bir butun holda (uslubi, xarakteri, asosiy matni, tonligi, va h.k.) anglaydi va har xil mayda jihatlarini aniqlashga intilmaydi. Ikkinci bosqichda o'z ijrochilik fikrini amalga oshirish uchun turli ijro uslublarini qo'llagan holda sadolanish, metroritm, sur'at, agogika, dinamika va kuy jumlalariga aniqlik kiritadi. qisqasi har bir kuy bo'lagi ustida qunt bilan alohida ishlaydi. Uchinchi bosqich ijodiy jarayonning murakkab pog'onasi bo'lib, bunda ijrochi ko'rish, eshitish, sezgi harakat omillariga va ikkinchi bosqichda o'z tajribasidan o'tkazgan amaliyotiga tayangan holda asarni to'liq va pishiq analiz va sintez qilingan shaklini bir butun holda tasavvur etadi. «Tasavvur» bilimning ibtidosi bo'lib, bosh miyada (analiz va sintez asosida) hosil bo'ladi va tafakkurdan farqli o'laroq ijrochi hayolida oldindan aks etadigan tushunchalar tizimi bo'lib, badiiy ijodiyotning barcha turlariga xosdir. Tasavvurda in'ikos aks etib bosh miyaga axborot yetgandan keyin bosh miya orqali buyruq beriladi va vujud reflektorlarning turkisi, ya'ni to'xtash va yo'nalish harakatlari boshlanadi. Reflektorlarga javob tariqasida ijro harakatlari va boshqa signal tizimlari ishga tushadi.

Bunda sozanda tayyor bo'lgan asarni qanday talqinda chalishni va uning timsollarini hayolida tasavvur qiladi va ongida qanday shakllangan bo'lsa shundayligicha tinglovchiga taqdim etadi.

Musiqani badiiy anglash va tushunib yetishda musiqiy tasavvur jarayoni asos sifatida xizmat qiladi. Tajribali tinglovchining tasavvurida faqat jaranglab turgan tovushlar yig'indisigina eshitilib qolmasdan undan keyin keladigan ohanglar, kuy harakati, lad o'zgarishi, mavzu ham aks etadi.

Inson ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri His, tuyg‘u va hayajon (yemotsiya)dir. Kishi o‘zining hayotiy faoliyati jarayonida atrofini o‘rab turgan moddiy borliq bilan doimo muloqotda bo‘ladi. Buning natijasida shodu-xurramlik, qayg‘u va g‘am, to‘lqinlanish va hayajon, mag‘rurlik va iftixor, jahl va g‘azab, hayratlanish, xafa bo‘lish kabi boshqa ko‘plab mayil va tuyg‘ular (obyektiv dunyoga subyektiv munosabat kechinmalari) insonning emotsiyal his-hayajon holatini ifodalaydi.

Yemotsiya (tuyg‘u kechinmalarining shakli) ijobiy va salbiy turlarga bo‘linadi. Ijobiylari: shodu-xurramlik, to‘lqinlanish va hayajon, mag‘rurlik va iftixor, hayratlanish va boshqalar. Salbiylari: qayg‘u va g‘am, jahl va g‘azab, xafa bo‘lish kabilaridan tashkil topadi.

Ijrochi-sozandaning faoliyati his-hayajon va emotsiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ijodkor tomonidan yaratilgan asardagi fikr va maqsadni undagi badiiy emotsiyal qiyofalar tizimini tinglovchiga yetkazib bera olishi zarur. Bunda sozanda asar kayfiyatiga mos, cholg‘u sadolanishida o‘ziga xos ravishda qizg‘inlik, ifoda va joziba baxsh etgan holda ijro qiladi. Cholg‘u asari hech qanday emotsiya va his-hayajonsiz chalingan bo‘lsa, tinglovchi yuragiga yetib bora olmaydi, uni befarq qoldiradi va u ijrodan va cholg‘uchidan norozi bo‘ladi. Chuning uchun sozanda har bir asarning badiiy-yemotsional timsollar mazmuniga chuqr kirib bora olishi, undagi qayg‘urish, zorlanish, quvonish, tantana, hazil va boshqa kayfiyat turlarini ishonchli yoritib bera olishi kerak.

Musiqiy ruhshunoslikda badiiy obraz uch omil asosida ochib – ifodalanib beriladi. Bularning birinchisi moddiy, ya’ni nota matni, cholg‘u tovushi, kuy, garmoniya, usul, dinamika, tembr, registr va h.k. Ikkinchisi ruhiy, ya’ni kayfiyat, tasavvur, ifoda, iroda, hissiyot. Uchinchisi mantiqiy, ya’ni shakl, janr, mazmun kabi omillardir.

Sozandaning ijrochilik amaliyotida intellektual va estetik, ya’ni eng nozik va go‘zal oliy nafosat emotsiya shakllanadi. Ushbu his tuyg‘ular sozanda ijrochilik faoliyatida o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib ongli ravishda turli vosita va yo‘llardan foydalangan holda musiqiy asardagi badiiy obrazni ochib berish uchun xizmat qiladi.

Ijrochilik jarayonining jismoniy va ruhiy asoslarini chuqr o‘rganish bo‘lg‘usi o‘qituvchi, tarbiyachi va sozanda uchun juda muhim shartlardan biridir.

3.4. Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish.

Bu o‘rinda bizni nisbatan *an’anaviy professional* shakldagi yakkasozanda san’atining tadrijiy takomili qiziqtiradi.² Unga ko‘ra, mazkur shakldagi Yakkasozanda ijrochiligi X asrdan e’tiboran professional kuylovchilar, sozandalar va bastakorlar tomonidan rivojlantirib kelinmoqda. Bu shakl ikki ko‘rinishda taraqqiy etib kelmoqda: 1) an’anaviy sozanda ijrochiligi; 2) maqom sozanda ijrochiligi. Lekin, bu ko‘rinishlar o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligini va ular bir-birini taqozo etishini e’tibordan soqit qilmaslik lozim.

Professional an’anaviy yakkasozanda san’atida X asrdan boshlab sozandalarning *turkumlashtirilishi* va ularning ijro yo‘llari belgilanishi ko‘zga tashlanadi. Abu Nasr Forobiyning (X asr) “Katta musiqa kitobi” asarida ta’kidlanishicha, an’anaviy yakkasozanda san’ati ikki turda insoniyat musiqa san’atida rivojlanib kelgan:

- 1) Isteododsiz bo‘lsa-da Yakkaxon ijrochi tabiiy imkoniyatlariga tayangan holda kuylagan;
- 2) Isteodod egasi bo‘lgan Yakkaxon ijrochi o‘zidan avvalgi an’anaviy sozanda ijrochilagini davom ettirgan va o‘zidan keyingilarga uzatgan [1, 157-b].

Albatta, bu o‘rinda Forobiy havaslar va professional Yakkasozanda ijrochiligi to‘g‘risida so‘zlamoqda. Lekin, har ikki holat bir-birini taqozo etadi. Shu sababli Yakkasozanda ijrochilik san’ati rivojida bu ikki shakl uyg‘un qabul qilinishi kerak. Mutafakkir sozandaning tarannum (1), talqin (2) va tanag‘um (tafsilot) (3) turlarini ta’kidlab ko‘rsatadi [1,157-b]. Bunda *tarannum* lirik ru’dagi, *talqin* ijtimoiy-falsafiy mazmundagi va *tanag‘um* holat hamda kechinmalarni ifodalovchi sozandalar turumi ekanligini ta’kidlash joiz. Yakkaxon ijrochi sozandalarning bu turlarida o‘ziga xos ijro yo‘llari va mahoratini namoyon qilgan. Masalan, tarannum turkumidagi sozanda ijro yo‘li tanag‘um turkumidagi sozanda ijrosidan farq qilishi kerak, chunki birinchisiga sho‘x va ikkinchisiga esa iltijo ruhi xosdir.

Unsurmaoliy Kaykovus (XI asr) “Qobusnom” asarida XI asrdan boshlab an’anaviy yakkasozanda san’atiga bevosita Qurooni Karimni yoddan biluvchi shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan *hofiz* atamasini kiritdi [12,284-b]. Bu muhim maonaviyat bo‘lib, unga ko‘ra, Yakkaxon sozanda ijrochisi musiqaga oid nazariy va amaliy bilimlardan to‘liq xabardor bo‘lishi lozim edi. Shu sababli XI asrdan XX asr I choragigacha bo‘lgan davrdagi yakkaxon sozanda ijrochilarining nafaqat xonanda (kuylovchi), balki *bastakor va sozanda ham bo‘lganligi* kuzatiladi.

² Чунки ўқув қўлланмада ушбу йўналиш асосий объект сифатида танланган.

Kaykovus sozandalarining uch turkumini ta'kidlab ko'rsatadi:

- 1) Xusravona sozandalar – vazmin va ma'noli ohangda kuylanadi;
- 2) Shafof sozandalar – yengil va ruh berish ohangida ijro etiladi;
- 3) Tarona sozandalar – sho'x va lirik ruhda kuylanadi [12,285-b].

Mazkur masalalarga e'tibor berish, Yakkaxon sozanda ijrochisining ijroda o'ziga xos uslubga ega bo'lishi va kuylash mahoratini oshirib borishini ta'minlaydi. Chunki sozanda turkumlari ijro uslublari qanday bo'lishiga yo'l ko'rsatib turibdi.

Zero, Safiddin Urmaviy (XIII asr) "Kitob ul-advor" (musiqa nazariyasi) asarida o'n ikki maqomni tizimlashtirishgacha, an'anaviy yakkasozanda sa'nat maqom ijrochilik yo'nalishida rivojlanib bordi. Bu masala muhim bo'lib, unga ko'ra, yakkaxon sozanda ijrochisi XIII asrdan boshlab an'anaviy va maqom sozanda ijrochiligi asoslarini *uyg'un* o'zlashtirishi taqozo etildi. Bunday holatlarni hisobga olish yakkasozanda ijrochilik san'atining tarixiy-tadrijiy takomilini to'liq idrok etishga olib keladi.

3.5. Ta'limning turli bosqichlarida dars o'tish uslubi.

Qadim-qadimlardan barcha xalqlarda sozandani tarbiyalab yetishtirish juda murakkab ish bo'lib, yakka holda, ustoz-shogird uslubida olib borilgan. Ayniqsa Sharq xalqlarida bunga katta e'tibor bilan qaralgan. Ushbu anoana asrlar sinovidan o'tib bizgacha yetib kelgan va hozirgi davrda ham eng samarali o'ziga xos uslub sifatida tan olingan. O'qituvchining yakka holda dars o'tishi, yaoni har bir o'quvchi va talabaga alohida yondoshishi, individual shaxsni tarbiyalash, uni har tomonlama kamol toptirish ustozdan juda katta ma'suliyatni talab qiladi. Shuning uchun ham u darsga tayyorlanishi va darsni rejorashtirishi juda muhim jarayon hisoblanadi. Bunda u qo'l ostidagi adabiyotlar va musiqiy yozuvlarni (disklar, audio yozuvlar) ko'zdan kechirishi va lozim bo'lsa tahrir qilishi kerak. Har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda uslubiy va nota adabiyotlarini ko'rib chiqishi zarur. Mashg'ulot jarayoni esa quyidagi uch bosqichda amalga oshririladi: a) uyga berilgan vazifani tekshirish; b) yangi o'r ganiladigan asar yoki avvalgi darslarda boshlangan kuuning davomi bilan tanishish; v) uy vazifasi ustida mustaqil ishlash yo'l-yo'riqlarini o'qituvchining o'zi chalib ko'rsatishi maqsadga muvofiqdir. Darslarda turli sinf va bosqich o'quvchilari tinglovchi sifatida qatnashishi ularning pedagogik malakasi, saviyasi va mustaqil fikrlashini yanada oshiradi. Ayniqsa «Muammoli o'qitish» ya'ni asar mazmunini mustaqil talqin qilishda talabaning erkin musiqiy fikrlashini shakllantirish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Hech bir ilg'or uslub, darslik yoki dastur darsni samarali va qiziqarli olib boradigan o'qituvchining o'rnini bosa olmaydi

albatta. Shuning uchun ham sozandani va umuman insonni tarbiyalashda o‘qituvchi-ustozning o‘rnii beqiyos. Ijodiy sohada, ayniqsa musiqiy yo‘nalishda o‘qituvchi va uning dars o‘tish uslubi ta’limning oxirgi natijalariga hamda yetkazib chiqarayotgan shogirdlarining sifatiga qarab belgilanadi.

Nazorat savollari

1. Oliy ta’lim sifatini tashkiliy-boshqaruvin jihatdan ta’minlashning tayanch mexanizmlari nimalardan iborat?
2. Ta’lim sifatining intuitiv konsepsiysi tarkibiga nimalar kiradi?
3. Ta’lim sifatining ta’minlash omillari qanday?
4. Ta’lim sifatni boshqarishning nazariy yo‘nalishlari qaysilar?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ziyomuhamedov B., Abdullayeva SH. Ilg‘or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot / “Ma’naviyat asoslari” darsi asosida ishlangan uslub. qo‘ll. – Toshkent: Ibn Sino, 2001. – 80 b.
2. Mardonov SH. Yangi ta’limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – Toshkent: Fan, 2006. – 232 b.
3. Xalq cholq‘ulari ijrochiliginining zamonaviy omillari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to‘plami. To‘plovchi A.Lutfullayev. –T.: “Musiqa”.2015. - 435 b.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sozandaga yakka dars o‘tishning o‘ziga xosligi va afzallikkleri ‘aqida gapiring.
2. Mashulot jarayoninining uch bosqichi nimalardan iborat?
3. Darslarda boshqa sinf o‘quvchilarini tinglovchi sifatida qatnashishiga qanday qaraysiz?

4. Muammoli o‘qitishdan maqsad nima?
5. qaysidir bir ilyor uslub, darslik yoki dastur mashulotni samarali va qiziqarli olib boradigan o‘qituvchining o‘rnini bosa oladimi? 6.
- O‘qituvchi va uning dars o‘tish uslubi nimaga qarab baholanadi?

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot: Musiqiy ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari.

Ishdan maqsad: Musiqiy ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalarini ustoz talabalarga o‘rgatib amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatib boradi.

Maqsadning qo‘yilishi: Doimiy tarzda o‘z shogirdining fanlarni o‘zlashtirishi, tanlangan mutaxasisligi bo‘yicha izlanishlarini, dunyoqarashi va qiziqishlarini o‘rganadi va tahlil qiladi hamda o‘quv jarayonini tashkil etish ishlarini shogirdi bilan birgalikda loyihalashtiradi. Shogirdlarga talaba sifatida ularning vazifa va xuquqlari, bo‘lajak mutaxasis sifatida qo‘yiladigan talablar, Oliy ta’lim muassasasining ichki tartib-qoidalari va oliy ta’lim muassasa bilan tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni tanishtirib boradi va ularga amal qilishga ko‘maklashadi.

- shogirdlarning qobiliyatları, qiziqishlari va intellektual imkoniyatlarını o‘rgangan holda ularga ilmiy-tadqiqot mavzusini tanlashda yordam beradi;
- shogirdlariga tadqiqot mavzularini belgilashda zarur maslahatlarini beradi. Shogirdlarining oliygohma ta’lim olishi muddati davomida tanlangan mavzusi bo‘yicha reja asosida muntazam ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi;
- shogirdlarini ilmiy faoliyatga tayyorlaydi, ularning mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilad;
- shogirdlariga ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tizimli rejallashtirishda, maqsad va vazifalarini, tadqiqot metodlarini belgilashda hamda axborot manbalarini bilan ishlash, ma’lumotlar yig‘ish, ularni tahlil qilish, umumlashtirishda yordam beradi;
- shogirdlarida ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi;
- shogirdlarida ilmiy faoliyatni ilmiy-ijodiy tashkil qilish, ishni aniq rejallashtirish, tizimli loyihalashtirish, faoliyat davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan ko‘ra bilish va ularni bartaraf qilish yo‘llarini mustaqil izlash, to‘g‘ri xulosalar qilish, mehnat samarasini ta’minlash kabi sifatlarni shakllantiradi;
- mustaqil tadqiqot ishlarini tashkil qilishda shogirdlarining ilmiy-amaliy manbalar bo‘yicha ishlarini to‘g‘ri yo‘naltirishga e’tibor qaratadi;

- shogirdlari bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib boradi, eksperimental asos yaratish ustida ishlaydi;
- shogirdlari bilan fundamental va innovatsion yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib boradi;
- shogirdlarini faol jalb qilgan holda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan xalqaro va respublika grant tanlovlardan, ko‘rgazmalarda ishtirok qiladi. Shogirdlarida kasbiy faoliyatni ilmiy asosda tashkil qilish, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonida qatnashish, mehnatni innovatsion tashkil qilish malakalarini rivojlantiradi;
- ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalarini bitiruv-malakaviy ishi va ta’lim oluvchilik dissertatsiyasi darajasida rivojlantirishga yordam beradi;
- shogirdlarning oldiy ta’lim muassasasi hayoti, tarixi, an’analari,fakultet va kafedralar faoliyatining ilmiy-tadqiqot izlanishlarining asosiy yo‘nalishlari, jamoat tashkilotlarining faoliyati bilan muntazam ravishda tanishtirib boradi va mustaqil o‘rganishlarini nazorat qiladi;
- har bir shogirdning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘z shogirdlarining malakali mutaxasis, yetuk inson va fidoiy vatanparvar bo‘lib yetishishdan iborat bo‘lgan yagona maqsad atrofida jipslashgan o‘zini-o‘zi boshqaruvchi shaxs sifatida shakllanishiga ko‘maklashadi. Shogirdlarini Oliy ta’lim muassasasi va fakultet jamoat ishlariga jalb etadi;
- shogirdlarining axloqli va odobli, ma’naviy barkamol bo‘lib yetishishlariga ko‘maklashadi;
- shogirdlari bilan birlgilikda davra suxbatlari, ekskursiyalar uyushtiradi va bo‘lajak mutaxasislarning vazifalariga doir boshqa tadbirlar o‘tkazadi;
- shogirdlarini dunyoda yuz berayotgan voqealarga va xodisalarga, mamlakatimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga, universitet va fakultet jamoalari hayotidagi voqealarga pozitiv munosabatlarini shakllantirishga, ularni mazkur masalalar bo‘yicha mustaqil fikrga ega bo‘lishlariga ko‘maklashadi;
- sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etadi, shogirdlarining turli xil ilmiy-texnik, ijodiy va badiiy to‘garklarda, sport seksiyalarida va musobaqalarida qatnashishlarini tashkil qiladi;
- shogirdlarning darslarga muntazam qatnashishlarini,kundalik va sessiyadagi o‘zlashtirishlarini nazorat qiladi;
- a’lochi va faol shogirdlarini rag‘batlantirish uchun tavsiyalar beradi, davlat stipendiyalariga tavsiya etadi, o‘zlashtirish bo‘yicha orqada

qolayotgan shogirdlarni ogoxlantiradi, ular uchun kafedralar yordamida konsultatsiyalar uyuştiradi;

- talabalar turar joyida va xususiy (ijarada) xonadonlarda yashovchi shogirdlarining yashash sharoiti bilan tanishadi xamda ularning oilalari va ota-onalari bilan bevosita aloqa o'rnatadi;
- ichki tartib-qoidalarni buzgan, axloq va odob qoidalariga zid ish olib borayotgan, ustoz o'gitlari, pand-nasixatlariga yetarli e'tibor bermayotgan shogirdlari uchun javobgar shaxs sifatida ma'sul bo'ladi xamda oliy ta'lim muassasasi tuzilmalari bilan birgalikda ana shunday murakkab vaziyatlardan chiqish yo'llari, muammoni yechish bilan bevosita shug'ullanadi;
- shogirdlarining o'quv jarayonini va maishiy masalalar, shuningdek ma'naviy va moddiy yordam ko'rsatish xaqidagi shaxsiy iltimoslarini ko'rib chiqadi va yordam ko'rsatishga ma'sul bo'ladi;
- universitet va fakultetlarning ustoz va shogird masalasiga bag'ishlangan yig'ilishlarida ishtirok etadi, ta'lim-tarbiya jarayoniga oid tajribalari bilan fikr almashadi, bu masalalar bo'yicha o'z takliflarini kiritadi;
- kafedradan shogirdlarining fanlar bo'yicha darslarga qatnashishlari, reyting nazorati va test sinovlari natijalariga oid ma'lumotlar olish, ular bilan birgalikda o'zlashtirishda orqada qolayotgan talabalarga konsultatsiyalar uyuştirish masalalarini xal etadi;
- talabalarni ishlab chiqarish amaliyoti va ish joylariga taqsimotida ishtirok etadi;
- talabalarning oliy ta'lim muassasasida o'qishi davrida va undan keyingi hayoti mobaynida ham kasbiy va ijtimoiy taraqqiyot masalalari bo'yicha xam ma'sul hisoblanadi.

2-amaliy mashg'ulot: Musiqa cholg'ulari rivojida innovatsiyalarning o'rni.

Ishdan maqsad: Musiqa cholg'ulari rivojida innovatsiyalarning o'rnnini to'laqonli amaliy usullar yordamida ochib berish.

Maqsadning qo'yilishi: Musiqa cholg'ularni tez va puxta o'rgatishda ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda innovatsiyalarning o'rni. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari talabaga interaktiv usullar bilan, psixologik va pedagogik

jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish.

3-amaliy mashg‘ulot: Xalqaro tanlovlarning innovatsion jarayonlardagi o‘rni («Art open world» tanlovi misolida).

Ishdan maqsad: Xalqaro tanlovlarning innovatsion jarayonlardagi o‘rnini talabalarga misollar yordamida to‘laqonli tushuntirish.

Maqsadning qo‘yilishi: Xalqaro tanlovlarning innovatsion jarayonlardagi o‘mi («Art open world» tanlovi misolida) ni talabalarga o‘quv materiallari, interaktiv usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanishda ko’plab usullar qo‘llaniladi.

4-amaliy mashg‘ulot: Musiqiy ta’limda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish.

Ishdan maqsad: Musiqiy asarlar ustida ishslashda kuy rivoji va undagi jumlalar, davriyalar, avjlar (kulminatsiya), kuy qismlari va boshqa tayanch nuqtalar aniq belgilanadi. Ularning qaysi biri yetakchi yoki yordamchi bo‘lishi musiqaning xarakteri va vazifalariga bog‘liq. Shuningdek asarning texnik jihatdan sadolanishi, murakkab va qiyin joylari belgilanib olinadi va bo‘laklarga bo‘lib nota bilan xususiylikdan umumiylitka va umumiylidan xususiylikka qarab xatosiz o‘rganiladi.

Maqsadning qo‘yilishi: Ushbu jarayonda o‘z ijrosini eshitgan holda tanqidiy baholash, qiyin joylarini sekin sur’atda chalish tavsiya etiladi. Ayniqsa, texnik jihatdan murakkab bo‘laklarini turli shtrix va artikulyatsiyalar vositasida chalish katta yordam berishi mumkin.

Sozanda kichik bo‘laklar ustida qancha vaqt qunt bilan ishlamasin, asarni bir butunligini hech qachon esdan chiqarmasligi kerak va ba’zida butunicha chalib tasavvurini yanada boyitib borishi maqsadga muvofiqdir. Butun ijro davomida esa meyor tushunchasi ustoz va shogirdning diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim.

5-amaliy mashg‘ulot: Professional musiqa ijrochilarini tayyorlash jarayonida media texnologiyalarning o‘rni.

Ishdan maqsad: Professional musiqa ijrochilarni tayyorlash jarayonida media texnologiyalarning o‘rnini to‘laqonli ochib berish.

Maqsadning qo‘yilishi: Professional musiqa ijrochilarni tayyorlash jarayonida media texnologiyalarni o‘zlashtirishda foydalanish metodlari. Musiqa ijrochilarining o‘quv materiallari talabaga interaktiv usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish.

6-amaliy mashg‘ulot: Musiqiy ta’limda foydalaniladigan multimedia loyihibalarining turlari va shakllari. Musiqiy ta’limni zamonaviylashtirishda davlat siyosati.

Ishdan maqsad: Musiqiy ta’limda foydalaniladigan multimedia loyihibalarining turlari va shakllarini to‘laqonli ochib berish.

Maqsadning qo‘yilishi: Musiqiy ta’limda foydalaniladigan multimedia loyihibalarining turlari va shakllariga o‘quv materiallari talabaga interaktiv usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish.

Xorijiy davlatlarda ham cholg‘u ijrochiligi rivojlanishi tendensiyalari tahlil qilinganda har bir xalqning o‘ziga xos ijrochilik an’analarini kuzatish mumkin. Jumladan, Balalayka — rus milliy asbobi. Balalayka kuni paydo bo‘lishi halk musiqachilarining xizmati deb sanash kerak. Bayram rasmiy ravishda tan olinmagan, lekin musiqiy jamoalarga har yili uni chiqishlar va konsertlar bilan nishonlashga halal bermayapti. Bayramning g‘oyasi Rossiya halk musiqachilari klubining Prezidenti Dmitriy Belinskiyga kelgan. Sanani tanlashda tarixiy asos bo‘lib 1688 yil 23 iyundagi birinchi xujjat bo‘lib xizmat qildi. Birinchi marta Balalayka kunini 2008 yilda nishonlashdi. Ma’lum bo‘ldiki u vaqtabayram 2 ta yubileyni nishonlashga bog‘liq bo‘ldi. Balalayka nomi qayd qilingan birinchi xujjatga 320 yiligi va 125 yil avval mashshoq, kompozitor va rus xalq asboblarning birinchi milliy orkestri dirijyori Vasiliy Andreyev balalaykani orkestrga qo‘shtgan. Aslida bu voqeа xalq musiqa asboblirida chalish san’atining rivojlanishiga asos soldi. Balalayka kunini Yevropada, Lotin Amerikasida, Avstraliyada, AQSH, JAR, Ukrainada, Belorusiyada, Qozog‘iston, va albatta, Rossiyada har xil rus xalq musiqiy asboblarda chaluvchi usta ijrochilar, ijodiy jamoalar, shunchaki havaskorlar, xalq musiqachilari nishonlaydilar. 2010 yildan boshlab Qrimda bayram sharafiga festival o‘takaziladi. Iyun mobaynida bu yerda xalq musiqachilarining chiqishlari uyushtiriladi, 23-iyunda esa katta gala-konsert bilan festival yakunlanadi.

Tunis musiqasi uzoq yillar davomida finikiy, yunon, rim, ayniqsa, arab va turk madaniyati ta'sirida rivojlanib keldi. Tunis musiqasi Mag'rib mamlakatlari madaniyatida alohida ahamiyatga ega. Badaviylar an'analari negizida marosim va mehnat qo'shiqlari, shoirbaxshilar ijodi rivoj topdi. Mumtoz musiqasi Andalusiya (Ziryob) maktabi ta'sirida qaror topgan. Turkumli janr nuba muayyan maqam (lad)larga asoslanib, cholg'u badihaviy muqaddima (istiftax), ma'lum usullarda ijro etilayotgan vokal (avyat, btayxi, baruel, taushiyqa, dardj va boshqalar) hamda cholgu (msaddar, dxoul kabi) qismlardan iborat. 24 mumtoz nubadan hozirda T. da 13 tasi saklangan. Qasida, muvashshax, shuningdek, diniy musika shakllari — zajal, zikr, turk madaniyati ta'sirida bashraf (cholgu kuy)lar keng o'ren olgan. Milliy sozlari: ud, torlikamonli rabab, qonun, naysimon kasba, zurna (surnay turi), doirasimon tar va bendir, to'rtburchak daf, darbuka, tbala (baraban turlari). Mustaqillikka erishilganidan so'ng musiqa madaniyatiga e'tibor kuchaydi. 60-yillarda simfonik orkestr, milliy ansambllar tashkil etildi. Tunis folklor ansamblisi, Bizerta mumtoz musiqa ansamblisi, "Rashidiya" jamiyatni orkestri (hozirgi radio orkestri) ishlay boshladi. An'anaviy musiqa bilan birga musiqa madaniyatining yevropalashgan shakllari yoyila bordi. Musiqa kadrlari oliy va o'rta musiqa o'quv yurtlari, jumladan, Tunisdagi Milliy musiqa, raqs va xalq san'ati konservatoriyasi, Sfaksdagi konservatoriyada tayyorlanadi. Bastakor, ijrochi va musiqashunos Saloh al Mahdiy, bastakor va udchi M. al Jamusiy, xonandalar U.Karim, SH.Alaviy, Abdulhaq Tarialar mashhur. Har yili o'tkaziladigan Karfagen musiqa festivali folklor san'atining jahon markaziga aylandi.

O'rta asrlarda ritsarlar san'ati paydo bo'ldi, minnezingerlar maktabi shakllandi (Volfram fon Eshenbax va boshqalar); 14-asrda meysterzingerlar san'ati, 16-asrdan cholg'u (ayniqsa organ) musiqasi (K.Pauman singari kompozitorlar ijodida) rivojlandi. Islohot davrida xalq qo'shiqlari zaminida protesta xorali paydo bo'ldi. Germaniya Shyuts nemis musiqasida oratoriya va kantata janrlarini ishlab chiqdi, birinchi nemis operasi "Dafna" (1627)ni yezdi. 1723-yildan I.S.Bax faoliyati boshlangap Leypsig yirik musiqa markaziga aylandi. 18-asr 2-yarmida musiqali sahna janri—zingshpil paydo bo'ldi (I. Xiller va boshqalar). Asosan chet ellarda ishlagan Germaniya Gendel, X.Glyuk kabi kompozitorlar Angliya, Fransiya va boshqa mamlakatlar musiqa taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Y.Gaydn, V.A.Motsart, L.Betxoven singari Vena klassik maktabi ustalari nemis musiqasi rivojiga kuchli ta'sir o'tkazdi. L.Betxoven ijodi nemis musiqasining cho'qqisidir. 19-asr boshida musiqiyromantizm

namoyandalari F.Shubert, K.Veber, F.Mendelson Bartoldi, R.Shuman, 19-asr 2-yarmida R.Vagner. I.Brams, M.Regerlar ijod qildi. 20-asr boshidan Germaniyada ekspressionizm (R. Shtraus, A. Shyonberg), neoklassitsizm (P. Xindemit), atonalizm kabi musiqiy avangardizm oqimlari tarqaldi. Fashistlar rejimi mamlakat musiqiy madaniyatiga halokatli ta'sir qildi. Ilg'or kayfiyatdag'i musiqa arboblari xorijdan boshpана topdi. Urushdan keyin keksa avlodga mansub kompozitorlarning ijodi va faoliyati (K. Orf va boshqalar) yetakchilik qildi. 60-yillardan keyingina yosh kompozitorlar (X. Xense, K. Shtokxauzen) ko'zga ko'rina boshladi. Berlin, Hamburg, Myunxen, Frankfurtmayn, Shtutgart, Leypsig, Drezden va boshqa shaharlarda opera va balet teatrлari, simfonik orkestrlar, Oliy musiqa maktablari bor.

Yaponiya musiqasi qadimiy an'analarga boy bo'lib, o'z taraqqiyoti jarayonida xitoy va koreys, hind va Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari xalqlari musiqa madaniyati ta'sirida boyigan; u mehnat, turmush, diniy marosimlar bilan bog'langan. Qo'shiqlar bir ovozli, qo'sh metrlar ustun. Musiqiy cholg'u asboblari hilma xil: chertib chalinadigan — syamisen (lyutnya), koto (13 torli sitra); puflama — nukan, syakuxati (fleytalar), soo (lab organi), xitiriki (goboy turi); zarbli — tayko, kotsudzumi, otsulzumi (barabanlar), syoko (gong). Professional musiqa diniy harakatlar va teatr bilan bog'liq bo'lgan; uning sarchashmalari 6—7-asrlarga borib taqaladi. 14-asrda teatrning Noo san'ati (qo'shiq, raqs, cholg'u asboblar jo'rligida ijro etiladigan deklamatsiya), 16—17-asrlarda Djyoruri qo'g'irchoq teatri musiqasi va kabuki (mumtoz yapon teatri turlaridan biri) musiqasi shakllandi. Yaponiyada musiqa san'atini rivojlantirishda Musiqa tadqiqotlari instituti (1879 yil tashkil etilgan, 1886 yildan Tokio musiqa maktabi) muhim rol o'ynadi.

1897 yil yapon simfonik orkestrining birinchi konserti bo'lib o'tdi. Yevropada musiqa ta'limini olgan Yamada Kosaku, Nobutoki Kiyosi, Kiyose Yasudzi, Matsudayra Yoritsune kabi kompozitorlar kompozitorlarning yangi federatsiyasi (1930 yildan Yaponiya zamonaviy musiqa uyushmasi) ni tuzdilar. O'z ijodlarida milliy an'analarga suyangan holda, Yevropaning kompozitsion usullariga ham murojaat etdilar.

1960 - 80 yillarda Mamiya Mitio va Akutagava Yasusi kabi kompozitorlar folklor va yapon mumtoz musiqasidan keng foydatandilar. 1940-yillarning oxiridan Seki Akiko rahbarligida antiimperialistik xarakterdag'i "Yaponianing kuylovchi ovozlari" ommaviy xor harakati keng yoyildi. 1950-yillarning oxiridan avangardizm ta'siri ko'zga tashlana boshladi, eksperimental musiqa turlari tarqaddi. Hoz. davrda ommaviy va

mumtoz musiqa bilan birga milliy musiqa turlari yoyilgan. Folklor musiqasini yig‘ish, o‘rganish va tarqatishga alohida e’tibor beriladi. 1970-yillarda karaoke (bo‘sh orkestr) havaskorlar ijrochiligi paydo bo‘lib, u aholi orasida juda ommalashdi.

Kompozitorlardan Noda Teruyaki, Xachimura Yoshio, Ikebe Shinitiro, ijrochi dirijyorlardan Abe Komei, Masasi Ueda, Vatanabe Akeo, Ivaki Hiroyuki, Moro Takashi, pianinochi Tanaka Keyko, skripkachi Kubo Yoko mashhur. Yaponiyada 20 dan ortiq simfonik orkestr, kamer cholg‘u ansambli, xor jamoalari va boshqalar bor. Tokioda Davlat musiqa akademiyasi (1887 yildan), 20-asr musiqasi instituti (1957 yildan), Milliy nafis san’at va musiqa yurti, Toxo oliy musiqa maktabi faoliyat ko‘rsatadi.



V. KEYSLAR

V. KEYSLAR

1-keys

Musiqa maktabi tarbiyalanuvchisi Dildora 12 yoshda. Qizning ota-onasi qizi uchun fortepiano sotib olib bergan. Uyda fortepiano ijrochiligi bilan qo'shimcha tarzda Dildoraning buvisi shug'ullanar edi. Dildora ijrochilik sohasida yutuqlarga erisha boshladi. Maktab konsertlarida yakka ijrochi sifatida ishtirok eta boshladi.

Dildora tarbiyalanadigan guruhda Munira degan qiz ham tarbiyalanadi. Lekin ular sira ham kelisha olmaydilar. Munira – chin yetim qiz. Dildoraning erishayotgan yutuqlar Muniraning g'ashiga tegar, uning bahilligini oshirar edi. Kundan kunga Munira Dildorani yomon ko'rib ketar, har ko'rganida biror bahona topib, mazax qilar edi. Ehtimol shu sabab bo'lsa kerak, kattalarning yoki tarbiyachilarning yo'qligida ular shu darajada urishib ketishadiki, qizlarni ajratib olish juda ham qiyin bo'ladi.

SAVOL:

1. Mazkur mojaroli vaziyatni qanday yo'l va usul bilan xal qilish mumkin?
2. Bu tariqa ruhiy jarohatlari xolatlarni vujudga kelishining oldini olish mumkinmi? Agar "ha" bo'lsa, qanday qilib?

2-keys

Bir necha yil avval musiqa maktabiga boshqa muassasadan 10 yashar Yulduz ismli qizni o'tkazadilar. Juda chiroylar, shiringina, sochlari jingalak, dutorchi qizcha. Avvalgi o'qigan musiqa maktabi o'qituvchisi mehribonlik bilan gapirar, har bir erishgan yutuqlaridan xursand bo'lib, rag'batlantirar edi. Yangi musiqa maktabi o'qituvchisi talabchan va qattiqqo'l bo'lib, bergen topshiriqlari yuzasidan ko'proq tanbex berar edi. Yulduzning ota-onasi o'qituvchining xatti-harakatini tushunmay, o'qituvchini jaxldor deb o'ylab, darhol uni musiqa maktabidan chiqarib oldilar. Yarim yil davomida ijrochilik sohasida anchagina yutuqlarga erishdi, o'qituvchisining talabchanligi natijasida ijro texnikasini o'sganligi sezilib turar edi. Qizchaning qarshiligiga qaramay, ota-onasi musiqa maktabiga yubormay qo'ydi. Qizcha hatto nima bo'lganini ham tushunib ulgurmadi. U juda og'ir ahvolda edi va boshdan o'tkazganlarining oqibati uning xulqida uzoq vaqt o'z ta'sirini ko'rsatdi. U go'yoki kattalardan alamzada, butun dunyoga ishonchsizlik nigohi bilan boqardi. Ota-onasining samimiy mehrli munosabati Yulduzda shubha uyg'otar edi.

SAVOL:

1. Ushbu vaziyatda Yulduzning ikki xil sharoitdagi xulqi keltiriladi. Yulduzning yangi sharoitga moslashish davridagi xulqi xususiyatlarining kelib chiqishi hamda keyinchalik musiqa mакtabidan ketganidan xulqi sabablarini tushuntirib bering.
2. Ushbu vaziyatni oldini olish, ya’ni Yulduzning yangi sharoitga, qattiq talabchanlikka moslashib ketishi va umuman musiqa mакtabiga qaytarilishi uchun oilaga qanday yordam tashkillashtirilish mumkin?

3-keys

Rustamning otasi otalik huquqidan mahrum etilgan. Uning onasi esa 3 yil oldin mehnat migratsiyasi sababli chet elga ketganicha xali-xanuz qaytib kelmagan. Rustam musiqa mакtabida rubob cholg‘u ijrochiligi mashg‘ulotlariga qatnaydi. Oxirgi vaqtarda musiqa mакtabidan qochib ketadigan va uzoq vaqt daydib keladigan odat chiqardi. Xulqida ham salbiy o‘zgarishlar paydo bo‘la boshladi. Uning salbiy xulq-atvori guruhdagi bolalarga ham ta’sir ko‘rsata boshladi. Rustam aslida musiqa mакtabidan chiqib, ko‘chada topgan o‘rtoqlari bilan kley xidlab keladi. Bu odatini guruhdagi o‘rtoqlariga ham o‘rgata boshladi.

SAVOL:

1. Sizning dastlabki harakatlaringiz...
2. Bolani tarbiyalashda qanday tarbiya usullaridan foydalanasiz?

4-keys

8 yashar Irina ota-onasining ixtiyoriga ko‘ra musiqa mакtabiga fortepiano cholg‘u ijrochiligiga qatnay boshladi. Irinaning cholg‘u ijrochiligiga qiziqishi yo‘q, ko‘proq rasm chizishga qiziqadi. Lekin eshitish qobiliyati yaxshi, ritmni yaxshi xis qiladi va musiqiy xotirasi ham yaxshi. Ota-onasiga bildirmagan holda, fortepiano mashg‘ulotlariga kirmay qo‘ydi.

SAVOL:

1. Irinaning fortepiano ijrochiligiga qiziqtirish maqsadidagi sizning harakat rejangiz...
2. Qizning oilasi bilan birgalikda kasbga yo‘naltirishning qanday usullarini bilasiz?

5-keys

Azizani musiqa mакtabiga 13 yoshdaligida olib kelishgan. U shu yoshigacha musiqa bilan shug‘ullanmagan. Musiqa san’ati bilan kasbiy shug‘ullanmaganligi natijasida texnik rivojlanishda orqada qolgan.

Uning ota-onasi Azizaning dutor cholg‘usini o‘zlashtirishini juda xoxlashgani sababli, tezroq biror asarni ijro etib berishini talab qilishar edi. Aziza esa, xali ijro shtrixlari va gammalardan nariga o‘tmas edi. Aziza bo‘sh qoldi deguncha, biror xalq kuyini chalishga xarakat qilar, lekin buning uddasidan chiqmas edi. Ota-onasi Azizani musiqa mакtabiga borishini taqiqlab qo‘yishdi.

Lekin Aziza musiqa mакtabiga yashirincha boradigan bo‘ldi. U musiqa mакtabidagi yashirin hayot bilan yashay boshlaydi. Ota-onasi bilgandan keyin esa, katta janjalga sabab bo‘ldi.

Savol:

1. Azizaning xatti-xarakatini qanday baxolaysiz?
2. Mana shunday vaziyatlarda, musiqa o‘qituvchisining vazifalari nimadan iborat. Sizning harakat rejangiz.

6-keys

Po‘lat musiqa mакtabiga kelganidan avval odob-axloqliedi, keyinchalik kattalarga taqlid sifatida sigaret chakar va ko‘chalarda to‘polonchilik qiliqlarini qilar edi. To‘ylarga borib ancha-muncha mablag‘ topardi. Daydib yurganligi sababli uni ichki ishlar xodimlari ota-onasiga va mакtabiga xat yubordilar. Lekin uyida va mакtabida qanchalik yaxshi munosabatda bo‘lishmasin, Po‘lat ko‘pincha u yerdan qochib ketishga harakat qilardi va musiqa mакtabiga ketdim degan vaj bilan yana o‘sha eski hunarini davom ettirar edi. Ota-onasi musiqa mакtabiga kelib, bolaning to‘ylarga borishida o‘qituvchisini ayblay boshladи.

SAVOL:

1. Bu vaziyatga nisbatan sizning munosabatingiz.
2. Ota-onasiga qanday munosabat bildirish va bu holatni oldini olish maqsadida qanday ishlar olib borilishi kerak?

7-keys

Odatda ko‘pincha musiqa mакtabining bitiruvchilari kasb-xunar kolleji va litseylar musiqiy faoliyatga moslashishlarida ko‘pgina qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu: kasbiy musiqaning murakkab tuzilmasi; ijro uslublaridagi murakkablik; o‘quv jarayoni bilan bog‘liq vazifalarni bajarish; ustoz-o‘qituvchi bog‘liq masalalar; oilaviy muammolarni hal etish kabilar.

Kollej va litseylarda o‘qish mobaynida musiqa mакtabining sobiq bitiruvchilari o‘z muammolarini yechishda yordam so‘rab yana musiqa mакtabiga kelib murojaat etadilar. Shunday vaqtlar ham bo‘ladiki, berilgan

asarlarni o‘zlashtirishda qiyinchilikka uchragan talaba yana musiqa maktabidagi o‘qituvchisi yoniga keladi. Musiqa o‘qituvchisi odamgarchilik nuqtai nazaridan o‘quvchisiga yordam beradi. Buning natijasida o‘quvchida kollej yoki litsey o‘qituvchisiga nisbatan salbiy munosabat yuzaga keladi.

Savol:

1. Kollej yoki litsey o‘qituvchisi sifatida bu vaziyatni qanday yo‘l bilan hal qilasiz?
2. Sizda tahsil olayotgan bolaga nisbatan sizning munosabatingiz qanday bo‘lishi kerak?
3. Bitiruvchi-o‘quvchilarning kollej hayotiga moslashishlariga yordam berish tizimini takomillashtirish maqsadidagi Sizning takliflaringiz?

8-keys

Kamer ansamqli ijrochiligi bo‘yicha mashg‘ulotlarda fortepiano va skripka cholg‘ulari o‘quvchilari uchun repertuar tanlashingiz kerak. O‘quvchilarning shaxsiy munosabatlari yaxshi emasligi sababli tanlagan asaringiz o‘quvchilarning biriga yoqsa ikkinchisi ushbu asarni rad etadi (turli sabablarni ko‘rsatgan holda).

Savol:

1. O‘quvchilar tomonidan munosabatlariga ko‘ra rad etib bo‘lmaydigan asar tanlash mumkinmi?
2. Sizning o‘quvchilar munosabatlarini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan harakat rejangiz?

9-keys

To‘yda 10 yoshli bolaning san’atkorlar uchun pul terib xizmat qilayotganini ko‘rdingiz. Bolaning musiqa o‘qituvchisi sifatida sizning dastlabki harakat rejangiz.

10-keys

10 yashar bola 6 yoshidan beri skripka cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha “Musiqa va san’at maktabi” da o‘qib kelmoqda. Bolaning ritmik koordinatsiyasi buzilgan. Sizning harakat rejangiz.

11-keys

Muammoli vaziyatni muhokama qilish uchun mashq

Yo‘riqnomा:

1. Real hayotiy vaziyat aks etgan 1.1.-matnni diqqat bilan o‘qing (5 daqiqa davomida).
2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda quyidagi savollarga javob bering (5 daqiqa davomida):

- Mazkur vaziyatda bolaning qanday ehtiyojlari inobatga olinmagan?
- Bu voqeaning bu tarzda kechishining oldi olinishi mumkinmidi?
- Mazkur vaziyatning samarali tarzda oldini olish uchun kimlarning (yoki qaysi idora va organlarning) yordami jalb etilishi mumkin edi?
- Voqeaning rivojlanishi davomida maktab-internat xodimlari qanday ma'qul choralarini ko'rishlari lozim edi?

1.1. Real hayotiy vaziyat. Bugungi kundagi ...-musiqa maktab-internatining 8-sinf o'quvchisi Xasanov Farrux 14 yoshda. U 11 yoshida onasi tomonidan muassasaga olib keltirilgan edi.

Voqeа quyidagicha kechgan: U ... tumani “...” fuqorolar uyushmasi hududida tug'ilgan Xasanov Farrux onasi Xasanova Fotima bilan birgalikda yashab kelmoqda edi. Dadasi bilan onasi Farrux 7 yoshida ajralib ketishgan. Onasi Xasanova Fotima Farrux 10 yoshga yetganida yangi oila – yangi turmush quradi. Oilaviy xayot boshlarida xayot yaxshi ketayotgandek edi biroq, kunlar o'tishi bilan oiladagi yetishmovchiliklar, ikir-chikirlar janjallarga olib kela boshladi. Uyda bo'layotgan kelishmovchiliklar, o'gay otaning onaga nisbatan munosabati, Farruxga qilayotgan muomalasi uning xulqiga jiddiy ta'sir ko'rsata bordi. Farrux darslarga tayyorlanmas, musiqa maktabiga bormaslik odatlarini chiqara boshladi. Farrux ko'chadagi bekorchi bolalar xayotiga qo'shila boshladi. Qo'li egrilikka odat qilib, yomon yo'llarga kira boshladi.

Ushbu sabablar oilada jiddiy janjallarga olib kelib parokandalik boshlandi. Oxir oqibat yangi oilani saqlash niyatida 11 yashar Farruxning onasi Xasanova Fotima o'z farzandini ... tumanidagi ...-sonli kam ta'minlangan oila farzandalariga mo'ljallangan maktab-internatga xujjal tar tayyorlab olib keladi. Farrux maktab-internat xayotiga asta-sekin ko'nika bordi. Ona Farruxni dastlabki kunlarida har xafta kelib xabar olib ketgan bo'lsa, keyinchalik umuman o'z farzandidan xabar olmay qo'yadi. Xafta so'ngida barcha o'quvchilar o'z uylariga ketsada, Farrux maktab-internatda qolar, uyga onasi olib ketmas, xatto ta'til paytlari ham yaqinlari e'tiborisiz muassasada qolib ketar edi. Ushbu voqealardan ta'sirlangan maktab-internat direktori Farruxga oilaviy sharoit bilan tanishtirish, oilaviy mexri ko'rsatish uchun o'z uyiga olib ketdi. Biroq Farrux ushbu oilada eski qiliqlarini esga olib, qo'li egrilik hunarini boshladi. Bir necha bor buyum, pul o'g'irlashga tushdi. Bir oyga ham bormagan mazkur oilaviy muhit bilan tanishish jarayoni uy egalarida Farrux haqida salbiy fikr va munosabatning

paydo bo‘lishi natijasida uni yana muassasaga qaytarish niyatini vujudga keltirdi. Demak, Farrux yana maktab-internat hayotiga qaytarildi.

Maktab-internat Farruxga har tamonlama yordam berishga harakat qilar edi. Qishki, yozgi kiyim-bosh, o‘quv qurollari bilan bepul ta’minlandi. Farruxning xayotiga mazmun kiritish maqsadida maktab-internat joylashgan “...” maxallasi fuqorosi Raxmonova Q. bolaga vasiylik qilish maqsadida o‘z oilasiga farzandlari davrasiga qo‘sidi. 3-4 oy ushbu oiladagi xayot uydagi buyumlarni yo‘qolishi, soat o‘g‘irlanishi bilan yakunlandi. Farrux yana, ya’ni ikkinchi bor maktab-internat xayotiga qaytarildi. Har qanday muomala bilan ham muassasa xodimlari Farruxni qo‘li egrilik odatidan qaytara olmadilar. Onasini bir necha bor maktab-internatga chaqirilishi natijasida ona o‘z farzandidan voz kechishi qarori bilan yakunlandi. U o‘z farzandidan voz kechishi haqidagi tilxatni yozib, osongina go‘yoki u uchun qiyin bo‘lib tuyulgan vaziyatdan qutuldi.

Farruxning xayotiga befarq bo‘lmagan yana bir Urushboyevlar oilasiga vasiylik tayinlanib, bolaning tarbiyasi bilan shug‘ullanish maqsadida o‘z oilasiga olib ketadi. Farrux bu oilada 1 yil yashab uy ishlariga ko‘maklasha boshladi, biroq darslarni yaxshi tayyorlamas, darslarni ko‘p qoldirar edi.

Yoshi ulg‘ayib qolgan Farrux endi ko‘cha xayoti uni qiziqtirar, ko‘proq vaqtি ko‘chada o‘tar edi.

Farruxga mehr ko‘rsatish niyatidagi Urishboyevlar uni qattiq koyimas, ko‘nglini og‘ritmas edi. Ushbu xayot Farruxni dangasa, qo‘pol, ko‘cha bolasiga aylantira boshladi.

O‘z oilasidan tashqari, jami 3 ta oilaga moslasha olmagan Farrux bugungi kunda yana maktab-internat sharoitida yashab, ta’lim-tarbiya olib kelmoqda.

1.2. Farruxning xulqi o‘zgarishiga ta’sir etgan ehtimoliy omillar.

Pedagog-tarbiyachi Farruxga u bilan gaplashib ko‘rishni taklif etdi Farrux ham bunga rozi bo‘ldi. Farrux maktab-internatdagi ishlarini, uydagi ishlari kechishining yaxshi emasligini tasdiqlaydi. Pedagog-tarbiyachi uydagi axvol qandayligini so‘raydi. Farrux quyidagicha javob beradi: “Yaxshi shekilli”. Pedagog-tarbiyachi Farruxning tovushida allaqanday g‘amginlikni sezadi. Mutaxassis nima uchun u o‘g‘irlikka rujo‘ qo‘yanligi haqida o‘ylay boshlaydi. U Farruxning maktabdagi xulqini va o‘g‘irlik bilan bog‘liq voqeanning sababini oydinlashtiradi. Pedagog-tarbiyachi Farrux o‘z uydagi vaziyatdan, ya’ni otasi ularni tashlab ketganidan tashvishda ekanligini, o‘qituvchi unga o‘z meyorida ta’lim bera olmasligini

aniqlaydi. U dars mobaynida diqqatini meyorida jamlay olmaydi. Buning ustiga boshqalarga xam xalaqit beradi. Shuningdek pedagog-tarbiyachi jabr ko‘rgan kishilarning o‘z narsalarini o‘g‘irlatishiga yo‘l qo‘yib bermasligini ham biladi. Farrux kattalarning iliq munosabati, yaxshi mehrli muomaliasiga muxtojdir. Farruxning bugungi kundagi xulqi, odatlari shakllanishiga ko‘p narsa ta’sir etgan.

Birinchidan, o‘z biologik otasining tashlab ketishi. Bu holat har qanday farzandda “KERAK EMASLIK” tuyg‘usini, befarqlik, qadr-qimmat sizlik kabi xislarni uyg‘otadi.

Ikkinchidan, onaning bolaga berayotgan e’tiborini to‘satdan boshqa bir va bola uchun begona bo‘lgan obyekt, ya’ni erkakka taqsimlashi. Albatta, mazkur oilaviy vaziyatda ona yangi turmush o‘rtog‘ining talablariga javob berish hamda maishiy-xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanish barobarida, ehtimol bolaga yetarli e’tibor va alohida vaqt ajrata olmagandir. U bilan tarbiyaviy ta’sirli muomala o‘rnata olmagandir. Aynan muomala, munosabat, iliq mehrga to‘ymaganlik va e’tibor ostidan qolish kabi kamchiliklar bolada qahri qattiqlik, gapga tushunmaslik, “bezbetlilik”, gap qaytarish, o‘z vaqtini kerak bo‘lmagan ishlar bilan o‘tkazish kabi odatlarning shakllanishiga olib kelgan bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, onaning butkul bolani esdan chiqarishi. Birinchi va ikkinchi sanab o‘tgan sabablarimizdan qattiq ranjigan va o‘zida o‘z oilasiga nisbatan xissizlikni shakllantirib borayotgan Farrux uchun mazkur ayriliq uning haqiqatda ham hech kimga KERAK EMASlik fikrini mustahkamlanishiga olib kelgan bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchidan. Har qandan inson yaqin kishiga nisbatan ehtiyojni xis qiladi. O‘z yaqinlarisiz qolgan Farrux endilikda boshqa tengdosh bolalaridan ajralib qolish holatiga tushgan bo‘lishi mumkin. Chunki guruhdosh tengdosh o‘rtoqlari har xafka o‘z oilasiga, o‘z uyiga oshiqadilar. Doimo o‘z yaqinlari haqida yaxshi so‘zlarni aytib, bo‘lgan voqealarni xavas bilan xotirlaydilar. Bu esa bolada ichki o‘kinish, boshqalardan kamlik degan xisning paydo bo‘lishi hamda boshqalarga o‘xshamaslik degan fikrning shakllanishiga turtki bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas.

Beshinchidan, bolada sportga nisbatan qiziqlishi kabi boshqa yashirin qobiliyat yoki moyilliklari o‘z vaqtida aniqlanib, rivojlantirish uchun maxsus pedagogik sharoit yaratilmagan bo‘lishi mumkin. Natijada bolada o‘zgalar nigohida va o‘zi haqidagi fikrlarida faqat YOMON degan so‘z va munosabatlar aylanib yuravergan. Boladagi kuchsiz tomonlar go‘yoki u ega bo‘lgan yagona xususiyatdek talqin etilgan. Aslida esa agarda bolaning kuchli tomonlari muhokama markaziga olib chiqilib, kuchli xususiyatlari

e'tiborga olinib, shu vositasida uning qadr-qimmati ko'tarilib, unga nisbatan ishonch bildirilib, yuqori baho va iliq mehrli munosabatlar bilan uning boshqacha ekanligi, barchaga kerakligi, juda yaxshi bolaligi, hayotda nimalargadir erisha olishi mumkinligi, boshqalarga ham mehr bera olishi mumkinligi ta'kidlanganda edi, ehtimol korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish imkonni bo'lgan bo'lar edi.

Lekin Farruxga nisbatan munosabat qurilayotganda yuqoridagilar inobatga olinmagan edi.

Unda kerakli extiyojlar qondirilmagan. Masalan, agar extiyojlar nazariyasiga e'tibor beradigan bo'lsak, u holda quyidagi extiyojlarning qondirilmaganligining guvohi bo'lamiz.

1. Fiziologik extiyojlar – oziq ovqat, kiyim-kechakka nisbatan ehtiyoj va boshqa zarur moddiy ashyolar.

2. Xavfsizlikka extiyoj – o'z qadr qimmatiga ega bo'lish, kimgadir keraklilik, kimningdir himoyasida bo'lish xissi.

3. Mansublilikka ega bo'lish extiyoji – ma'lum bir insonning yaqini sifatida o'zini xis qilishi, ota-onadan ayriliq tufayli, o'z mansubligini xis qilmaslik xolati, mexrli va e'tiborli munosabatning maqjud emasligi, o'z real "Men" ining shakllantirilmaganligi.

4. Ijtimoiy, ma'naviy-ahloqiy ehtiyojlar – doimiy yaqin do'stlarga ega bo'lish, yagona muqim yashash joyiga ega bo'lish, ota va onaning bola ko'ngli va ichki dunyosiga nisbatan hurmati, bolaning takrorlanmas va o'ziga xos xususiyatga egaligi, uning ichki aqliy va xissiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga nisbatan ta'lim-tarbiyaviy ta'sir va h.z.

VI. GLOSSARY

VI. GLOSSARIY

ABSOLYUT ESHITISH QOBILIYATI – Tovushlarning aniq balandligini tinglash yordamida farqlay bilish qobiliyati. Mazkur qobiliyatga ega inson musiqani tez o‘zlashtiradi;

AVJ – bayoni va rivojida eng yuqori nuqta. O‘zbek musiqa merosining maqom, ashula, katta ashula kabi yirik shakldagi namunalarida bir necha xil Avjlar uchraydi. Bular o‘rta avj va katta avj deb nomlanadi;

AGOGIKA – musiqa ijrochiligida badiiy xususiyatni ko‘zlab asar suratini bir oz o‘zgartirish, tezlatish yoki sekinlatishga aytildi;

ADAJIO – Asarni og‘ir, vazmin, salmoqli suratda ijro etish belgisi;

AKKOMPANEMENT – (fr. Accompaniment, – jo‘r bo‘lish) – ashula aytganda yoki biror cholg‘uda chalganda unga jo‘r bo‘lish. A. Yakkaxon ashulachi yoki cholg‘uchiga garmonik va ritmik hamohang bo‘lib, musiqa asarining badiiy darajasini chuqurlashtiradi;

AKKORD – (fr. Accord – birdamlik) – turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarni bir vaqtida yangrashi.

AKT – (lat. *actus* – harakat) – musiqali drama, opera, balet, operetta va boshqa sahna asarlarining tugallangan bir qismi, pardasi. Sahna asarlari odatda bir necha Aktdan iborat bo‘lib, bular orasida tanaffus, ya’ni antrakt bo‘ladi. Ayrim sahna asarlari bir aktdan iborat bo‘ladi.

AKSENT – bir tovush yokiakkordni qattiq chalish, odatda taktning kuchli hissasida kelib, aksentli nota >, *sf*, √ kabi belgilar bilan ko‘rsatiladi; shuningdek aksent ritmik cho‘zimini orttirish orqali garmoniya, membr va kuy harakatini o‘zgartirish kabilarda qo‘llaniladi.

ALLA – sur’ati ohista va o‘rtacha kuydir. Odatda tebranuvchan, allalovchi, yoqimli xususiyati hukmron bo‘ladi. Alla ayollarimizning go‘daklarni uxlatish uchun beshik yoki belanchakni tebratib aytadigan qo‘shig‘i. O‘zbek kompozitorlari va bastakorlari cholg‘u allalar ham yaratdilar;

ALLEMANDA – Fransiyada XVII asrdan beri ma’lum qadimiy raqslardan, bu raqs $\frac{2}{4}$ yo $\frac{4}{4}$ o‘lchovida og‘ir, vazmin, sokin, bir tekis harakat bilan ijro etiladi. XVIII asrning oxirlariga kelib, u bitta yoki to‘liqsiz taktga (takt oldi) ega bo‘lgan; bundagi harakat uzlusiz bo‘lib, o‘n oltitaliklarda ko‘pgina polifonik rivojlovda kelgan, shu tufayli usullarning (ritm) jozibaligi aniq seziladi, bu raqs o‘z xususiyati bilan prelyudiyaga yaqin (cholg‘u pyesa).

ALLA BREVE – to‘rt chorakli o‘lchovda (4/4-S) yozilgan taktdagi notalarning har ikki choragi «bir» hisobidan, ya’ni takt (2/2-S) o‘lchovida sanalishini ko‘rsatadi. Alla breveda har bir takt ikki sanog‘ida kuchli va kuchsiz hissalaridaligini aniqlaydi. Alla breve so‘zлari nota yo‘lining boshlanishida kalit va alteratsiya belgilaridan so‘ng yoziladi:

ARIYA – (*ital. Aria – ashula*) – Ashula kabi kuychan, mukammallahsgan va keng ko‘lamli shaklga ega, odatda lirik va dramatik mazmunli tugallangan asar. Ariya asosan opera, musiqali drama, shuningdek kantata va oratoriyalarda qo‘llaniladi. Jiddiyligi, mazmunininig g‘oyaviy bir maqsadga egaligi bilan Ariya dramadagi monolog bilan tengdir. Shuning uchun ham ariya Ba’zida monolog deb yuritiladi.

BAYOT – Toshkent-Farg‘onada mashhur maqom yo‘llaridagi besh qismidan iborat yirik ashula turkumi. Navo maqomininng nasr bo‘limidagi yirik ashula yo‘llaridan biri;

BALABON – (bo‘lamon, bolabon, bolaman) – Qadimiy o‘zbek xalq cholg‘ularidan. Ko‘proq Xorazmda tarqalgan. Yog‘och asosan tutdan yasalib ichi kavlab bo‘shatiladi. Shakli surnayga o‘xshash, lekin kichikroq, uzunligi 300 mm. Bo‘lamoninng yuqori qismiga o‘rnashtirilgan «tili» qamishdan tayyorlangan. Bo‘lamonda sakkizta teshik mavjud bo‘lib, yettitasi ustki tomonda, sakkizinchisi pastki tomonda joylashgan. Orqa tomondagi teshik yuqorida bo‘lib, chap qo‘lning bosh barmog‘i bilan berkitiladi. Tovushqatori diatonik, kichik oktava re va re-bemoldan boshlab uch oktavaga yaqinlashib bordi;

BALAMAN – Til yordamida ijro etiladigan ozarbayjon xalq cholg‘usi. Bu cholg‘uni yasti balaman (Dog‘istonda yasti-balaban) deb ham yuritiladi. Balaman tut yoki o‘rik yog‘ochidan yasaladi. Balamanda 5 tadan 9 taga qadar teshikchalar bo‘lib, bulardan biri orqa tomonda (pastki qismida) joylashgan. Tovushqatori diatonik.

BALLADA – (*ital. ballade*) – adabiy-poetik janr bo‘lib, xalq o‘tmishi yoki o‘tgan davr haqida shehriy qissa. Qissa yoki hikoya qilib aytib berish xarakterida yozilgan cholg‘u, yo vokal musiqa asari. XII asrda raqs xarakteridagi xalq xorlarini Ballada deyilgan XIV-XV asrlarda lirik ashulalar shu nom bilan yuritilgan. XVIII-XIX asrlarda balladada hayoliy va ertak qahramonlari asosiy o‘rin egalladi. XIX asrdan boshlab vokal, qisman cholg‘u musiqa asarlari Ballada deb nomlandi;

BARITON (*ital. baritono*) – Bas va tenor tovushlari o‘rtasidagi erkaklar ovozi. Baritonning dramatik tenorga yaqin lirik va dramatik turlari bo‘lib, ovoz hajmi kata oktavadagi lya yoki si bemoldan birinchi oktavadagi sol yoki lya-bemolga qadar, notalari bas kalitida yoziladi;

BARKAROLA – (ital. *Barkarola, barca – ya’ni qayiq*) – qayiq haydovchi baliqchilar ashulasi. Venetsiyada keng tarqalgan. Mungli sadolardagi vokal yoki cholg‘u phesalardan ayrimlari shu nom bilan ataladi. Bunday asarlarda kuy va uning jo‘r qismida ko‘proq suv to‘lqinlari tasvirlanadi.

BAS – (ital. *Basso-pastki*) – Erkaklarning past (yo‘g‘on) tovushi. Katta oktavadagi fa birinchi oktavadagi faga qadar bo‘lgan oraliqdagi tovush. Ovozi keng ashulachilarda past va yuqori tomoni yana kengayishi mumkin. Notalar bas kalitida yoziladi. «Gulsara» operasida Alloma, «Layli va Majnun» operasidagi Domla, «Maysaraning ishi» operasidagi Qozi partiyalari Bas uchun yozilgan.

Yo‘g‘on tovush beradigan mis puflama cholg‘usi: ovoz hajmi bilan Tubaga yaqin.

BASTAKOR – (fors-toj. *Basta-bog‘lov, kor-ish, mashg‘ulot*) – *monodiya* uslubida asar (qo‘sishq, ashula, cholg‘u kuy)laryaratuvchi ijodkor. O‘zbek musiqa merosida Bastakorlik an’analari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. T.Jalilov, Y.Rajabiy, F.Sodiqov, K.Jabborov, G.Toshmatov, M.Mirzayev kabi bastakorlar bu sohadagi an’anani birmuncha kengaytirib nafaqat kuy, qo‘sishqlargina yaratib qolmay, musiqali drama, opera, kantata, oratoriya kabi janrlar rivojiga muhim xissa qo‘sishdi;

BAXSHI-SHOIR – do‘mbira yoki dutor jo‘rligida doston yo‘llarini ijro etish bilan birga, turli mavzularda o‘zлari ham shher va dostonlar yaratuvchilar;

BURRE, BURE – ikki hissali $\frac{4}{4}$ tez sur’atlar bilan ijro etiladigan qadimiy fransuzcha raqs (XVI asr). Bir choragida takt oldi (to‘liqsiz takt) kelishi tipik hodisa, ikkinchi va uchinchi hissalarining sinkopalanishi uchrab turadi. Burre – XVI asrdan ma’lum, xalq o‘rtasida qo‘llanib kelingan burre $\frac{3}{8}$ o‘lchovida bo‘lib, saroyda ijro etiladigani $\frac{4}{4}$ o‘lchovidir.

XVII asrga kelib kompozitorlar bu raqsni opera va balet tarkibiga kiritganlar;

BOLERO – XVIII asr oxirlaridan boshlab keng tarqala boshlagan, juft bo‘lib o‘ynaladigan ispan xalq raqsi. $\frac{3}{4}$ o‘lchovida chalinadi, tezligi o‘rtacha, raqsga kastanetalar (kichik hajmdagi urma cholg‘u asbobi) jo‘r bo‘ladi.

VALS – (fr. *false*) – ikki kishidan bo‘lib, ohista o‘ynaladigan raqs.

Musiqa o‘lchovi $\frac{3}{4}$ da bo‘lib, tez, o‘rtacha tez va vazmin sur’atlarda bo‘ladi. Vals Avtriya, Chexiya va Germaniya xalqlari raqsi asosida 18-asrning ikki yarmidan boshlab qo‘llaniladi. 19-asrda esa Yevropaning hamma mamlakatlarida keng tarqaldi. Vals cholg‘u asboblari bilan va vokal holida bo‘lishi mumkin. Vals musiqali sahna asarlari (opera, balet, operettalar) da qo‘llanila boshladи. Shuningdek fortepiano, simfonik orkestr uchun valslar yaratiladi.

VARIATSIYA – Musiqa asari mavzui, kuy yoki jo‘r qismining turlanishi. Tez sur’atda jonli va yakka ijro etiladigan mumtoz raqs.

VIBRATSIYA (lot. Vibratsio – titrash, qaltirash) – tovushni to‘lqinlatish. Torli cholg‘ularda barmoq bosilgan pardani qimirlatib turish yo‘li bilan Vibratsiya hosil qilinadi. Ashula aytishda esa Vibratsiya tovush beruvchi apparatni harakatga keltirib turish yo‘li bilan olinadi. Vibratsiya tovushi o‘ziga xos rang-baranglikka ega bo‘ladi.

VIRTUOZ (ital. virtuoso, lot. virtuz – talant, virtuoz) – musiqa asarlarini zo‘r mahorat bilan ijro etuvchi sozanda. Odatda virtuozlar murakkab, tahsirchan musiqa asarlarini chaladilar. Bunday musiqa asarlari ko‘p hollarda etyud va konsert shakllarida bo‘ladi.

VOKALIST – ashulachi. Odatda bu atama maxsus mактаб (musiqa ta’lim muassasalarida) tahsil olgan ashulachilarga nisbatan qo‘llaniladi.

VOLTA – (ital. Volta – volta) – bir nota yozuvida musiqa asarining ma’lum qismini qayta takrorlashda turlicha tugatish uchun qo‘yiladigan belgi. Qaytariladigan qismning tugallanishi har safar turlicha bo‘lishi mumkin. Bu holda tugallanishda o‘zgartiriladigan notalar ustiga 1,2 raqamlari qo‘yiladiki, bu ishora «birinchi takror uchun», «kikkinchi takror uchun» degan ma’noni anglatadi. Agar musiqa asarining o‘rta qismi qaytarilishi lozim bo‘lsa, takror belgisi takrorlanishi lozim bo‘lgan notaning har ikki tomoniga qo‘yiladi;

VODEVIL – 1. Musiqa jo‘rligida ijro etiladigan yengil hajviy asar. 2. Hajviy opera va pyesalarda sahnada qatnashuvchilarning hammasi tomonidan ijro etiladigan naqarotli qo‘sish, bu ashula satirik yoki kulgili bo‘lib, sahna asari oxirida aytildi;

GAMMA – oktavadan kam bo‘lmagan oraliqdagi tovushqatorning bir tekis ko‘tarilishi yoki pasayishi. Gamma yunonlarda uchinchi har nomi bo‘lib, u bilan o‘rta asrdagi eng pastki tovush, ya’ni katta oktavadagi sol (G) tovushi ko‘rsatilgan.

GARMONIYA – (yun. Garmoniya – bog‘lanish, ohangdoshlik) – bir yo‘la eshitiladigan bir necha tovushlarning o‘zaro bog‘lanishda kelishi, Garmoniya faqat bir tonallikka bo‘lgan tovushlar ohangdoshligini ta’minlabgina qolmay, tonalliklararo ohangdoshlikni ham ta’minkaydi. Ohangdoshlikning asosiy turi akkorddir. Garmoniya musiqa madaniyatining tobora yuksalishi tufayli o‘zgarib, boyib bormoqda. Turli millat xalqlari kompozitorlari xilma-xil Garmoniyalarni yaratganlar.

GOPAK – sho‘x va chaqqonlik bilan ijro etiladigan ukrain xalq raqsi. Takt o‘lchovi 2/4. Gopakning yakka, juft va ko‘pchilik bo‘lib ijro etiladigan turlari mavjud.

DAVRIYA – Tugallangan kichik bir musiqa tuzilishi bo‘lib, bu turlicha kadanslar bilan tugallangan ikki jumlaning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Bu kadanslardan birinchisi yoki savol bilan tugallanuvchi (ko‘proq yarim kadans holatida) bo‘lib, ikkinchisi javob beruvchi mukammal tugallangan kadans holatida keladi. Bahzan takroriy struktura, ya’ni har ikki jumla bir turli kuy asosida bo‘lsa, bahzan takrorlanmaydigan struktura, ya’ni har ikki jumla turlicha kuy asosida keladi. Davriyadagi jumlalar teng masofada bo‘lganidek, kengaytirilgan Davriyada ikki jumla birinchisiga nisbatan uchun bo‘ladi. Agar davriya boshlang‘ich tonalikda tugalansa – bir tonallik Davriya agar ikkinchi jumladan kadans birinchisiga nisbatan boshqa tonallikda o‘tsa – modulyatsiyalanuvchi Davriya deb ataladi.

DAROMAD (fors. – kirish) – boshlang‘ich qism. Ashulaning boshlang‘ich qismi. Pastki (bosh) pardalarda chalinadigan (aytiladigan) bo‘lagi. Daromad termini ko‘proq yirik shaklli ashula («Ko‘cha bog‘i», «Giry» va boshqa) katta ashula va maqom yo‘llariga nisbatan qo‘llaniladi;

DETASHE – (fr. *detashe, detucher* – **bo‘lish, ajratish**). Torli-kamonli cholg‘ularda har bir tovush kamonchani bir tomon (past yoki yuqoriga) tortilishida ijro etish;

DIAPAZON – (yun. *Diapason* – **hamma torlararo**) – ashulachilarning ovozi, cholg‘ular, tovushqator, lad, kuy, v.b.ning tovush hajmi. Ovoz va musiqa cholg‘ularidagi eng pastki va eng yuqorigi tovush oralig‘i (intervali);

DIATONIKA (yun. *diatonikos* – **bir tondan ikkinchi tonga o‘tish**) – laddagi asosiy pog‘onalardan tuzilgan qator musiqa tovushlari. Tabiiy major, minor va o‘rta asr ladlari uchun asos bo‘lgan asosiy yetti pog‘onadagi ton va yarim tonlar Diatonikaga kiradi;

DINAMIKA (yun. *dinamikos* – **kuchli**) – musiqa tovushlarining qattiq-sekin ijro qilinishi. Dinamikada tovushni turlicha chiqarish, ya’ni bir yo‘la qattiq yoki sekin, asta-sekin kuchaytirish yo sekinalashtirish, ayrim

tovushlarni alohida tahkidlab (qattiq) eshittirish v.b. bo‘lishi mumkin. Dinamikaning asosiy turlari forte (forte nota yozuvida qisqartirib – **f** deb yoziladi.) – qattiq, kuchli; piano (piano, nota yozuvida qisqartirib – **p** deb yoziladi.) – sekin;

DIRIJJYOR – (fr. diriger – boshqarish, yo‘lga solish) – musiqa asarini ijro etuvchi jamoalar (solistlar, xor, orkestrlarga rahbarlik qiluvchi san’atkor.) Diriyyor musiqa asarini ommaviy ijrosiga qadar ijrochi jamo bilan bo‘lgan hamma tayyorgarlik (repetitsiya)ni olib boradi. Asosiy ijro vaqtida esa asarning ijro tezligi, dinamika tuslari, ayrim to‘da yoki yakka ijrochilarini to‘xtash yoki ijro qilish vaqtalarini ko‘rsatib turadi. Jamoani birlashtiradi, asarni badiiy ijrosi uchun harakat qiladi. Diriyyor o‘ng qo‘lida kichik tayoqcha ushlab, musiqa asaridagi taktlarning birinchi kuchli sanog‘ini pastga tushirish bilan ko‘rsatib turadi. Yuz, qo‘l, bosh va gavda harakatlari va mimikalar bilan asar mohiyatini ko‘rsatib, qanday ijro etilishini bildiradi;

DISKANT – Bolalarning baland tovushi. Birinchi oktavadagi do dan ikkinchi oktavadagi sol oralig‘idagi ovoz. Vokal ansambl xorda yo bolalarning, yo xotin-qizlarning yuqori (soprano) ovozi partiyalari;

DISSONANS – (fr. dissonanse lot. dissono – sozlanmagan tovush) – tinglovchini bezovta qiluvchi, go‘yo o‘zaro qovushmagan (munofirat) tovushlar. Katta va kichik sekunda, septima va nona, orttirilgan kvarta (uchtonlik), kichraytirilgan kvinta intervallari Dissonansga kiradi. Dissonans o‘tkirlik, keskinlik, qayg‘u-uqubat va boshqa shu kabi holatlarni ifoladaloushda kuchli quroldirkni, bu hayajonli holatlar yuqori nuqtaga ko‘tarilib, so‘ng emotsional ohista va muloyim tovushlarda ochilishi, ya’ni konsonans (muloyimat)ga o‘tishi bilan to‘la bir obraz gavdalantiriladi. Dissonansni o‘rinsiz, haddan tashqari ko‘p qo‘llanishi formalistik musiqaga xos bo‘lgan behmanilikka olib boradi;

DOMRA – torli tirnama rus xalq cholg‘usi. Domra uch bo‘lakdan iborat: kosa (korpus), dastasi (grif) va bosh qismi. Kosaga qoplanadigan qopqoq faqat archa daraxtidan tayyorlanadi. Qopqog‘ining markazi qismida tovush beruvchi teshikchalar bo‘ladi. Bu teshikchalarning o‘ng tomonida kosa ustiga qattiq yog‘ochdan qilingan qobiq qoplangan. U qopqoqni ternalishidan saqlaydi. Kosa avrang (klyon) yoki qayindan tayyorlangan yettita bo‘lak taxtachadan iborat. Domrani bo‘g‘zi ham qayindan, dastasi qattiq yog‘ochdan yasaladi. Dastada yarim ton oralig‘ida tuzilgan 18 ta parda bor. 2,5,7,10 va 12 pardalar oralig‘ida sadaf tugmachalar o‘rnashtiriladi. Domra 1-asrning oxirlarida V.V.Andreyev uch

torli Domrani qayta ishlab, uning katta-kichik turlarini yaratdi va rus xalq cholg‘ulari orkestriga kiritdi;

JAZ – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Amerikada paydo bo‘lib, tez tarqalgan bal raqsidir. Jazga Amerika negrlari musiqasining ritm, lad, cholg‘ulash, tovush chiqarish kabi xususiyatlari tafsir qilgan. Jaz musiqasining ko‘p tarqalgan turlari: fokstrot, bliz, charlston, tango, rumba, bugi-vugi kabilar.

JIGA – o‘lchov miqdori uch hissali, ya’ni $\frac{3}{8}, \frac{6}{8}, \frac{9}{8}, \frac{12}{8}, \frac{3}{4}, \frac{6}{4}, \frac{12}{16}$ bo‘lgan inglizlarning qadimiylar raqsi, bu raqs juda tez va jonli ijro etiladi. XVII-XVIII asrlardagi to‘rt qismidan iborat bo‘lgan raqs syuitalarida jiga oxirgi, to‘rtinchisi qismida kelgan;

KADENSIYA – 1. Tartibli holatda eshitilayotgan musiqaning tugallangan, bir maqsadga kelib to‘xtagini yoki musiqa asarining butunlay tamom bo‘lgani bo‘lib, buni boshqacha kadans deb ham ataladi. Kadensiya musiqa asarini faqat tugallanganligini aniqlab qolmay, bo‘laklarga ham bo‘ladi:

a) mukammal kadensiya, ya’niakkordlar asosiy holatda va birinchi pog‘ona tonika uchtovushligining kuysimon holatda tugallanishi;

b) nomukammal kadensiya, ya’ni yuqoridagi tartiblarga to‘g‘ri kelmaydigan holatda tugashi;

v) to‘la kadensiya, ya’ni tonika uchtovushligi bilan tugashi;

g) yarim kadensiya – dominanta, subdominantaakkordida tugallanishi.

2. Virtuozi shaklida bo‘lgan musiqa asari – odatda cholg‘u konsertida biror qismi yoki xotimasining improvizatsiya xarakterida tamom bo‘lishi. Kadensiyada yolg‘iz bir cholg‘u asbobi – chang, g‘ijjak, rubob, skripka, fortepiano ijro etib, orkestr yo ansambl jo‘r bo‘lmaydi;

KADRIL – Ovro‘po xalqlarining ko‘p qismida tarqalgan raqs, musiqa o‘lchovi $\frac{2}{4}$ bo‘lib, 5-6 xil harakatlardan iborat, bu harakatlarning har biri o‘z nomiga ega bo‘lib, o‘ziga xos jo‘r bo‘luvchi musiqasi bor. XVII asrning oxiridan XIX asr oxiriga qadar kadril keng tarqalgan raqslardan bo‘lgan. Kadril turli nomlar bilan rus, ukrain, belorus, litva, latish va eston xalqlarida tarqalgan. Rus xalqi o‘rtasida kadrilning turli holatlari ham mavjud;

KAMARINSKAYA – tez sur’atda, xushchaqchaqlik bilan ijro etiladigan rus xalq raqsi bo‘lib, $\frac{2}{4}$ o‘lchovda keladi. Odatda kamarinskaya raqsi bir necha marta turli holatlarda qaytariladi. Rus kompozitorlari simfonik orkestr va fortepiano uchun shu nom bilan pyesalar yaratdilar.

KANSONA – XV-XVI asrlarda polifonik tuzilishda bo‘lgan ko‘povozli ashula, milliy kolorit (xususiyat, belgi) saqlanib yozilgan sodda musiqa asari XVI asr oxirlarida richerkar yoki fuga tipidagi (xilidagi) kichik cholg‘u pyesa ham shu nom bilan atalgan. XIX-XX asrlardan boshlab «so‘zsiz qo‘shiq» darajasidagi kuyni kansona deyilgan.

KANON – 1. Bir kuyni bir necha ovozda oldin-keyin qaytariladigan ko‘povozli musiqa asari. Kanondagi kuy bir ovozda tugallanmasdan ikkinchi ovozda boshlanadi (imitatsiya usuli asosida); ikkinchi, uchinchi ovozlarda kuy deyarli hech qanday o‘zgarishsiz qaytarilsada, ritmik jihatdan Ba’zi bir o‘zgarishlar bilan ham kelishi mumkin (kvinta, oktava intervalida). Kanonning qo‘shkanon turi ham bor, bunda bir yo‘la turli ovozlarda ikkita kuy qaytariladi, kanon imitatsianing bir turi. 2. Barmoqlar bilan tirnab chalinadigan arman xalq torli cholg‘u asbobi;

KATTA (MAJOR) UCHTOVUSHLIK – eng yaqin oraliqda (tersiya bo‘yicha kelgan holatda), pastdan katta, so‘ng kichik tersiya hosil qilgan uchtovushlik. Bu tersiyalar yig‘indisi sof kvintani ($3\frac{1}{2}$ t.) tashkil etadi. Katta uchtovushlik major uchtovushligi deb ham ataladi.



KLAVIR – 1. Vokal-simfonik musiqa asarlarining (opera, oratoriya, kantata) ovozlar va fortepiano yoki yolg‘iz bir fortepiano uchun moslab ko‘chirilgan nusxasi. 2. Klavishli-torli cholg‘u asbobining nemischa atalishi.

KONSERT – 1. Simfonik orkestr yoki xalq cholg‘ulari orkestrining (ansamblining) jo‘rligida yolg‘iz bir cholg‘u asbobi yoki ovoz uchun yirik shaklda yozilgan musiqa asari. Konsert ko‘proq uch qismdan iborat bo‘ladi, birinchi qism – dramatik xususiyatda, tez ijro etiladi, sonata allegrosi shaklida; ikkinchi qism – lirik xususiyatda, salmoqli (andante) sur’atda, uch qismli shaklda bo‘ladi; uchinchi qism – final, tantanali raqs tarzida (rondo shaklida) yoziladi. 2. Musiqa asarlari va raqlarni ko‘pchilik oldida ijro etilishi, bunday konsert simfonik orkestr, ashula va raqs, xalq cholg‘ulari

orkestri (ansambl) xalq ijodiyoti (folklor), kamer hamda bayram konsertlari shaklida bo‘lishi mumkin;

KONTRAPUNKT – 1. O‘ziga xos ohangdorlikka ega bo‘lgan ikki yo bir necha kuyning bir yo‘la kelishi, ya’ni ko‘povozlik. 2. Asosiy mavzu bilan bir vaqtida eshitiladigan kuy. 3. Tovushning kontrapunkt holatiga kelishini o‘rganuvchi fan bo‘lib, ular qathiy uslubdagi va erkin uslubdagi kontrapunkt bilan ikki turda qo‘llaniladi: murakkab kontrapunkt; gorizontal harakatchan kontrapunkt; vertikal harakatchan kontrapunkt; qo‘shaloq kontrapunkt; uchlik (uch mavzuli) kontrapunkt; uchlik fuga; qo‘shaloq fuga; polifoniY.

KURANTA – qadimiy fransuz raqsi, dastlab $\frac{2}{4}$, keyin $\frac{3}{4}$ o‘lchovida bo‘ladi, o‘rtacha va tez sur’atda jonli harakatlar bilan ijro etiladi. XVII-XVIII asrlarda to‘rt qisqli raqs syuitasining ikkinchi qismi kuranta bo‘lgan, tipik sur’ati ;

LEZGINKA – Dog‘iston va umuman Kavkaz xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan raqs. Lezginka jonli, tezlashib boradigan raqs, takt o‘lchovi ikki hissali (asosan $\frac{6}{8}$ da) bo‘lib, ko‘proq sinkopali holatda keladi.

LYAVOXINA – xushchaqchaq, yengil belorus raqsli xalq qo‘shig‘i, sur’ati tez, takt o‘lchovi $\frac{2}{4}$, ritmik harakati bilan tekis nimchorak hisobida boradi;

MADRIGAL – oldin bir ovozli, XVI asrdan ko‘p ovozli bo‘lib aytila boshlangan qo‘shiq (ansambl, xor) – xor, bu ko‘proq Italiya, so‘ng Angliyada keng tarqaldi. Madrigal ko‘proq lirik-psixologik mazmunda rivojlangan. Madrigal badiiy jihatdan rivojlangan bo‘lishi bilan boshqa ashula-xorlardan farq qilgan.

MAZURKA – ritmi juda ravshan va xarakterli bo‘lgan polyak xalq raqsi. Takt o‘lchovi $\frac{3}{4}$, $\frac{3}{8}$ bo‘lib keladi. Mazurka sur’ati turlicha, ya’ni salmoqli sur’atdan tezroq ijro etilishigacha boradi. XIX asrdan boshlab mazurka Ovro‘poda bal raqsi sifatida keng tarqaladi, mazurka musiqa janri sifatida opera, balet, cholq‘u musiqalarida qo‘llaniladi;

MARSH – harbiy yurishlarda, paratlarda ishtirok etuvchilarni ruhlantirish, ularning hissiyotlariga tahsir etish maqsadida yozilgan musiqa asari. Marshning takt o‘lchovi $\frac{2}{4}$, $\frac{4}{4}$, $\frac{6}{4}$ bo‘lib, ravon ritmda, kuyi ravshan

bo‘ladi. Marshning sur’ati va musiqa xususiyati bilan bir-biridan ajraladigan turlicha xillari bor. Masalan, parad marshi, yurish marshi, tantanali marsh, motam marshi kabi. Marsh janridan opera, balet, simfonik musiqa asarlarida ham foydalilaniladi. Konsertlarda ishtirok etish va ashula qilib aytishda ham marsh musiqasi qo‘llaniladi.

MENUET – tekis harakatlar bilan salmoqli sur’atda ijro etiladigan qadimiy fransuz xalq raqsi. Takt o‘lchovi uch hissasi, menuet cholg‘u musiqasida qo‘llanila boshlangandan so‘ng jonli xususiyat va tez sur’atga ko‘chadi. XIX asrning dastlabki yillariga qadar tsiklli sonata (davrli sonata) shaklida yozilgan simfonianing uchinchi qismi va boshqa cholg‘u musiqa asarlaridagi menuet o‘rnini skerso egalladi. Menuet – XVIII asrning boshlarida paydo bo‘lgan, takt o‘lchovi $\frac{3}{4}$, $\frac{3}{8}$, sokin, nihoyatda sekin sur’atli raqs.

MINOR, MINOR LADI – turg‘un tovushlardan kichik (minor) uchtovushligi hosil bo‘ladigan lad, minorni ikkinchi turda (moll) deb ham ataladi, bu turg‘un uchtovushlikka boshqa noturg‘unlari tortiladi. Minorda yetti pog‘ona bo‘lib, bulardan I, III, V pog‘onalari turg‘undir, minorning turlari – tabiiy minor, garmonik minor va melodik (kuysimon) minordir.

MORDENT – uch notaning tez chalinishini ko‘rsatadi. Mordent belgisi (yoki) notalar ustiga yoziladi, unda asosiy tovush, yordamchi tovush (bir pog‘ona yuqori yo past turgan) va yana asosiy tovush ijro etiladi. Oddiy mordentlardan tashqari ikki karrali, chizilgan mordentlar ham bo‘ladi;

MOTIV – 1. Musiqa mavzusini ifodalovchi kichik bir musiqa bo‘lagi – ohangi. Motiv odatda kuchli hissaga ega bo‘lgan taktdan iborat bo‘ladi. 2. Musiqa asarini qayta kengaytirib ishlanishida ma’lum xususiyatga ega bo‘lgan mavzuning xususiyatlari qismi;

ROMANS – 1. Bir ovoz uchun vokal asar, romans turli mavzu, xususiyat va tuzilishda bo‘lishi mumkin. Ko‘proq lirk yoki lirk-dramatik bo‘lib, cholg‘u asboblari jo‘rligida ijro etiladi. XIX asrda Rossiyada romans juda keng tarqaldi. O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari ham ko‘plab romanslar yozdilar. 2. Vokal musiqasidan olinib, yolg‘iz musiqa asboblari uchun yaratilgan ohangdor kuylar;

NOKTYURN – murakkab uch qismli shakllarda chekka qismlar sur’ati deyarli har doim vazmin yoki allegrettodan sekinroq, o‘rtacha darajada bo‘ladi. O‘rta qismlarda bahzan jonlanish sodir bo‘lib, u hatto shiddatli harakatga aylanib ketishi mumkin.

b						
ir		o				
i	'					
n		r	r			
c		t	e			k
h			p			
i	+	a	r		→	o
d			i			d
a		q	z			a
v		i				
ri		s	a			
y		m				
a						

Noktyurn – XIX asr boshlarida tarqalgan lirik xususiyatdagi pyesadir, u ko‘proq hayol, orzularni tarannum qiluvchi cholg‘u musiqasi. Noktyurnning vokal turi kam uchraydi, keyingi paytda cholg‘u asboblari va ansambllar uchun ham yaratilgan turlarini ko‘rish mumkin;

NOTASIYA – maxsus grafik belgilar vositasida musiqa asarlarini yozish yo‘li.

NYUANS – tovush ohangdoshligi, musiqada dinamik o‘zgarishlar va tovushlarning eshitilish xususiyatini o‘zgartirish belgilaridir, bular aksari italyan tilida yoziladi: dolce – mayin, muloyim; appassionate – serzavq; energio – qattiq, jurhatli. Nyuansni qo‘llash (nyuansirovka), ijro etiladigan musiqa asarining shakli, ayrim joylarini bo‘rttirish yoki aksincha, sekin berilishiga, hamda ijrochilik mahoratiga bog‘liq.

ODA – biror shaxs yoki biror voqeaga bag‘ishlab, maqtov tariqasida yozilgan tantanali xususiyatdagi musiqa asari. Oda atamasi badiy adabiyotdan olingan, oda – qasida o‘zbek kompozitorlari tomonidan ham yaratildi, unda xor, yakka bariton ovozi va simfonik orkestr ishtirokida sahnalaشتirildi;

OLYANDRA – moldovanlarning xor jo‘rligida ijro etiladigan qadimiy xalq raqsi, raqs bir tekis ijro qilinishi bilan xarakterlidir. Musiqa o‘lchovi $\frac{3}{8}$, o‘rtacha tezlikda o‘ynaladi. Olyandra ko‘proq xotin-qizlar tomonidan ijro etiladi. Olyandra dehqonlar to‘yida birinchi tantanali raqs sifatida ham ijro qilinadi.

OPERA – musiqali dramatik asar. Operada nutqning ma’lum bir qismi yoki deyarli hammasi kuyylanadi. Boshlanishidagi muqaddimasi,

pardalar oralig‘ida chalinadigan antraktlardan tashqari, ariya, ariozo, duet, tertset, kvartet, xor, rechitativlarni o‘z ichiga oladi. Dramaturgiya, tasviriy san’at, ya’ni dekoratsiya, kostyum va xoreografiya (raqs) operada salmoqli o‘rin egallaydi. Opera XVI asrning oxirlarida Italiyada paydo bo‘lgan, opera tarixiy-qahramonlik, tarixiy-romantik, epik, xalq hikoya afsonalari, lirik, dramatik, hajviy kabi janrlarda yaratiladi. Shunga ko‘ra, opera-buffa, opera-vodevil, opera-seria kabi nomlar bilan ataladi. O‘zbekiston kompozitorlari tomonidan ilk operalar yaratilishi 1939 yildan boshlandi;

ORATORIYA (ital. oratoria, lot. ogo – so‘zlayman) – kantataga o‘xshash yakkaxon ashulachilar, xor va simfonik, bahzan xalq cholg‘ulari orkestrlari uchun yozilgan ko‘p qismli yirik musiqa asari. Oratoriya odatda dramatik mavzuda bo‘lsada, sahnada ko‘rsatish uchun emas konsertlarda ijro etish uchun mo‘ljallangan. Oratoriya kantatadan hajmi jihatdan kattaligi, epik-dramatik xarakterda bo‘lishi, mavzuning kengligi bilan farq qilsa, operadan dramatik rivoj o‘rniga qissasimon bo‘lishi bilan ajraladi. Oratoriyada ariya, rechitativ, vokal ansamblari, xor qatori, cholg‘u musiqalari ham bo‘ladi. Oratorianing lirik-epik mavzusini ochib berishda xor va cholg‘u musiqa katta o‘rin tutadi. Oratorianing har bir qismi o‘ziga xos, mustaqil tugal bir asardek bo‘ladi.

PASTORAL – 1. Qishloq hayotidan olingan, idilliya mavzuidagi, ya’ni osoyishta turmushni tasvir etuvchi kichik opera, pantomima, balet. XVII-XVIII asrlarda saroy san’atida pastoral katta o‘rin egallagan;

2. Ma’lum rejada tasviriy xususiyatda qishloq turmushi, tabiat ko‘rinishlarini tasvirlab beruvchi cholg‘u pyesa yoki tsiklli asar-sonata, konsert, simfoniya;

PENTATONIKA – oktava oralig‘idagi turli balandlikka ega bo‘lgan besh tovushli tizim. Pentatonika xitoy, shotland, mo‘g‘ul, koreys, yapon kabi xalqlar musiqasi uchun xususiyatlari.

POLONEZ – qadimiy polyak raqsi, raqs tezroq yuriladigan qadamlar bilan tantanali ijro etiladi. XIX asrda polonez konsertlarda ijro etilishini mo‘ljallab, cholg‘u asboblari uchun yozildi va bu keng tarqaldi. Rus kompozitorlari operalarida polonez raqsini qo‘lladilar. Polonezning

o‘lchovi $\frac{3}{4}$ bo‘lib, ritmik shakli quyidagicha:



POLKA – chex xalqining qadimiy raqsi bo‘lib, bir juftdan doira bo‘lib ijro etiladi, musiqa o‘lchovni $\frac{2}{4}$. Raqs sho‘x va jonli bo‘lib, XIX asrda butun Ovro‘poda bal raqsi sifatida kompozitorlar ijodiyotida ma’lum o‘rin egalladi;

POLIFONIYA – ko‘povozli musiqa turi, har bir alohida mustaqillikka ega bo‘lgan bir necha kuyning garmonik qo‘silib, murakkablashib rivojlanishi. Polifoniyadagi ovozlar turli ohang (intonatsiya), ritm, avj-cho‘qqi, kadanslar hatto dinamik belgilar – tuslar va tembrlarda bo‘lishlaridan qatoiy nazar, bular qo‘silib bir umumiyl eshitilishga bo‘ysunadilar. Musiqa tuzilishida polifonianing ahamiyati juda muhim, chunki bundagi kuy, ritm, lad va garmoniyalar o‘zaro uzviy bog‘liq holda rivojlanadi, shuning uchun ham musiqa janrlarining turli shakllari (fuga, invensiya, kanon)da polifonik tuzilishlarda qo‘llaniladi. Kontrapunktli, imitatsiyaga asoslangan invensiyali polifoniyalar bo‘ladi. XX asrning 20-yillarda o‘zbek xalq kuylarini garmoniyalashda polifoniya shakllaridan foydalanildi.

PRELYUDIYA – cholg‘u pyesa, dastlab ijro etiladigan asosiy musiqa oldidan keladigan sarahbor (daromad), ya’ni kichik pyesa, muqaddima, XV asrdan boshlab lyutiya, keyinroq klavesin va organ cholg‘u asboblarini chaluvchi sozandalar o‘rtasida tarqala boshladi. XVI-XVIII asrlardan boshlab prelyudiya tsikli cholg‘u asarlar (prelyudiya va fuga tsikllarida boshlovchi qism) sifatida qabul qilindi. Kompozitorlar prelyudiya nomi bilan fortepiano uchun kichik hajmdagi cholg‘u pyesalar yaratdilar;

PYESA – 1. Teatr sahnasida ko‘rsatishga mo‘ljallab yozilgan dramatik asar. 2. Yolg‘iz bir cholg‘u asbobi yoki ansambl uchun yozilgan cholg‘u musiqa. Odatda, kichik hajmda fortepiano, skripka va ansambllar uchun pyesalar yoziladi;

RAQS – keng ommalashgan, nafis harakatlar va ma’lum bir ritmik tuzilishlar bilan badiiy obraz yaratishga asoslangan san’atning bir turi. Raqsdagagi gavdaning muloyim va nafis harakatlari (plastik) hamda ritmik harakatlar musiqa bilan chambarchas bog‘liq holda davom etadi.


REZONANS – aks sado; asosiy tovush beruvchi jismning boshqa tovush beruvchi jismlarni to‘lqiniga keltirish bilan tovushning kuchayishidir;

REKVIEM – motam kuyi, marhumlar xotirasiga bag‘ishlab yaratilgan vokal yoki vokal-cholg‘u musiqa asari. XVIII-XIX asrlar buyuk kompozitorlar yaratgan rekviemlar konsert estradalarida ijro etiladigan

davr bo‘ldi. Rus kompozitorlari ijodiyotida rekviemni xalq qahramonlariga bag‘ishlab yozilgan oratoriya va kantatalarda uchratish mumkin.

REPETISIYA – mashq tayyorgarlik. Konsertlarda ijro etiladigan musiqa asarlari yo sahnada ko‘rsatiladigan sahna asarlarini rasmiy ijrosi oldidan o‘tkaziladigan tayyorgarlik. Tayyorlanayotgan asarning oxirgi bosh (general) repetitsiyasi odatda bevosita rasmiy ijrodan avval o‘tkaziladi.

REPRIZA – 1. Musiqa asarining ayrim qismini qaytarib ijro etish uchun qo‘yiladigan belgi, u qaytarib chalinadigan parchaning har ikki



tomonidan qo‘yiladi:

Repriza nuqtalari, nota chizig‘ining 2-3 va 3-4 chiziqlari oralig‘ida qo‘yiladi. Agar qaytariladigan qismning oxiri ikkinchi marta o‘zgarib kelsa, u holda bularning ustiga raqamlari qo‘yiladi:



2. Sonata shaklida rivojlovdan so‘ng keladigan oxirgi asosiy qism. Repriza ekspozitsiyada bosh mavzuga nisbatan bosh va bir tonallikda keladi. Reprizaning berilishidan maqsad – sonatadagi asosiy musiqa obraziga (tarz) yakun yasash va asosiy g‘oyani tasdiqlab olishdir.

Oddiy uch qismli shakldagi musiqa asarida birinchi qismning o‘zgarishsiz qaytarilishi;

RIGODON – tez ijro etiladigan fransuzcha raqs (XVII-XVIII asr), u alla breve o‘lchovida, bir chorakda takt oldi bilan keladi. To‘rt chorakli

o‘lchovda $\frac{4}{4}$ (S) yozilgan taktdagi notalarni har ikki choragi «bir» hisobidan, ya’ni takt $\frac{2}{2}$ (S) o‘lchovida sanalishini ko‘rsatadi, xususiyati

jihatidan burrega yaqin.

ROMANS – 1. Bir ovoz uchun vokal asar, romans turli mavzu, xususiyat va tuzilishda bo‘lishi mumkin. Ko‘proq lirk yoki lirk-dramatik bo‘lib, cholg‘ular jo‘rligida ijro etiladi. XIX asrda Rossiyada romans juda keng tarqaldi. O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari ham ko‘plab romanslar yozdilar. 2. Vokal musiqasidan olinib, yolg‘iz musiqa cholg‘ulari uchun yaratilgan ohangdor kuylar;

RONDO – bosh mavzuni bir necha bor, turli mazmundagi lavha (epizod)lardan so‘ng har doim qaytarilishidan tuzilgan musiqa shakli.

Rondoda bosh mavzu kamida uch marta asosiy tonallikda qaytarilishi shart. Oraliqda kelgan yangi mavzular turli tonalliklarda bo‘lishi mumkin, qaytariladigan asosiy kuyni – refren, yangi keladigan mavzularni – kuplet deb ham ataladi. Rondoning keng tarqalgan turi besh qismlidir: A+V+A+S+A. Sonata tsiklidagi musiqa asarlarining oxirgi final qismi ko‘proq rondo shaklida yoziladi. Rondoni ikki va uch qismli shakllar bilan taqqoslab, rondoni bir qancha qismlarini bir-biriga qo‘sish yo‘li bilan shaklni shakllantirish deb tushuniladi;

RUMBA – XIX asrning 20-yillarida Amerikada va G‘arbiy Ovro‘poda keng tarqalgan Meksika bal raqsi. Rumbaning keskin sinkopalik ritmi Kuba xalq raqsidan olingan, musiqa o‘lchovi $\frac{4}{4}$, sur’ati salmoqli boshlanib, oxiriga borib tezlashadi; rumba jaz musiqasining bir shakli hisoblanadi

SARABANDA – Ispaniyaning qadimiylaridan xalq raqsi, musiqa o‘lchovi $\frac{3}{4}$, $\frac{3}{2}$, uch hissali, tipik usullari $\text{d} \quad \text{d.} \quad \text{d} \parallel \text{d} \quad \text{d} \quad \text{d} \parallel \text{d} \quad \text{d} \quad \text{d} \parallel$ kabi, ular kadensiyalarda $\text{d.} \quad \text{d} \quad \text{d} \parallel$ ko‘rinishda keladi. Raqs emotsiyalardan zavqli xususiyatda bo‘lgan. XV-XVI asrlarda sarabanda komediya boshlanishi oldidan o‘ynalgan. XVII-XVIII asrlarda balet sahnalarida qo‘llanila boshlandi;

SOLFEDJIO, SOLFEDJO – eshituv malakasini yuksaltirish va notaga qarab ularni tez o‘qishni o‘rganish uchun o‘tkaziladigan vokal mashq. Solfedjio musiqa diktantlari yozish, musiqa asarlari va turli mashqlarni notaga qarab, nota nomini aytib kuylash tariqasida olib borilishi mumkin. Solfedjio atamasi sol-fa nota nomlaridan olingan;

SONATINA – kichik sonata, kichik hajmdagi sonata. Sonatina sonatadan ma’no jihatdan oddiyligi, kichik masshtabliligi, ijro etilishi birmuncha yengilligi bilan farq qiladi. Sonatina o‘quv repertuarlarda, konsert estradalarida ham ijro etib turiladi.

STRETTO – musiqa asari sur’atini tezlatish, jadallashtirish; fugada mavzuning bir necha tovush bilan zich eshitilishi; musiqa asarining oxirgi epizodi;

TAMBURIN – fransuzcha raqs bo‘lib, o‘lchovi $\frac{2}{2}$, $\frac{2}{4}$ kabi, bu raqs tez va jonli ijro etilib, raqsga fleyta (chang) va tamburinlar (nog‘ora) jo‘r bo‘ladi, shunga ko‘ra, raqs nomi ham cholg‘u nomi bilan atalgan, musiqa

adabiyotlarida buben shu nom bilan yuritiladi. Tamburin uncha katta bo‘limgan cho‘ziqroq nog‘ora shaklidagi urma cholg‘u;

TANGO – qadimiy ispan xalq raqsi bo‘lib, tsiganlarning flamenko nomli raqsiga o‘xshash. Ispan tangosining kuyi Kubadan kelib chiqqan bo‘lib, xabanera turiga kiradi. Musiqa o‘lchovi ko‘proq $\frac{2}{4}$, tango og‘ir, vazmin sur’atda o‘ynalib, yakka va juft bo‘lib estradalarda ijro etiladi.

TEMBR – tovush tuni, ishorasi, har bir musiqa cholg‘usining o‘ziga xos tovush sifati. Cholg‘u asbobining tuzilishi va shakliga ko‘ra uning tembri (ajratish belgisi) turlicha bo‘lishi mumkin;

TETRAXORD – ketma-ket kelgan to‘rt pog‘ona tovushqatori oralig‘i, interval. Ladda ikki tetraxord bo‘lib, buning birinchisi pastki tetraxord, ikkinchisi yuqorigi tetraxord deb yuritiladi.



TRANSPOZISIYA – tovushlarni boshqa tonallikka ko‘chirish, transpozitsiya turli sharoitda qilinadi, ya’ni yozilgan musiqa asari ashulachi ovoziga noqulay bo‘lsa, yozilgan notalar o‘qish yoki chalish uchun noqulay bo‘lsa, mazkur hollarda musiqa asarini bir tonallikdan ikkinchi tonallikka tranpozitsiya qilinadi, notalar tonalligi o‘zgartiriladi. Bunda musiqaning xususiyati, ritmi,akkord tuzilmasi, intervallar munosabati o‘zgarmaydi. Transpozisiya asarni boshdan-oyoq ma’lum bir intervalda, boshqa tonallikka ko‘tarish yo tushirish, musiqaviy kalitlarni almashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

TREL – bidratma, melizm turlaridan biri, nota yo‘lida yozilgan bir notaning yuqorigi qo‘shti pog‘ona bilan birin-ketin tez va uzlusiz qaytarilib chalinishi. Trel notaning ustiga qo‘yilgan **tr~~~~~** (tr) belgisi bilan ko‘rsatiladi:

TREPAK – qadimiy rus xalq raqsi, musiqa o‘lchovi $\frac{2}{4}$ bo‘lib, jonli sur’atda, xushchaqchaq ijro etiladi. Raqsdagi asosiy harakatlar ijrochi tomonidan improvizatsiya etiladi; trepakning musiqa shaklidan rus kompozitorlari foydalanganlar;

UVERTYURA – 1. Opera, balet, oratoriya, drama, kinofilm kabilarning boshlanishi oldidan ijro etiluvchi cholg‘u pyesasi bo‘lib, orkestri uchun yoziladi. 2. Sonata shaklida Ansambl uchun yozilgan musiqa asari, sahna asarlari uchun yozilgan, u ko‘proq shu asarning qisqacha mazmunini (libretto) bayon qilib beradi. Puflama xalq cholg‘ulari Ansambl uchun ham uvertyura yaratilgan.

UNDETSIMA – o‘n bir pog‘ona kenglikdagi interval, oktavaga kvarta intervali qo‘shilishidan hosil bo‘ladi va 11 raqami bilan ko‘rsatiladi:



FANTAZIYA – erkin shaklda yozilgan cholg‘u asari, pyesa. Fantaziya musiqada kamer janri holatida maydonga keldi. Dastlabki davrda fantaziya badiha xususiyatda, erkin shaklda bo‘lgan, ko‘proq organ yo klavesinlar uchun yaratilgan. XIX asrdan boshlab fortepiano uchun yozilgan, mahorat bilan ijro qilinadigan pyesalarini fantaziya deb atay boshladilar. Keyinchalik fantaziyaning simfonik Ansambl jo‘rligida yolg‘iz biror cholg‘u (skripka, fortepiano, g‘ijjak) uchun yozilgan turlari paydo bo‘ldi. Ansambl uchun yozilgan ma’lum bir dasturdagi yirik simfonik fantaziyalar ham yaratildi. Fantaziya uchun asos bo‘lgan mavzular musiqa asarining turlanishi (variatsion) tartibida ishlangan xalq ashulalari, raqslari, opera-baletlardan erkin holda olinishi mumkin, simfonik fantaziya asosiy janr hisoblanadi.

XOROVOD – xalq raqs sanhtining qadimiy turi, xorovod dramatik voqelik, raqs, ashula bilan birgalikda ijro etiladi. Xorovod ko‘p xalqlar o‘rtasida keng tarqalgan, u – doira bo‘lib, aylanib, ashula aytib o‘ynaladigan o‘yin, davra ma’nosida;

EKSPROMT – hech qanday tayyorgarliksiz bir yo‘la badiha (improvizatsiya) tarzida yaratilgan musiqa asari. Ekspromt – musiqiy lahza, xususiyati va sur’atlari har xil bo‘ladi, shakli odatda oddiy uch qismli shakldan kichik bo‘lmaydi. Ekspromt o‘zining lirik va jo‘shqinligi bilan ajralib turadi. Ekspromt fortepiano va boshqa cholg‘ular uchun yaratilgan kichik bir asar (pyesa);

EKOSSEZ – tez sur’atlar bilan ijro etiladigan shotland xalq raqsi, takt o’lchovi ilgari $\frac{3}{4}$ da, keyinchalik $\frac{2}{4}$ bo‘lib, volinka jo‘rligida ijro etilgan. Ekossez bal raqsi sifatida Fransiyada XVII asrda, Rossiyada XVIII asr boshlarida anglez nomi bilan tarqalgan. XIX asrdan boshlab ekossez nomi bilan atala boshlandi. Olmoniyada esa shotlandcha deb yuritila boshlandi. Ekossezning musiqa shakli ko‘p qiyofali raqs, keyinchalik borib kompozitor va bastakorlar ham shu mavzuda ijod eta boshladilar;

EKSPOZITSIYA – 1. Sonata shaklining birinchi bo‘limi bo‘lib, bunda asosiy mavzular bayon etiladi. Sonata allegrosining ekspozitsiyasi bir necha mavzu (partiya)lardan iborat: a) bosh partiya asosiy mavzuni bayon qilib, ko‘proq dramatik xususiyatda bo‘ladi; so‘ng bog‘lovchi partiya boshqa tonallikka modulyatsiya qilinib, yangi mavzu (materialini) ma’lumotini tayyorlaydi; b) yordamchi partiya bir va bahzan bir necha mavzudan tuziladi; ko‘proq lirik xususiyatda bo‘ladi, ya’ni bosh mavzuga qarama-qarshi tarzda hamda bog‘lovchi partiya tayyorlagan tonallikda davom etadi (majorda ko‘proq dominantada, minorda esa yondosh major tonalligida). Ko‘pincha yakunlovchi partiya ham bo‘lib, bu yordamchi partiya tonalligini mustahkamlaydi. Bog‘lovchi va yakunlovchi partiyalarini butunlay bo‘lmasligi mumkin; ba]zan bosh va yordamchi partiya mavzulari birlashtiriladi, unda ikki mavzuning tugallanishi uchun xususiyatlari bo‘lgan yangi mavzu ma’lumotidan foydalaniadi.

ELEGIYA – hasrat, zorlanish, o‘ychan, qayg‘uli xususiyatda bo‘lgan musiqa asari – pyesa.

ETYUD – ijrochilik mahoratini oshirish uchun ma’lum bir usuldan murakkab qilinib yaratilgan musiqa asari. Kompozitor va bastakorlar tomonidan yaratilgan etyudlar faqat ijrochilik mahoratini oshirish uchungina emas, balki katta badiiylikka ham ega. Etyudlar ijrochi mahoratini (texnikasini) takomillashtirish uchun mo‘ljallangan pyesalardir. Masalan, barmoqlarni ravon harakatlanishi uchun tersiya, oktava misollarida ko‘rish mumkin. Ko‘pgina etyudlar badiiy asar mohiyatiga ega emas, biroq shu bilan birga kompozitor va bastakorlar oliy darajali musiqiy etyudlar yaratishmoqda.

YALLA – keng tarqalgan o‘zbek xalq ashulalaridan, odatda yallani uch-to‘rt ashulachi ijro etadi. Boshlang‘ich qismini (daromad) hamma yallachilar barobar (unison) ijro etadilar. O‘rta avj bo‘limini ayrim ashulachilar, nihoyat katta avjini (kulminatsiya) bir ashulachi boshlab, uning o‘rta qismida boshqa ashulachilar qo‘shiladi; aksariyat yallalar bandli (kuplet) shaklda bo‘ladi.

CHARDASH – venger xalq raqsi, chardashni juft-juft bo‘lib o‘ynaladi. Musiqa o‘lchovi $\frac{2}{4}$, bu raqs ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchisi salmoqli, hayajonli, ikkinchisi tez, shiddatli (buni frishka deb ataladi). Chardashning ritmi sinkopali, ya’ni qattiq chalinadigan (aksentli) notaning kuchli hissadan kuchsiz hissaga ko‘chishi.

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

2. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23

sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrdagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish” to‘g‘risidagi Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagи “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagи “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6000-son Farmoni.

SH. Maxsus adabiyotlar

13. Madaniyat sohasiga oid meyoriy hujjatlar to‘plami. O‘z.R.Madaniyat va sport ishlari vazirligi, 2010 y.

14. List of Intangible Cultural Heritage in Need of Urgent Safeguarding. UNESCO, 2009.

15. Basic Text of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage, UNESCO, 2014, Paris.

16. O‘.Toshmatov, N.Isakulova. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari (monografiya). Toshkent, 2015 y.

17. Osnovniye teksti Mejdunarodnoy konvensii ob oxrane nematerialnogo kulturnogo naslediya. YUNESKO, 2014 g.

I. Internet saytlar

1. <http://edu.uz>
2. <http://lex.uz>
3. <http://bimm.uz>
4. <http://ziyonet.uz>
5. <http://www.dsni.uz>
6. <http://music.edu.ru/catalog>
7. <http://artyx.ru/>
8. <https://www.unesco-ichcap.org/publications/>
9. <https://www.ich.uz>

VIII. TAQRIZLAR